O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda 360240-raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

2024-yil
2-son

e-ISSN 3060-4885

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Ushbu sonda

Sistemaviy yondashuv asosida badiiy asar tahlili — 3-bet

Dostonlarda ijodkor dunyoqarashi va lirik qahramon muammosi — 22-bet

Talabalarning ingliz tilidagi nazariy va amaliy grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish — 26-bet

O‘zbek tilidan bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash mezonlari — 36-bet

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda 360240-raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

2024-yil
2-son
e-ISSN 3060-4885

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MAS’UL MUHARRIR
Shahobiddin Rasulov

MUHARRIRLAR:
Emma Torosyan
Nargis Bobodjanova
Nargiza Sotvoldiyeva
Muxlisa Do‘stmuhamedova

SAHIFALOVCHI
Akmal Farmonov

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar
@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 27.09.2024 da nashr etildi.

MUASSIS
O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi
“Til va adabiyot ta’limi”
davlat korxonasi

TIL VA ADABIYOT TA’LIMI
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ | LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

TAHRIR HAY’ATI:

Hilola Umarova
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri

Farhod Boqiyev
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari

Azizbek Turdiyev
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri maslahatchisi

Farrux Jabborov
“Til va adabiyot ta’limi” – “Преподавание языка и литературы” – “Language and literature teaching” jurnali bosh muharriri

10.00.00 – FILOLOGIYA

Baxtiyor Mengliyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, filologiya fanlari doktori

Baxtiyor Doniyorov
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali professori, filologiya fanlari doktori

Anatoliy Lixodziyevskiy
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Oksana Gibraltarskaya
O‘zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Svetlana Im
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Ranusha Atayeva
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo‘ldoshev
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

Salima Jumayeva
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Xadicha Muxitdinova
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

G‘ofir Hamroyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori

Sevara Ziyayeva
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori

Indira Narkulova
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Baxtiyor Mengliyev. Sistemaviy yondashuv asosida badiiy asar tahlili 3
Gulnoza Odilova. Taom realiyalari va gluttonim o‘xshatmalarga xos xususiyatlar 7
Azamat Uralov. Morfologik shakllar tizimida dualizm, konversiya va transpozitsiya tufayli yuzaga kelayotgan nomuvofiqliklar 11
Nigora Saydaliyeva. Xitoy tilidan yozma tarjimadagi nuqsonlar 14
Mahbuba Tojiboyeva, **Alisher G‘oziyev.** “Lo‘g‘ate chig‘atoyi beforsi” lug‘ati xususida 16
Muslimjon Nasirov, Malikaxon Meliqo‘ziyeva. Radioaloqa sohasiga oid birikma-terminlar tahlili....19
Salima Jumayeva. Dostonlarda ijodkor dunyoqarashi va lirik qahramon muammosi 22
Ванг Шенью. Пейзажные зарисовки в произведениях Валентина Распутина 24

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Sayyora Samiyeva. Talabalarning ingliz tilidagi nazariy va amaliy grammatik kompetensiyalarini rivojlantirish 26
Saodat Kambarova. Obrazli va konseptual tafakkurni rivojlantirishga tizimli yondashuvlar 29
Bobur Turdaliyev. Xorijiy tillarni o‘qitishda og‘zaki nutqni rivojlantirish usullari 32
Ra’no Rozikova. Chet tilini o‘qitishda loyihaviy ta’lim metodining o‘rni 34
Xadicha Muhitdinova. O‘zbek tilidan bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash mezonlari 36
Shaxlo Botirova. Uzluksiz ta’lim integratsiyasiga klaster tamoyillarining ta’siri 42
Ulug‘bek Yo‘ldoshev. Nasriy tarjima kompetensiyasini shakllantirish masalalari 46
Угилой Кусанова. Улучшение методической позиции учителей иностранного языка с помощью дидактической инженерии 48

Baxtiyor MENGLIYEV,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori, filologiya fanlari doktori

SISTEMAVIY YONDASHUV ASOSIDA BADIIY ASAR TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada “sistema” atamasi fan doirasida izohlangan, sistemaviy yondashuvning asar tahlilidagi ahamiyati va xususiyati misollar yordamida ochib berilgan. Shuningdek, empirik, ratsional bilimlarning farqi, maqsadi aniqlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: sistema, ratsional bilim, empirik bilim.

Annotation. The article examines the term “system” within the framework of science, using examples to reveal the meaning and nature of the systematic approach in the analysis of works. The distinction between empirical and rational knowledge is also clarified.

Keywords: system, rational knowledge, empirical knowledge.

Аннотация. В статье рассматривается термин “система” в рамках науки, на примерах раскрываются значение и характер системного подхода при анализе произведений. Также уточняется различие между эмпирическим и рациональным знанием.

Ключевые слова: система, рациональное знание, эмпирическое знание.

Sistemaviy yondashuvdan badiiy asardagi struktura (funksiya/munosabat)ni aniqlash, tushunish va shundan so‘ng uning tub mohiyatini ochishda foydalaniladi.

Sistema – ma’lum funksiyani bajarish uchun bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan elementlar majmuyi. Sistemalarni ko‘p jihatdan tasnif qilish mumkin. Dastlab mavhum va aniq sistema farqlanadi. Mavhum sistema aql yordamida tiklanadi va ongda mavjud hamda shartli ifodaga ham ega bo‘ladi. Masalan, tildagi unli fonemalar sistemasi – mavhum sistema. U – ilmiy tafakkur mahsuli. Kimyoviy elementlarning davriy jadvali ham shunday sistema. Mavhum sistema borliqda mavjud bo‘lmaydi. Ularni “tafakkur sistemalari” deyish ham mumkin. Aniq sistema borliqda bo‘ladi. Borliqdagi har bir narsa/hodisa – aniq sistema. U jismoniy (masalan, mexanizm), biologik (misol uchun, organizm), ijtimoiy (deylik, tashkilot) bo‘lishi mumkin.

Har ikki turdagi sistema ham elementlardan tashkil topadi. Farqi shundaki, mavhum sistemalarning elementlari bir xil (masalan, “unlilar” sistemasini tashkil etuvchi fonemalar – ***o, a, u, o‘, e, i*** elementlari bir xil o‘lcham va vazifaga ega) bo‘lsa, aniq sistemalarning elementlari har xil (masalan, avtomobilni tashkil etuvchi elementlar – ***dvigatel, shassi, kuzov*** har xil o‘lcham va vazifaga ega).

Demak, sistemaning tenglama ko‘rinishi quyidagicha: [sistema = elementlar + munosabat].

Sistemaning asosiy xususiyatiga quyidagilar kiradi:

– *elementlardan tashkil topish.* Sistema bir-birini taqozo va inkor qiluvchi alohida element (uzv)lardan iborat;

– *elementlarning o‘zaro ta’sirlashuvi*. Sistema elementlari bir-biri bilan o‘zaro ta’sirlashadi, birining mavjudligi boshqasini taqozo etadi, o‘zaro bog‘liq bo‘ladi;

– *sistemaning strukturlashganligi*. Sistema elementlarning qanday bog‘lanishini belgilaydigan aniq tuzilishga ega. U iyerarxik, tarmoqli yoki boshqa tarzda bo‘lishi mumkin;

– *sistemaning vazifaliligi*. Sistema aniq funksiyaga ega. Vazifa ayon yoki yashirin bo‘lishi mumkin, ular sistema qanday ishlashi va qanday natijaga erishishini belgilaydi;

– *elementlarning o‘zaro bog‘liqligi*. Sistemaning elementlari o‘zaro bog‘liq, bir elementning o‘zgarishi boshqa elementga va butun sistemaning ishlashiga ta’sir qiladi. O‘zaro bog‘liqlik sistemaning yaxlitligi va barqarorligini ta’minlaydi.

Aytilganidek, sistema ikki ko‘rinishda bo‘ladi: tafakkur sistemasi va borliq sistemasi. Tafakkur sistemasi borliq hodisalarini umumlashtirish asosida ongda tiklanadi. Masalan, adabiy janrlar sistemasi. Bu sistema faqat ongda yashaydi. Borliqda faqat ma’lum bir janrga mansub aniq badiiy asarlar bo‘ladi. Qo‘limizdagi asar – moddiy va borliq sistemasi.

Tafakkur sistemasining elementlari bir xil bo‘ladi. Masalan, adabiy tur sistemasi bir turdagi (gomogen) elementlar – janrlardan iborat. Moddiy sistema (ya’ni muayyan badiiy asar) mavzu, sujet, kompozitsiya, timsollar kabi turli elementlardan iborat bo‘ladi. Ularning har biri alohida element hisoblanadi.

Tafakkur sistemasi elementlari orasidagi zidlik (farq), moddiy sistemalar orasida uyg‘unlik (moslik) ustuvorlik qiladi. Ular munosabat (struktura)dir. Masalan, janrlar orasida farq va tafovutlar ahamiyatli (chunki u tafakkur sistemasi, mavhum sistema), aniq badiiy asar elementlari bo‘lgan mavzu, sujet, kompozitsiya, timsollar orasida moslashuv, uyg‘unlik mavjud (chunki muayyan badiiy asar – borliq sistemasi, moddiy sistema).

Ratsional (nazariy) va empirik (kuzatuv) yondashuv fan, jumladan, adabiyotshunoslikda bilim hosil qilishning ikkita asosiy yondashuvi, bilishdagi ikki bosqich sanaladi.

Adabiyotshunoslikda nazariy bilimdan asar tuzilishi, mazmun va ramz kabi badiiy hodisalarni anglash va anglatishga yordam beradigan qonuniyatlarni ochish va tushunchalarni ishlab chiqish hamda qo‘llashda foydalaniladi. Badiiy qonuniyatlar ustida ish ko‘ruvchi strukturalizm, poststrukturalizm, feministik tanqid kabi nazariy yondashuvlar adabiyotni tahlil qilish uchun turli yondashuv, usul va vositalarni taklif qiladi. Fanda (xususan, adabiyotshunoslikda ham) qonuniyatlarni ochuvchi yondashuv – nazariy yondashuv, bu bilan shug‘ullanuvchi olim nazariyotchi olimdir.

Adabiyotshunoslikdagi empirik bilim matn tahliliga asoslangan tadqiqot, muallif yoki kitobxonlar bilan suhbat, so‘rov va asarni qabul qilish ma’lumotlarini tahlil qilishdan iborat bo‘lishi mumkin. Masalan, badiiy asarni idrok etish bo‘yicha tadqiqotlarda so‘rov va ma’lumotlarni tahlil qilish usulidan foydalansa bo‘ladi. Adabiyotshunoslikda empirik yondashuv – ochilgan qonuniyatlarning ma’lum bir ijodkor yoki asarda namoyon bo‘lishini tahlil qilish, bu bilan shug‘ullanuvchi olim esa empirik olimdir. Agar asar yoki adib ijodi tahlilidan chiqarilgan xulosa adabiy qonuniyatlarni ochishga olib kelgan bo‘lsa, ya’ni yangi qonuniyat kashf etilgan bo‘lsa, bu tadqiqot to‘la ma’noda nazariy tadqiqotdir.

Nazariy va empirik bilimlar ilmiy tadqiqotlar, jumladan, badiiy tanqidda o‘zaro bog‘liq, ular bir-birini to‘ldiradi. Ya’ni umumiy badiiy qonuniyatlar muayyan badiiy asarda qanday voqelanganini tekshirish amaliyoti nazariy (ratsional) bilimlar asosida amalga oshiriladi. Empirik tahlillar esa nazariy bilimlarga asos bo‘la olishi kerak.

Badiiy asar tahlilida sistemaviy yondashuvdan foydalanmaslik bir qancha salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bular:

– *uzilish va yuzaki tahlil.* Sistemaviy yondashuvsiz tadqiqotchilar badiiy asarlarning sujeti, personajlari yoki uslubi kabi ayrim jihatlari, ularning aloqasi va asarning boshqa jihatlariga ta’sirini hisobga olmagan holda o‘rganishga moyil bo‘lishi mumkin. Bu esa badiiy matn mohiyatini to‘liq tushunmaslik va yuzaki baholashga olib keladi. Yoki biror adib ijodi unga yondosh adiblar ijodidan ayricha o‘rganilsa, bu sistemadagi bir elementni boshqasidan xoli o‘rganish demakdir. U elementni sistem munosabatsiz o‘rganish hisoblanadi. Masalan, Abdulla Oripov ijodini u bilan bir sistemaga kiradigan yondosh ijodkorlardan uzib, yakka holda tadqiq qilish aslida ilmiy yondashuv emas. Buning uchun dastlab ushbu sistemaga qaysi ijodkorlar kirishini aniqlab olish zarur. Adabiyotshunoslar bu sistemologik aksiomani e’tiborga olishlari kerak;

– *kontekstsizlik.* Sistemaviy yondashuv badiiy asar yaratilgan va idrok qilinadigan kontekst (muhit)ni hisobga olishga imkon beradi. Tadqiqotchilar tarixiy, ijtimoiy yoki madaniy kontekstlarni hisobga olmagan holda, asar mazmuni va talqiniga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan muhim jihatlarni o‘tkazib yuboradi. Kontekstual tahlil uch o‘lchamli yondashuv bo‘lib, u maxsus tadqiqotlarni taqozo etadi. Zotan, badiiy matnda ham uch o‘lcham – “to‘g‘ri chiziq”, “yuza” va “hajm” birliklari xususiy ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi;

– *qamrovning cheklanganligi*. Sistemaviy yondashuv adabiyotga keng kontekstda va turli nuqtayi nazardan qarash imkonini beradi. Sistemaviy yondashuvning yo‘qligi badiiy asar va uning ahamiyati haqida cheklangan qarashga olib keladi. Tadqiqotchi adabiyotning psixologiya, tarix, falsafa yoki sotsiologiya kabi boshqa sohalar bilan aloqasini o‘rganish imkoniyatini qo‘ldan boy berishi mumkin. Masalan, “O‘tkan kunlar” romanida psixologizmni yoritish personajlarni psixologik tahlil qilish, ularning temperamentlarini aniqlashdan boshlanishi kerak. Biroq psixologizmga urg‘u berilgan ishlarning aksariyatida hatto psixologiyaga doir birorta qo‘llanmaga murojaat qilinganini ham ko‘rmaymiz. Adabiy-estetik tahlillar haqida ham shunday desa bo‘ladi;

– *obyektivlikdan mahrumlik.* Sistemaviy yondashuv tadqiqotning obyektivligiga hissa qo‘shadi, chunki u turli omil va ular orasidagi munosabatlarni hisobga olish imkonini beradi. Sistemaviy yondashuvsiz tadqiqotchi subyektiv va cheklangan nuqtayi nazarga duch keladi, bu esa badiiy asar tahlili va talqinini buzishi mumkin.

Adabiyotshunoslikda sistemaviy yondashish badiiy asarni uning murakkabligi, mazmuni va munosabatini hisobga olgan holda, chuqurroq va har tomonlama tadqiq etish va tushunish imkonini beradi. Shuningdek, adabiyotning sistema sifatidagi umumiy qonuniyatlari har bir xususiy asarda qanday voqelanganini aniqlashga olib keladi. Bu yanada xolis va chuqur tahlil qilishga hissa qo‘shadi, shuningdek, adabiyot fanining istiqbolini kengaytiradi.

San’at asariga bir-biri bilan o‘zaro ta’sir qiluvchi turli elementdan tashkil topgan yaxlit moddiy borliq sistemasi deb qarash mumkin. Quyida ushbu elementlarning ba’zilari va ularning munosabatlarini keltiramiz:

– *sujet*. Badiiy asar asosini tashkil etadi. Bu – asarda yuzaga keladigan voqealar ketma-ketligi. Sujet qahramonlarning o‘zaro ta’siri, konfliktning rivojlanishi va muammoni hal qilishni o‘z ichiga oladi. Sujet badiiy asarga nisbatan element bo‘lish bilan birga, o‘zini tashkil etuvchilarga nisbatan sistema sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, sujetni tashkil etuvchi unsurlar uning o‘zaro bog‘lanib, sistemani tashkil etgan elementlaridir;

– *personajlar.* Ularning xatti-harakati va boshqa ramzlar bilan o‘zaro munosabatiga ta’sir qiluvchi shaxsiyati, motiv va maqsadlari bor. Qahramonlar asosiy yoki yordamchi obrazlar bo‘lishi ham mumkin, ularning o‘zaro ta’siri (elementlarning o‘zaro munosabati) asarning qanday rivojlanishini belgilaydi;

– *mavzu.* Bu – muallif o‘z asari orqali aytmoqchi bo‘lgan asosiy g‘oya yoki xabar. U asarning sujeti, personajlari, timsollari va boshqa elementlari orqali ifodalanadi. Mavzu keng ijtimoiy muammo, insoniy qadriyat yoki shaxsiy his-tuyg‘u bilan bog‘liq bo‘ladi;

– *uslub.* Bu – muallifning asar yaratishda til va badiiy vositalardan foydalanishi. Uslub so‘z, ibora, ritm, metafora va boshqa badiiy vositani tanlash va qo‘llashni o‘z ichiga olishi mumkin. Muallifning uslubi asar muhiti va o‘quvchiga hissiy ta’sir qilishi mumkin;

– *timsol*. Bu – tom ma’nodan tashqari qo‘shimcha ma’noga ega narsa, harakat yoki belgi. Timsollar chuqur g‘oya, his-tuyg‘u yoki tushunchani yetkazish

uchun ishlatiladi. Ular takrorlanuvchi motiv yoki ish kontekstida o‘ziga xos ma’noga ega bo‘ladi.

Badiiy asardagi bu elementlarning o‘zaro ta’sirlashuvi yaxlit sistemani vujudga keltiradi. Har bir element boshqasiga ta’sir qiladi va o‘quvchida fikr va estetik ta’sir shakllanishiga hissa qo‘shadi. Mazkur elementlarning mavqeyi turli asarda har xil bo‘lishi mumkin. Bir asarda sujet ustuvor bo‘lsa, boshqasida uslub kuchli bo‘lishi mumkin. Yoki G‘arb adabiyotini sujet san’ati, Sharq adabiyotini tasvir san’ati (so‘z san’ati) egallagan, degan hukmimizda ham shunga asoslanamiz.

Adabiyotda sistemaviy yondashuv tadqiqotchilarga badiiy asarni yaxlit va kontekstual tahlil qilish va tushunishga yordam beradigan bir nechta komponentni o‘z ichiga oladi. Bular:

– *kontekst*. U badiiy asarning yaratilishi va idrokini o‘rab turgan tarixiy, ijtimoiy, madaniy va badiiy omillarni o‘z ichiga oladi (bu biz yuqorida ta’kidlagan uch o‘lchamdan biri bo‘lgan “hajm”ga muvofiq keladi). Sistemaviy yondashuv tadqiqotchilari ish va uning talqiniga qanday omillar ta’sir qilishi mumkinligini tushunish uchun kontekstni hisobga oladi. Masalan, Abdulla Qahhorning “Bemor” [1: 36–37] hikoyasidagi Sotiboldi badiiy shaxsining mohiyati uch o‘lchamda ochiladi: jumla (“chiziq” – birinchi o‘lcham), matn (“yuza” – ikkinchi o‘lcham) va tashqi omillar (“hajm” – uchinchi o‘lcham). Aynan ushbu hikoyada hal qiluvchi omil – adib tomonidan berilmagan tarixiy davr, muhit hisoblanadi. Adib uslubiga bog‘liq ravishda o‘lcham birliklari teng yoki nomutanosib bo‘lishi ham mumkin;

– *elementlararo munosabat*. Adabiyotdagi sistemaviy yondashuv asarning sujet, personaj, mavzu, uslub va timsol kabi turli elementlarining o‘zaro munosabatiga qaratilgan. Tadqiqotchi ushbu elementlarning bir-biri bilan o‘zaro ta’siri va ularning kombinatsiyasi asarning yaxlitligi va mazmunini qanday yaratishini tahlil qiladi (bu yuqorida ta’kidlangan “yuza”ga muvofiq keladi);

– *intertekstuallik.* Sistemaviy yondashuv tadqiqotchisi matnlararo aloqalar, ya’ni badiiy asarlar orasidagi bog‘liqliklarni inobatga oladi. Ular asar qanday qilib boshqa asarga havola qilishi, iqtibos keltirishi yoki qayta talqin qilishi mumkinligini o‘rganadi. Bu badiiy asarning bir-biriga qanday ta’sir qilishini tushunishga yordam beradi (bu yuqorida ta’kidlangan “to‘g‘ri chiziq”qa muvofiq keladi);

– *kompleks tahlil*. Adabiyotda sistemaviy yondashuv asarning nafaqat mazmuni, balki uning shakli, tuzilishi, tili va uslubini ham o‘z ichiga olgan kompleks tahlilni taqozo etadi. Tadqiqotchi asarning mazmuni va estetik ta’siriga qanday ta’sir qilishini tushunish uchun uning tafsilot va xususiyatlariga e’tibor beradi;

– *fanlararo yondashuv*. Adabiyotlarda sistemaviy yondashuv tarix, falsafa, sotsiologiya va psixologiya kabi turli sohaga oid bilim va usuldan foydalanishni ham o‘z ichiga oladi. Sistemaviy yondashuv tadqiqotchisi badiiy asarlarni to‘liqroq tushunishi uchun o‘z dunyoqarashi va bilimlarini kengaytirishga intiladi.

Adabiyotda sistemaviy yondashuv tadqiqotchilarga badiiy asarlarni o‘z yaxlitligi va kontekstida, elementlarning o‘zaro bog‘liqligi va matnlararo aloqalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqishga ko‘maklashadi.

Adabiyotning turli janr va shakliga ularning xususiyat va munosabatlarini aniqlash uchun sistemaviy yondashuv qo‘llanishi mumkin. Adabiy turlarga sistemaviy yondashuvni qo‘llashga misol keltiramiz:

1. **NASR.** Roman tahliliga sistemaviy yondashishda tadqiqotchilar sujet, personaj, mavzu va uslub o‘rtasidagi munosabatga e’tibor qaratadi. Ularda turli voqea-hodisa qanday o‘zaro bog‘langanligi, personajlar qanday rivojlanib, bir-biri bilan o‘zaro sistemaviy munosabatda bo‘lishi, asarda qanday mavzu va g‘oya mavjudligi, muallif uslubining umumiy muhit va estetik kayfiyatga qanday ta’sir etishi tahlil qilinadi;

2. **SHE’RIYAT.** She’r tahliliga sistemaviy yondashishda tadqiqotchilar she’rning tuzilishi, so‘z va iborani tanlanishi, ritm va tovush effektlariga e’tibor beradi. Ular bu elementlarning bir-biri bilan o‘zaro ta’siri va qanday qilib maxsus estetik va hissiy muhitni yaratishini tahlilga tortiladi. Shuningdek, turli she’riy asarlar o‘rtasidagi matnlararo aloqa va ularning bir-biriga ta’sirini o‘rganishlari mumkin;

3. **DRAMA.** Dramalarni tahlil qilishga sistemaviy yondashishda tadqiqotchi asarning tuzilishi, personajlar o‘rtasidagi dialog, sahna yo‘nalishi va rejissor fikrlariga e’tibor beradi. Ular sahnada harakat qanday kechayotgani, qahramonlarning bir-biri bilan o‘zaro munosabati, asarda qanday mavzu va g‘oya mavjudligini tahlil qiladi. Shuningdek, dramatik asarning she’r yoki nasr kabi boshqa janrlar bilan o‘zaro munosabatini ham o‘rganishi mumkin. Ta’kidlash lozimki, dramatik asarning sahnasiz tahlil qilinishi sistemaviy yondashuvga mutlaqo ziddir.

Uzviy va estetik mazmunli badiiy asar yaratishda quyidagi tarkibiy qismlarning o‘zaro ta’siri muhim o‘rin tutadi:

– *sujet va personajlar munosabati.* Sujet va personajlar bir-biriga o‘zaro ta’sir etib, dramatik holat yaratadi. Qahramonlar harakatlanadi va sujet rivojiga ta’sir qiluvchi qarorlar qabul qiladi. Sujet, o‘z navbatida, qahramonning xatti-harakati va evolutsiyasini belgilaydi. Sujet va personaj orasidagi o‘zaro ta’sir o‘quvchi bilan hissiy aloqani yaratishga yordam beradi va inson tajribasining chuqurligi va murakkabligini namoyon qiladi;

– *mavzu va ramzlar munosabati.* Mavzu va ramz asarning chuqur mazmun va g‘oyalarini yetkazish uchun o‘zaro ta’sirlashadi. Ramzlar asar mavzusini ochishga yordam beradigan illyuziya, metafora va allegoriyalarni ifodalash uchun ishlatilishi mumkin. Mavzu va ramzlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir muallifga turli yo‘l bilan talqin qilinishi mumkin serqirra va polifonik matn yaratish imkonini beradi;

– *uslub va til munosabati*. Uslub va til o‘zaro bog‘lanib, maxsus atmosfera va estetik ta’sir yaratadi. Muallif uslubi, so‘z, ibora va ritm tanlashi asarning o‘ziga xos ovozini vujudga keltiradi. Til tasvirlarini yaratish, kayfiyat va hissiyotlarni tasvirlash, dialog va qahramonlarning fikrlarini yetkazish uchun ishlatilishi mumkin. Uslub va

til o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir o‘ziga xos badiiy shakl yaratishga, muallif shaxsini anglashga yordamlashadi;

– *kontekstuallik va intertekstuallik munosabati*. Kontekst va intertekstuallik o‘quvchiga asarni tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekstda tushunishga yordam berish uchun o‘zaro ta’sirlashadi. Kontekst asarning mavzulari, g‘oyalari va uslubiga ta’sir qiladi, matnlararo aloqa esa boshqa badiiy asar va an’analarga murojaat qilishi mumkin. Kontekst va intertekstuallik o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir asar va uning ahamiyatini tushunishni kengaytirishga yordam beradi.

Badiiy adabiyotdagi komponentlararo o‘zaro ta’sir asarning estetik va hissiy ta’sirini yetkazishga yordam beradigan murakkab va chuqur bog‘lanishlar tarmog‘ini yaratadi.

Adabiyotda sistemaviy yondashuvning metodologik asoslari badiiy asar o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan murakkab moddiy sistema, degan fikrga asoslanadi. Ushbu yondashuv turli tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni hisobga olgan holda, bir butun sifatida tahlil qilishni taklif qiladi. Adabiyotda sistemaviy yondashuvning asosiy tamoyillaridan ba’zilariga to‘xtalamiz:

– *“yaxlitlik” prinsipi*. Sistemaviy yondashuv badiiy asarning yaxlit sistema ekanligi, bunda har bir element boshqa elementlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, asarning umumiy tuzilishi va mazmuniga ta’sir etishini nazarda tutadi. Demak, asarni to‘liq anglash uchun uni barcha tarkibiy qismlari doirasida ko‘rib chiqish zarur;

– *“o‘zaro ta’sir” prinsipi*. Sistemaviy yondashuv asarning sujeti, personajlari, uslubi, tili va mavzulari kabi turli elementlari orasidagi o‘zaro ta’sirga qaratilgan. U bu elementlarning bir-biri bilan qanday munosabatda bo‘lishi va ular o‘rtasida qanday o‘zaro bog‘liqlik va aloqa mavjudligini tahlil qilishni taklif qiladi;

– *“iyerarxik va mikrosistematik” prinsip.* Sistemaviy yondashuv badiiy asarni iyerarxik daraja va mikrosistemalarga bo‘lish mumkinligini nazarda tutadi. Masalan, sujetni turli hodisa va harakatlarni o‘z ichiga oluvchi mikrosistema, personajlarni esa ularning xarakterlari, motivlari va munosabatlarini o‘z ichiga oluvchi mikrosistema sifatida ko‘rish mumkin;

– *“teskari aloqa va o‘z-o‘zini tartibga solish” prinsipi*. Sistemaviy yondashuv badiiy asarda fikr-mulohazani va o‘z-o‘zini tartibga solish mumkinligini ko‘rsatadi. Demak, asarning bir qismidagi o‘zgarishlar boshqa qismlarga ham ta’sir qilishi, asar o‘qilishi va talqin qilinishi bilan o‘zgarishi va rivojlanishi mumkin;

– *“kontekstuallik” prinsipi*. Sistemaviy yondashuv badiiy asarning yaratilishi va idrokiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekst kabi omillarni hisobga oladi. U ushbu kontekstual omillar asarning tuzilishi va mazmuniga qanday ta’sir ko‘satishini tahlil qilishni taklif etadi;

– *“ko‘p darajalilik” prinsipi*. Sistemaviy yondashuv badiiy asarni mikrodarajadan (masalan, alohida iboralar yoki tasvirlarni tahlil qilish) makrodarajagacha (masalan, to‘liq tahlil qilish) tahlil qilishning oralig‘ida ko‘rib chiqishni nazarda tutadi.

Adabiyotda sistemaviy yondashuv badiiy asarni chuqurroq va har tomonlama tahlil qilish va tushunish imkonini beradi va bir qancha afzalliklarga ega. Masalan:

– *asarni yaxlit tushunish*. Sistemaviy yondashuv badiiy asarni yaxlit sistema sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi, jumladan, sujet, personaj, mavzu, uslub va hokazo. Bu asarni va uning o‘quvchiga estetik va hissiy ta’sirini to‘liqroq va chuqurroq anglash imkonini beradi;

– *aloqalar va o‘zaro ta’sirlarni ochish*. Sistemaviy yondashuv asarning turli tarkibiy qismlari o‘rtasidagi munosabat va o‘zaro ta’sirlarni tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, sujet personajlar rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatishi, muallif uslubining ma’lum muhit va hissiy ta’sir yaratishi, mavzu va timsollarning asar teranligi va mazmunini qanday ifodalashi kabi. Bu badiiy asarning murakkabligi va teranligini ochib berishga ko‘maklashadi;

– *fanlararo yondashuv*. Adabiyotda sistemaviy yondashuv tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, estetika va falsafa kabi turli fanlarning tamoyil va usullaridan foydalanish imkonini beradi. Bu asar va uning madaniyat va jamiyatdagi o‘rni haqida keng va ko‘p qirrali tasavvurga ega bo‘lish imkonini yaratadi;

– *kontekstual va intertekstual tahlil*. Sistemaviy yondashuv badiiy asarni uning tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekstida tahlil qilish imkonini yaratadi. Bu asarning yaratilishiga qanday omillar ta’sir qilganini, shuningdek, uning boshqa badiiy asar va an’analar bilan qanday munosabatda bo‘lishini tushunishga olib keladi;

– *tanqidiy fikrlashni kengaytirish.* Adabiyotshunoslikda sistemaviy yondashuv analitik va tanqidiy fikrlashni, shuningdek, asarning turli tarkibiy qismi orasidagi aloqa va o‘zaro ta’sirlarni ko‘rish qobiliyatini talab qiladi. Bu adabiyot va uning ahamiyatini chuqurroq va tanqidiyroq tushunishga yordam beradi.

Umuman olganda, adabiyotga sistemaviy yondashuv asarni chuqurroq va har tomonlama anglash, uning murakkabligi va ahamiyatini ochib berish, analitik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Adabiyotga sistemaviy yondashuvni mutlaqlashtirishda soddalashtirish, cheklash, muallifning individualligini e’tiborsiz qoldirish va tahlilda kontekstning yetishmasligi bilan bog‘liq ayrim jihatlarni yuzaga chiqarish ehtimoli ham mavjud. Ammo ta’kidlash kerakki, agar sistemaviy yondashuv boshqa usul va yondashuvlar bilan birga qo‘llansa, badiiy asarni tahlil qilish va tushunish ancha foydali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qahhorov A. Tanlangan asarlar. I qism. – Toshkent: O‘zSSR Davlat badiiy adabiy nashriyoti, 1957.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

Gulnoza ODILOVA,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

TAOM REALIYALARI VA GLUTTONIM O‘XSHATMALARGA XOS PRAGMATIK XUSUSIYATLAR

Annotatsiya. Maqolada badiiy asarlardagi taom realiyalari va gluttonim o‘xshatmalarning pragmatik xususiyatlari o‘rganilib chiqilgan va ularni bartaraf etish uchun bir qancha takliflar berilgan. Tarjimada transkripsiya va transliteratsiya, qisman transkripsiya, izohli transkripsiya, kalkalash, adaptatsiya, perifraza, generalizatsiya, konkretizatsiya, tushirib qoldirish holatlari haqida keng muhokama olib borilgan.

Kalit so‘zlar: realiya, tuxumbarak, pitsa, gluttonim o‘xshatmalar, transkripsiya va transliteratsiya, qisman transkripsiya, izohli transkripsiya, kalkalash, adaptatsiya, perifraza, generalizatsiya, konkretizatsiya.

Annotation. The pragmatic features of food realities and gluttonymous similes in works of art are studied and a number of suggestions for their elimination are given. A broad discussion of cases is conducted such as transcription and transliteration, partial transcription, annotated transcription, copying, adaptation, paraphrase, generalization, concretization, and omission in the translation.

Keywords: realia, eastern ravioli, pizza, gluttonymous similes, transcription and transliteration, partial transcription, annotated transcription, copying, adaptation, paraphrase, generalization, concretization.

Аннотация. В статье анализируются прагматические особенности пищевых реалий и глюттонимных сравнений в художественных произведениях, даны предложения по их устранению. Широко обсуждены случаи транскрипции и транслитерации, такие как частичная, аннотированная транскрипции, калькирование, адаптация, перефразирование, генерализация, конкретизация и опущение в переводе.

Ключевые слова: реалия, тухумбарак, пицца, глюттонимные сравнения, транскрипция и транслитерация, частичная транскрипция, аннотированная транскрипция, калькирование, адаптация, перифраз, генерализация, конкретизация.

Realiyalar bir millat leksikasida uchrovchi, ikkinchi tilda muqobiliga ega bo‘lmagan so‘zlar bo‘lib [1: 146], til va madaniyatlarni chog‘ishtirish jarayonida ekvivalentsiz leksikani tarjima qilish muammosi vujudga kelmasdan iloj yo‘q. M.L.Vaysburdning fikricha, realiyalarga millatning madaniy hayotiga daxldor muassasalar, an’ana va udumlar, badiiy adabiyot, taniqli shaxslar, yozuvchi va olimlar, asar qahramonlarining nomlari, tabiat hodisalari kiradi [2: 98]. L.N.Sobolev “realiya” istilohiga aniqroq yondashadi va realiyani bir xalqning turmush tarzi o‘laroq tilida mavjud bo‘lgan, boshqa xalqlarning tili va madaniyatida ekvivalentiga ega bo‘lmagan so‘z hamda so‘z birikmalar sifatida izohlaydi [3: 281]. L.S.Barxudarovga ko‘ra, “realiya” yot tilda so‘zlovchi kishilar tajribasida uchramaydigan narsa va vaziyatlar nomlaridir [4: 95].

Realiyalarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan ikkita asosiy muammo: 1) tarjima tilida mazkur so‘zning ekvivalent analogi yo‘qligi; 2) so‘zning semantik xususiyati bilan bir qatorda mazkur realiya orqali milliy tarixiy kolorit (konnotatsiya)ni ham qayta yaratish lozimligi [5: 63].

Realiyalar borasida yirik tadqiqot olib borgan S.Vlaxov va S.Florin realiyani ikkita asosiy turga bo‘ladi: geografik va etnografik realiyalar. Etnografik realiyalar tarkibiga oziq-ovqat va ichimlik realiyalari bir millatga xos bo‘lgan yegulik, taom: *shchi, chebureki, banitsa, pirog, pay, spagetti, empanados, knedli; mate, kumis, el, bo-za, sidr, suyka, chixir;* umumiy ovqatlanish joylari – *chayxana, tavernya, pirojkovaya, salun, dragstor, bistro, shkembedjiynitsa; xamam, sauna, termi* kiradi [6: 82]. Mazkur tadqiqotda garchi pul, kiyim-kechak, siyosiy realiyalar kichik subguruhlarga bo‘lib o‘rganilgan bo‘lsa-da, oziq-ovqat realiyalarining o‘zi kichik guruhlarga ajratib o‘rganilmagan.

Quyida gluttonik realiyalarni guruhlarga ajratib o‘rganishga harakat qilamiz:

Oziq-ovqat nomlari: *osh, manti, moshkichiri, g‘ilmindi, somsa, tuxumbarak, pitsa, raviolli, shanejki.*

Taomga solinadigan bir millat oshxonasiga xos masalliq va ziravor nomlari: *bix, soya, vassabi, xmeli, suneli, karri*.

Ichimlik nomlari: *ayron, go‘ja, qimiz, bo‘za, shinni, sake, tekilla, pivo.*

Oshxona anjomi, idish-tovoq nomlari: *tandir, chakich, rapida, kuvi, chovli, barbekyu, mangal.*

Pazandachilikka oid kasblar: *somsapaz, ayronchi, norinchi, shokolate, samile.*

Milliy taom bilan bog‘liq udumlar: *tugun oshi (og‘iroyoq xotinning oson ko‘zi yorishi uchun), kulcha yumalatar (bolakayning yaxshi yurib ketishi uchun), tish bo‘g‘irsoq (chaqaloqning tishlari chiqqanda), hasipsolar (chaqaloqning sochi to‘kilsa), kutya (xristianlar marhumni yodlash uchun pishiradigan marosim va taom nomi).*

Ovqatlanish obyektlari: *somsaxona, choyxona, restoran, qahvaxona, mehmonxona, tapchan, so‘ri.*

Olimlar taom realiyalarini tarjima qilish uchun uch asosiy usul (transkripsiya, tarjima yoki almashtirish va realiyalarni almashtirish)ni tavsiya etadilar [5: 118]. Quyida biz shu usullarni kichik guruhlarga ajratgan holda ko‘rib chiqamiz:

Transkripsiya (transliteratsiya) – somsa – samsa (ingl.), palov – pilaf (ingl.), kabob – kebab (ingl.), norin – narin (ingl.).

Tarjima (almashtirish) – neologizm pitsa; **a) kalka** – kievskiy kotlet – kiev kotleti; **b) yarim kalka** – milk-sheik – sutli sheyk (o‘zb.); **d) semantik neologizm** – brauni – shokoladli tort (o‘zb.).

Realiyalarni almashtirish – tuxumbarak – eastern ravioli (ingl), lag‘mon – Uzbek ramen (ingl.).

Yaqinlashtirilgan tarjima: a) somsa – samosa (ingl., hindcha somsa); b) chuchvara – dumplings (ingl., asosan ingliz tiliga chuchvaraga o‘xshash koreyscha xamir taom nomi bilan o‘giriladi); d) ugra – homemade noodles (ingl., uyda tayyorlangan lag‘mon).

Gluttonimlar tarjimasida quyidagi transformatsion usullardan foydalanish matnning asliyatga adekvatligini ta’minlashga xizmat qiladi: *transkripsiya va transliteratsiya, qisman transkripsiya, izohli transkripsiya, kalkalash, adaptatsiya, perifraza, generalizatsiya, konkretizatsiya, tushirib qoldirish.* Har bir tarjima transformatsiyasi asliyat matnini qayta yaratishda o‘ziga xos yechimdir. Biroq tarjimon ulardan birini tanlashdan oldin gluttonimning leksik-semantik mazmuni, til va madaniyatdagi o‘rni bilan yaqindan tanishib chiqishi lozim.

Gluttonik diskursga oid matnni boshqa tilga o‘girayotgan tarjimondan, birinchi navbatda, asliyat tilidagi taom nominantining realiya yoki realiya emasligini aniqlab olish talab etiladi. Undan so‘ng tarjima transformatsiyalaridan foydalangan holda, matnning ma’no mohiyatidan kelib chiqib tarjima qilishi mumkin bo‘ladi.

Biz taom nomlarini ikki turga ajratib o‘rganishni tavsiya etamiz:

1) sodda gluttonimlar;

2) realiya gluttonimlar.

Sodda gluttonimlarga hamma millat tilida uchraydigan oziq-ovqat mahsulotlari va umuminsoniyat uchun tushunarli, milliy bo‘yoqdan xoli taom va oshxona anjomlari nomlarini kiritish mumkin. Ularni ham, o‘z navbatida, kichik guruhlarga ajratsa bo‘ladi:

– meva va sabzavotlar, ko‘katlar, ziravorlar, sut va go‘sht mahsulotlari nomlari: olma (apple), karam (cabbage), qovun (melon), shivit (dill), zira (cumin), go‘sht (meat), pishloq (cheese), tuxum (egg), sut (milk);

– taom, ichimlik va qandolatchilik mahsulotlari: sho‘rva (soup), shavla (porridge), non (bread), bo‘g‘irsoq (donut), choy (tea), sharbat (juice);

– oshxona anjomlari: gaz plitasi (oven), patnis (oven sheet), pichoq (knife), qoshiq (spoon), sanchqi (fork).

Realiya gluttonimlarga esa kelib chiqishi bir millatga xos bo‘lgan va boshqa millat oshxonasiga chetdan kirib kelgan, faqat o‘sha yerda o‘sadigan navdagi meva-sabzavotlar (bu kategoriyaga ekzotik realiyalar: kivi, banan, ananas kabilar kirmaydi), taom va oshxona anjomlari nomlarini kiritish mumkin. Masalan:

– meva va sabzavotlar, sut va go‘sht mahsulotlari nomlari: chili pomidori, gurvaki qovun, mansarella va parmezan (pishloq nomlari), dungan qalampiri, qimiz, qazi;

– taom, ichimlik va qandolatchilik mahsulotlari: pitsa, palov, gaspachcho, xachipuri, xinkali, ayron, tekila, varaqi, varenniki;

– oshxona anjomlari: tandir, mangal, barbekyu.

Tarjimon badiiy tarjimada gluttonik diskursga oid matnlarga duch kelganida jarayonga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashishi muhim. Har bir gluttonimning asliyat tili vakillari uchun qanday konseptosferaga ega ekanligini aniqlash maqsadga muvofiq. Matnda qo‘llangan gluttonim shunchaki taom nomi sifatida qo‘llanganmi yoki botiniy mazmun, ishoraviy xarakter kasb etyaptimi – to‘g‘ri tahlil qila bilish, shundan so‘ng gluttonim tarjimasi uchun muayyan tarjima uslubi – transformatsiyani tanlash kerak.

Gluttonik diskursga oid matnlarda uchrovchi realiyalar o‘zida milliy kolorit va an’analarni mujassam etganligi bois tarjimada mazkur muqobili yo‘q leksik birliklar hosil qiluvchi pragmatik ta’sirchanlikning tushib qolishi ehtimoli nihoyatda katta. Masalan, “varaqi” realiyasini olaylik. Badiiy matnda kelgan bu gluttonimni tarjimon varaqining tayyorlanishi va mazasidan kelib chiqib o‘z tilidagi biror taom nomi bilan almashtirishi yoki izohli tarjima hamda transliteratsiya qilishi kerakmi? Buning uchun, avvalo, shu taom nomining o‘zbek madaniyati, gastronomik olam milliy manzarasidagi o‘rnini va yozuvchining ishorasini to‘g‘ri tushunib olish kerak. Shunday milliy taom nomlari borki, ular nafaqat taom nomi, balki kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, hurmatni ham ifodalashi mumkin. Varaqi – tayyorlanishi jihatidan qiyin pishiriq. Pishirish usulida xamirga bir necha bor ishlov berish, go‘shtni qiymalash va qovurish, varaqini bukish va yana qovurish jarayonlari borligi uchun bu taom quda-andalar yoki nozik mehmonlar uchun tayyorlangan. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida varaqi yozuvchi tomonidan asar qahramoni Mirzakarim qutidorning Otabekka iliq munosabatini ifodalash uchun xizmat qilgan:

Asliyat: – *Cho‘ringni chiqarib mehmonxonani tozalat. Anovi yangi qoplag‘an ko‘rpalaringni ber, tanchaga o‘shani yopsin. Katta gilamni ham chiqar, uyingda mevalaring bor edimi?*

– *Bor.*

– *Bor bo‘lsa yaxshi. Birozdan so‘ng et olib kirguzarman,* ***varaq****i pishirib qo‘yingiz.*

Oftob oyim ***varaqi*** *pishirishdan u kungi mehmonning uncha-muncha kishi bo‘lmag‘anlig‘ini bildi.*

– Qanaqa mehmon edi?

– Sen tanimassan, toshkandlik bir yigit, tag‘i shu yerdagi uch-to‘rtta og‘aynilar. Tuzikmi, aytkanlarimni uqdingmi?

– Uqdim-uqdim.

Bu asar taniqli amerikalik tarjimon Mark Riz tomonidan ingliz tiliga o‘girilgan. Tarjimon turli toponimlar, urf-odat va muomala madaniyatida ishlatiladigan so‘zlarning izohini berar ekan, milliy oziq-ovqat realiyasi bo‘lgan ba’zi so‘zlarni shunchaki tarjima qilgan va izoh bermagan.

Tarjima:

And then turning to Oftob Oyim: “Please send a servant to tidy the Mehmon Khana. Prepare those newly sewn korpacha, let her cover the sandal with them. Lay out the big carpet. Is there any fruit for the table?”

“Yes, there is.”

“That’s good. In a little while, I will send you to get meat to make us some varaqi.”

From the mention of ***varaqi*** *Oftob Oyim realized* ***this would not be an ordinary guest.***

“Who is the guest?”

“You have never met him. He is a young man from Tashkent. There will be three or four other friends as well. Is everything understood?”

“I understand, I understand” (“Bygone days”, A.Qodiri. Translated by M. Reese)

Ushbu dialogdan Qutidorning birgina mehmon kutish uchun turmush o‘rtog‘i Oftob oyimga bergan topshiriqlari orqali mehmonning obro‘yi qanday ekanligini bilib olish mumkin. Buni Oftob oyim tez fahmlaydi va mehmonning kim ekanligini so‘raydi. Odatda o‘zbeklar – mehmondo‘st xalq, kelgan mehmonning oldiga borini to‘kib sochadi. Lekin obro‘li mehmon yoki qudalar kelishsa, har doimgidan-da to‘kinroq dasturxon yoziladi. Qutidorning mehmonxonani tozalattirishi, yangi qavilgan ko‘rpacha, gilam soldirishi, dasturxonga meva qo‘yib, atayin varaqi pishirtirishi mehmonning obro‘si balandligidan dalolat beradi. Bu yerdagi pragmatik ma’no, ya’ni Oftob oyimning mehmonning uncha-muncha odam emasligini bilganini chet kitobxoni kalit so‘z “varaqi” orqali tushunmasligi mumkin. Bunga yana bir sabab – o‘zbekona mehmonnavozlik qoidalari: o‘zbek xalqining doimo mehmonga darvozasi ochiqligi, tanishbilishlarning uyiga bemalol mehmon bo‘lib borish mumkin ekanligi, agar mehmon oldindan chaqirilgan bo‘lsa, u nihoyatda aziz, martabali mehmon hisoblanishi; biroq chet elda chaqirilmagan mehmon degan tushuncha yo‘qligi, G‘arbda mehmon faqat taklif qilinsagina kelishi, xabar bermay birovning uyiga mehmonga borish mezbonga xush kelmasligi mumkinligi, ya’ni oddiy va kutilgan mehmon tushunchalari yo‘qligi natijasida asarda Qutidorning mehmonni kutib olishga alohida tayyorgarlik ko‘rayotganligi, uning hayajoni va mehmonga nisbatan iliq munosabati tarjima tilida anglashilmasdan qolishi mumkin. Ikkinchidan, ko‘rpacha solish, varaqi pishirish ular uchun umuman yot tushuncha. Chunki G‘arbda stol atrofida stulda o‘tiriladi va har kuni o‘tiriladigan va mehmon kelsa solinadigan ko‘rpachaning ham farqi tushunarli emas. Varaqi esa o‘zbek milliy taomi hisoblanadi. Go‘shtning qimmat mahsulot ekanligi, ayniqsa, o‘sha paytda hamma ham go‘shtli ovqat yeya olmaganligi esa yana bir pragmatik ma’noni hosil qiladi. Demak, tarjimon izoh berganda mana shu jihatlarni hisobga olishi kerak bo‘ladi. Ushbu misolda varaqi transliteratsiya usulida tarjima qilingan. Izohlar qatorida esa bu milliy taomga *“fried meat pie”* deb izoh berilgan. Ammo bilamizki, varaqi “pie” (*A* ***pie*** *is a baked dish which is usually made of a pastry dough casing that contains a filling of various sweet or savory ingredients* – ichiga shirinlik yoki achchiq qiyma solib pishirilgan pirog) emas, balki *“filled puff pastry”* (ichiga qiyma solingan qatlama xamirli pishiriq)ga muqobil ekvivalent bo‘ladi. Biroq tarjimon varaqining tayyorlanish texnikasidan xabardor emas, shekilli, uni *pastry* (qat-qat xamirli pishiriq) emas, balki *“fried meat pie”* (qovurilgan go‘shtli pirog) deb tarjima qiladi. Keyingi o‘rinda ham varaqi nomi uchraydi: *“...dasturxoning tuzik, varaqini esingdan chiqarma”, – dedi.*

Tarjima: *“Your tablecloth is nice. Don’t forget about the Varaqi.” (“Bygone days”, A.Qodiri translated by M.Reese)*

Mazkur kontekstdagi “varaqi” so‘ziga havola orqali quyidagicha izoh ilova qilingan: *Varaki: dish with thinly layered bread and meat. Variants of the dish exist throughout Central Asia” (“Bygone days”. Translated by M.Reese).*

Bu o‘rinda tarjimon varaqiga “*yupqa yoyilgan non va go‘sht”* deb ta’rif beradi. Bizningcha, “varaqi” so‘zini *“fried meat pie”* deb izohli tarjima qilish emas, balki “varaqi” ko‘rinishida transliteratsiya qilib, quyidagicha izoh ilova qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi: *Varaqi – filled puff-pastry with thinly layered dough stuffed with meat. Because of a difficult method of preparation this dish was cooked only for honored guests. Variants of the dish exist throughout Central Asia* (**so‘zma-so‘z**: Varaqi – yupqa qatlamli xamirga go‘shtli qiyma solib pishiriladigan qat-qat pishiriq. Tayyorlash jarayoni murakkabligi tufayli bu taom faqat hurmatli mehmonlar uchun pishirilgan. Taomning turli xil variantlari butun O‘rta Osiyoda mavjud).

Badiiy adabiyotimizdagi gluttonik diskursda keng qo‘llaniladigan yana bir shunday tarjima qilinishi mushkul bo‘lgan stilistik gluttonimlar borki, bu – gluttonim o‘xshatmalar. Bu kategoriyadagi gluttonimlarga inson qiyofasi va fe’l-atvorini oziq-ovqat, meva nomlariga majoziy o‘xshatishlar kiradi. Masalan: *qip-qizil gilos dudoqli, charosdek (uzum navi) qop-qora ko‘zli, uzumning suvidek chiroyli qiz, bug‘doyrang* va hokazo. Ingliz adabiyotida ham shunga o‘xshash badiiy tasvirlar uchraydi: *apple cheek* – olma yonoqli, *cherry lips* – gilosdek qizil labli, *apple of eyes* – ko‘zning qorasi,

olive skinned – zaytun rang, *potato nose* – kartoshka burun, *candy girl* – shirin qiz. Mazkur gluttonimlarni metafora va o‘xshatmalar guruhlariga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq, chunki o‘zbek va ingliz tillaridagi bu kabi gluttonim o‘xshatmalarning kelib chiqishi iqlim sharoiti va bir qancha lingvomadaniy omillar bilan bog‘liq ravishda tubdan farqlanishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilidagi *bug‘doyrang (inson yuzining rangi)* tasvirini ingliz tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilib bo‘lmaydi, chunki ingliz tilida bunday o‘xshatma yo‘q. Ingliz tiliga mazkur o‘xshatma *“olive skinned”* (zaytunrang terilik) ekvivalenti bilan qayta yaratilishi mumkin. Bu kabi holatlar asliyat tili ingliz tili bo‘lganda ham yuz berishi mumkin. Masalan, ingliz yozuvchisi Joanna Xarrisning “Shokolad” romanida inson qiyofasi va fe’lini tasvirlashda *“apricot heart”,* ya’ni “o‘rik qalbli” metaforasi qo‘llangan. Asar qahramoni shokolad do‘koniga tashrif buyuradigan mijozlarini turli shirinliklarga qiyoslaydi. Bizga ma’lumki, yetilgan o‘rik mevasi yumshoq va muloyim. Asarda yozuvchi qahramonning yumshoq fe’li, muloyim tabiyatini izohlash maqsadida shunday tasvir qo‘llagan. Mazkur holatda bu badiiy tasvirni “o‘rikdek yumshoq qalbli” singari izohlashimiz mumkin. Lekin o‘zbek tilida insonning yumshoq tabiatga ega ekanini ifodalash uchun “halim” tashbehi qo‘llaniladi. O‘zbek kitobxoniga erish tuyulmasligi va tasvirni tezroq uzatish maqsadida ushbu iborani *“apricot heart”* tashbehi uchun muqobil variant sifatida beradigan bo‘lsak, “meva”ning o‘rnini o‘zbek milliy bayramlarida tanovul qilinadigan go‘shtli taom egallaydi. Natijada, asardagi yozuvchi qo‘llagan o‘ziga xos shirinliklar, shokolad turlari va mevalar orqali insonning psixologik portretini ochib berish uslubiga biroz putur yetadi. Tashbehlar silsilasi buziladi. Bu o‘rinda “uning qalbi oq qanddek” deb tarjima qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki qandning oppoqligi ko‘ngilning tozaligi va tez erib ketishi tasvirlanayotgan shaxsning ko‘ngilchanligiga ishora bo‘lib, neytral emotsional ekvivalent bo‘lishi mumkin.

Demak, tarjimon gluttonik diskursga oid matn tarjimasiga bel bog‘lar ekan, quyidagi ketma-ketlikda ish olib borishi maqsadga muvofiq:

– kontekstdagi gluttonimning sodda yoki realiya gluttonim ekanligini aniqlash;

– kontekstdagi gluttonimning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish;

– asliyat tili vakillari madaniyatidagi o‘rni va u bilan bog‘liq lingvomadaniy tushunchalarni jamlab, tahlil qilish;

– tarjima tiliga o‘girishda munosib transformatsion uslubni tanlash.

Gluttonik diskursda esa asarda nomlari keltirilgan taomlarning quyidagi xususiyatlarini bilish talab etiladi:

– taomning tayyorlanish texnikasi, ta’mi va rangi (o‘z tilida funksional ekvivalent topish uchun);

– taom qaysi ijtimoiy qatlam tomonidan iste’mol qilinishi (asar podteksti va yozuvchining ishorasini tushunish uchun);

– gluttonimning asliyat tili madaniyatidagi o‘rni, taom bilan bog‘liq assotsiatsiyalar, arxitiplar;

– tarjima tilida mazkur taomga funksional analog bor yoki yo‘qligi.

Badiiy adabiyotdagi gluttonik diskurs tarjimasi tarjimondan asliyat tilini bilishdan tashqari, urf-odatlar, ijtimoiy muhit, asliyat tili vakillarining ta’bi va gluttonik xohishlari, ya’ni qanday yeguliklarni xush ko‘rib, qaysi taomlarni yoqtirmasliklari, qanday taom qaysi ijtimoiy qatlam tomonidan iste’mol qilinishi kabi kompleks ma’lumotlarni bilishni talab etadi. Har bir badiiy asar tarkibida gluttonik diskursga oid matnlar mavjud. Mazkur sohada ko‘plab qiyosiy tadqiqotlar olib borilsa, gluttonik diskurs tarjimasi qonuniyatlarini to‘la ishlab chiqish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Крупнов В.Н. Лексикографические аспекты перевода. – Москва: ИЛ, 2018.
2. Вайсбурд М.Л. Реалии как элемент страноведения // РЯзР, 1972, №3.
3. Соболев Л.Н. Пособие по переводу с русского языка на французский. – Москва: Изд. лит. на иностр. яз., 1952.
4. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – Москва: Междунар. отнош., 1975.
5. Влахов С. Непереводимое в переводе. [Текст]: учебное пособие / С.Влахов, С.Флорин. – Москва: Международные отношения. [Электронный доступ]: https://www.rulit.me/books/neperevodimoe-v-perevode-read-391814-1.html
6. Влахов С.И., Флорин С.П. Непереводимое в переводе. 5-е издание. – Москва: Издательство Р.Валент, 2012.
7. Herbert Grebes. Litereture, literary history and cultural memory. – Germany: Goettingen, 2005. – p. 6.
8. Butayev Sh. English–Uzbek dictionary. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
9. https://whereismyspoon.co/harry-potters-pumpkin-pasties/
10. http://www.instructables.com/id/Hogwarts-Express-Pumpkin-Pasties/

Azamat URALOV,
Guliston davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MORFOLOGIK SHAKLLAR TIZIMIDA DUALIZM, KONVERSIYA VA TRANSPOZITSIYA TUFAYLI YUZAGA KELAYOTGAN NOMUVOFIQLIKLAR

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilidagi morfologik shakllar tizimida ro‘y berayotgan nomutanosibliklar, shuningdek, nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi dualizm, konversiya, transpozitsiya jarayonlari yoritilgan.
Kalit so‘zlar: dualizm, ko‘chish, konversiya, transpozitsiya, nomutanosiblik (asimmetriya), morfologik shakllar.
Annotation. The article shows the imbalances in the system of morphological forms in the Uzbek language. Also, the processes of dualism, conversion, and transposition that create imbalance are highlighted.
Keywords: dualism, displacement, conversion, transposition, disproportion (asymmetry), morphological forms.
Аннотация. В статье показаны диспропорции в системе морфологических форм узбекского языка, выделены процессы дуализма, конверсии и транспозиции, создающие дисбаланс.
Ключевые слова: дуализм, смещение, конверсия, транспозиция, диспропорция (асимметрия), морфологические формы.

Dualizm holati ko‘pincha belgilar o‘rtasida yuz beradi: belgi va uning ma’nosi to‘liq mos tushmay qoladi. Ularning qamrovi ham bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi, chunki bitta belgi har doim bir nechta semantik vazifalarni bajaradi va bitta ma’no har doim bir nechta belgilar orqali ifodalanadi. Birinchidan, til ma’no anglash jihatidan umumiy va individual, aniqlik va mavhumlik sifatida tavsiflanishi mumkin bo‘lgan ikki tomon o‘rtasida harakatlanadi. Ikkinchidan, til lingvistik jamiyatning barcha a’zolari uchun aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Biroq boshqa tomondan, jamiyatdagi har bir shaxs uchun o‘zini namoyon qilish, anglash, tushunish vositasi bo‘lib xizmat qilishi kerak. Morfologiyada tilning semiotik qadriyatlari ma’lum bir ko‘rsatkichga ega va til shaxsining xohish-istagidan ustun turadi. Shu bilan birga, ma’lum shakldagi belgilar doimo o‘zgarib turadigan aniq voqelikka nisbatan qo‘llanilishi shart. Oqibatda esa ma’no anglatadigan til belgilari har bir davr uchun ma’lum shaklni o‘zida namoyon etadi. Bunday ko‘rinish har bir voqelikda turlicha tus olishi mumkin va natijada til belgilari o‘rtasida ko‘p ma’nolilik, shakldoshlik, ma’nodoshliklarni keltirib chiqaradi. Bir shaklning bu ko‘rinishda nomutanosib holatda harakatlanishi vaziyat taqozosi bilan ro‘y berishi mumkin. Boshqa bir tomondan, yangi leksema tilda o‘rinlashganida dastlabki ma’nosi saqlanib qoladi, vaziyat taqozosi bilan boshqa ma’nolar ham kasb etadi. Bunda ayni ma’no qisman saqlanib qolishi yoki yo‘qolishi mumkin. Saqlanib qolingan ma’no asimmetrik dualizmni yuzaga chiqaradi.

Asimmetrik dualizmning mohiyati o‘z shaklini boshqa shaklga yoki o‘z shaklini bir necha mazmunga berish holati bilan ifodalanar ekan, morfologik shakllar tizimidagi erkalash-kichraytirish shakllarida bu holatni kuzatish mumkin. *-chak* shakli bilan ifodalanayotgan *kelinchak* so‘zining mohiyati va mazmuniga e’tibor qaratamiz. Dastlab, *kelin + chak* morfemalaridagi *-chak* shakli erkalash mazmuniga xizmat qiladi, keyinchalik bu shakl hurmatlashni ham ifodalaydi. Tilimizning hozirgi taraqqiyotida erkalash va kichraytirish bir shaklga yuklanmoqda. *Sizga endi bir kelin**chak** olib bersak. Ko‘ngliga qarab, kelin**chag**ingizni yoningizda olib yurasiz-da.* Misoldan ko‘rinadiki, bir shaklning turli ma’nolar ifodalay olishi yoki ifodalashi – asimmetrik dualizm – morfologik shakllar tizimidagi erkalash va kichraytirish shakllarida ham kuzatiladi.

Har qanday semiotik tizim umumiy va individual subyekt sifatida emas, balki ikkita oraliq yoki ikkita semiotik qiymatlar o‘rtasidagi munosabatlar sifatida mavjud bo‘lib, ularning har biri boshqasini farqlashga xizmat qiladi. Lingvistik belgining bu farqlash xarakteriga juda ko‘p talabning qo‘yilishi to‘g‘ri bo‘lmaydi: *bola – farzand (kuyov bola), bola – nasl (mushukning bolasi).*

So‘zning aniq mantiqiy qiymatini faqat aniq vaziyatning vazifasi sifatida aniqlash mumkin. Aks holda har qanday so‘z bir ma’no uchun xizmat qilgan bo‘lar edi. Faqat ilmiy terminlarning qiymati bir marta va umumiy fikrlar tizimiga kiritilishi bilan belgilanadi. Ammo kundalik hayotiy so‘zlarimiz sema anglatish nuqtayi nazardan asimmetrik dualizm uchun xizmat qilsa, ajabmas. Shuning uchun morfologik birliklar fikrlar to‘plamini o‘z ichiga olgan holda, bir tizimda shakllanadi.

Biz har safar so‘zni aniq voqelikka semantik qiymat sifatida qo‘llaganimizda, ozmi-ko‘pmi yangi tasavvurlarga ega bo‘laveramiz. Boshqacha qilib aytganda, biz doimo belgining semantik qiymatini uslub tarafidan o‘zgartiramiz. Agar belgining odatiy qiymati, mazmuni anglashimiz uchun yetarlicha bo‘lmasa, biz buni sezmaymiz: *bola **qovun** tushirmoqda – bolalar **qovun** tushirmoqda*. Birinchi navbatda, belgining o‘ziga xosligi saqlanib qoladi, chunki bizning fikrimiz integratsiyaga intiladi va tasavvurlar to‘plamidagi har qanday o‘zgarishlarni qayd etishdan bosh tortadi; ikkinchidan, biz eski belgining yangi qiymatiga turtki beradigan taqqoslashni ongimizda joriy qilamiz. Bu jarayon so‘zning

ko‘chishi va ma’noning kengayishiga olib keladi: *sovuq havo – sovuq xabar.* Bir so‘z nutq uslublarining so‘zlashuv uslubida turli sema maydonlari hosil qilsa, rasmiy uslubda aniq bir maydonda harakatlanadi.

Morfologik shakllar tizimidagi *-(i)sh, -(u)v* – fe’lning harakat nomi shakli mazmunan boshqa ma’nolarni ham ifodalashi fanda ko‘p kuzatiladi. Chunonchi, *-(i)sh* (borish, kelish, turish, o‘qish) harakat nomidan tashqari, otlashuv asosida otlar yasaydi. Shakllanish va vazifa nuqtayi nazaridan otlarga moyillik kuchayib, funksional transpozitsiya holatida vaqtincha otlik xususiyati ortadi. Aslida harakat nomi otlarga tortilgan fe’l bo‘lib, bir shaklning ikki mazmunga xizmat qilishi asimmetrik dualizmni yuzaga keltirmoqda. Bu yuzaga chiqish holati funksional transpozitsiya orqali amalga oshadi. Masalan: *o‘qi**sh** kitobi, o‘qi**sh** fani, o‘qi**sh** darsi*…

-(u)v harakat nomi shakli ham (kechuv, boruv, ishlov, keluv, biluv) otlashishga moyil. Bu shaklning ham funksional transpozitsiya yo‘li bilan otlarga o‘tishi kuzatiladi, ayrim holatlarda ot yasovchi maqomini oladi. Dastlab otlashuv yo‘li bilan e*shittir**uv*** (eshittiruvcha chaqirmoq), *o‘qu**v*** (o‘quv quroli, o‘quv yili), *uchrash**uv*** (uchrashuv joyi, uchrashuvga chiqmoq, “Uchrashuv” kafesi), *kech**uv*** (kechuv joyi, kechuvdan o‘tmoq), *yo**zuv*** (yozuv daftari, yozuvi chiroyli / chiroyli yozuv) kabi misollarda transpozitsiyani kuzatsak, *saylov, o‘quv, qidiruv, ko‘rsatuv, qurshov, yozuv* kabi so‘zlarda batamom otga o‘tgan shaklni ko‘rishimiz mumkin.

Demak, harakat nomining funksional transpozitsiya yo‘li bilan yasovchiga aylanishi nomutanosiblikning dualizm ko‘rinishini isbotlaydi.

Morfologik shakllar ham umumiy mohiyatini saqlagan holda tarixiy-semasiologik, lingvosemiotik, funksional jihatdan o‘zgarib, qayta taqsimlanish va o‘rinlashish jarayonlariga ham tortilib turadi. Bunday tortilishlar, tildagi qayta bo‘linishlar til tizimida turli holatda va davrda ro‘y beradi. Morfologik shakllarning bunday usulda kengayishi yoki torayishi tildagi yangi morfemalarning ortib borishi, leksemalar miqdorining ko‘payishi va boyishiga olib kelishi mumkin.

A.G‘ulomov o‘z asarlarida o‘zbek tili va turkiy tillar misolida tilning turli sathlaridagi nomutanosiblikni tarixiy-diaxron jihatdan ham, sinxron nuqtayi nazardan ham tadqiq etgan olim hisoblanadi. U so‘zning morfem qurilishida semantik va asemantik birliklar nisbati, ularning yuz berishi sabablariga katta e’tibor qaratib, shunday yozadi: “Tovush o‘zgarishlarining sabablari har xil (tejamkorlik tamoyili, nutq a’zolarining harakatiga, aytishga qulaylik, farqlash talabi), shuningdek, har bir boshqalikning o‘z fonetik sharoiti bor: so‘zning qaysi o‘rinda kelishi, qaysi bo‘g‘inda va bo‘g‘inning qayerida kelishi, ochiq yoki yopiq bo‘g‘inda bo‘lishi, qaysi tovushlar bilan qo‘shni bo‘lishi, birikishi; qanday tovushlar orasida kelishi (masalan, intervokal pozitsiyada); urg‘uli va urg‘usiz bo‘lishi. Tovush o‘zgarishlari xilma-xil, bunda tarixiy o‘zgarishlar va bu hozirgi regulyar xarakterdagi o‘zgarishlar boshqa-boshqa xususiyatlarga ega bo‘ladi” [1: 117].

Demak, nomutanosiblik har bir tilda tabiiy ravishda amal qiladigan, shakl va mazmunning turlicha bog‘lanishi, ular orasidagi uzviy aloqadorlik, shakl va ma’noning o‘zgarishi, ko‘chishi, o‘zaro o‘tishi jarayonlarini aks ettiradigan muhim qonuniyatning nomi hisoblanadi. Sinxroniya diaxroniyaning qonuniy davomchisi, vorisi bo‘lar ekan, har bir sinxron bosqichdagi shakldoshlik, ma’nodoshlik, ko‘p ma’nolilik, ko‘p vazifalilikning ham o‘z izohi, sabablari bor. Ana shu jarayon va hodisalar tufayli til jamiyat ehtiyojlariga hozirjavob tizim qobiliyatini to‘liq namoyon qiladi hamda o‘zida aks ettiradi.

Ayni damda til o‘zining rivojlanishida hech qachon to‘xtamaydi. U vaqtlar o‘tishi bilan ravnaq topib, rivojlanib, sayqallanib, yangilanib boradi va tilga yangi birliklarning kirib kelishi uchun zamin yaratib beradi. Ayrim hollarda tildagi mavjud birliklarning imkoniyatlari kengayib, yangi sema maydonini shakllantiradi va yangi birliklar hosil qilishini ta’minlaydi. Til birliklarining nutq jarayonida qo‘llanishi natijasida turli o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi, birinchisi ikkinchisiga, ikkinchisi uchinchisiga o‘xshashga harakat qiladi. Vaqtlar o‘tishi bilan yangi bir birlik ikkinchi birlikning o‘rnini egallaydi, ya’ni ko‘chadi. Tildagi bu jarayonlar asosan mavjud birliklarning rivojlanishida, muloqotga kirishishida ko‘rinadi. Transpozitsiya hodisasi til tanlamaydi, u kishilar tomonidan ifodalanadi, shu sababli til birliklari tilga yaxlit tizim sifatida emas, muloqotning talabi bilan so‘zlovchilarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan birliklar sifatida kirib keladi va ishlatiladi. Shu sababli bir so‘z turkumi doirasida tan olingan morfologik shaklning boshqa bir morfologik shakl doirasiga o‘tishi yoki o‘tib qolishi tildagi sinxroniya va diaxroniya qonuniyatlarining mahsuli hisoblanadi va bu til qonuniyatida amal qiladi.

“Har bir transpozitsiyada asosiy narsa, – deb yozadi Karsevskiy, – bir necha psixologik aloqasi mavjud bo‘lguncha davom etadigan doimiy, qiymat va tasodifiy vazifalar o‘rtasidagi farqdir. Ammo bildirilgan haqiqat, g‘oyalar tizimida o‘z o‘rnini egallaydigan avtonom konsepsiyaga aylanishi bilan unga boshqa aniqlovchi kerak emas, bunda aloqa batamom uziladi. Ikkala tushunchaning har biri bevosita o‘z belgisi bilan bog‘liq. Biz fonologik jihatdan bir xil ovozli, lekin ayni paytda avtonom ishoralar bilan ifodalanadigan ikkita belgi bilan shug‘ullanmoqdamiz” [2: 30–31]. Shuningdek, transpozitsiya va ma’nodoshlik, Karsevskiy ta’kidlaganidek, bir hodisaning ikki tomonidir. Bizningcha, shaklda anglangan har qanday ma’no ketma-ketligining lisondagi ko‘rinish qatori bilan kesishish nuqtasini ifodalaydi. Mana shu ifodalanish turli xil nomutanosibliklarni yuzaga chiqaradi. Masalan, *xon* so‘zi: 1) podsho; 2) erkalash shakli.

“Funksional transpozitsiya” terminini fanga olib kirgan olim Sh.Balli hisoblanadi [3: 130–131]. Transpozitsiya nazariyasini fanda birinchi marta Sh.Balli, uning individual jihatlarini esa O.Jezpersen, A.Sesche, A.Frey ishlab chiqdilar. L.Teniyer transpozitsiya turlarining tavsifini berdi (“tarjima” deb nomlanadi): birinchi darajali transpozitsiya (so‘zlarni nutqning bir qismidan boshqasiga tarjima qilish) va ikkinchi darajali transpozitsiya (jumlalarni ot, sifat, ravishga o‘tkazish). Transpozitsiya g‘oyasi transformatsion usulning asosidir. O‘tgan asr tilshunosligida transpozitsiya so‘z yasalishi, sintaktik sinonimiya, semantik sintaksis, troplar nazariyasi va boshqa masalalar bilan bog‘liq holda o‘rganiladi [4].

Ulardagi ma'no va vazifa ko'rinishlar morfemika, leksikologiya, hatto sintaksis bo'limlarida ham fundamental tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Transpozitsiya ko'pgina adabiyotlarda berilgan bo'lsada, uning nomlanish va "ko'chish" termini bilan bog'liq muammolarni hal etish J.Eltazarovning "O'zbek tilida so'z turkumlarining o'zaro aloqasi va ko'chishi" [5] nomli ilmiy ishlarida o'rganilgan. Tadqiqot natijasida ko'chishning ikki shakli mavjudligi aniq bo'ldi: konversiya va transpozitsiya.

Tilshunoslikda konversiya so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'no o'zgarishi orqali yangi ma'noli birliklarni hosil qiladi. Bu holatda asosan so'z turkumi o'zgaradi, ya'ni bir turkum doirasidan boshqa bir turkum doirasiga ko'chadi. F.Sharipovning so'z yasalishi bilan bog'liq qarashlarida "o'zbek tilshunosligida ham morfologiyaning leksikologiya bilan yaqinligi, ayniqsa, morfologik yo'l bilan – affikslar orqali so'z yasashda yoki bir turkumdagi so'zning boshqa turkumga o'tishida ochiq ko'rinib turishi" [6: 21] ta'kidlansa, ayrim manbalarda bunga "yasalishning bir turi" deb ham qaraladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ko'chishdagi mohiyat biror so'z turkumining boshqa bir so'z turkumiga o'zgartirish xarakterida bo'lishi bu hodisaning tashqi yasalish ko'rinishidaligini anglatadi. Biroq bu jarayon bir hodisaning avvalgi holatini saqlab qolib, boshqa holatga o'tishi – o'zgarishi xarakterida emas, balki avvalgi ko'rinishini saqlagan holda yangi ma'noga ham ega bo'lishidir. Demak, bu aslida ko'chish emas, balki boshqa tomondan qaraganimizda, ma'noning kengayishi (ba'zida yasalishi) hisoblanadi. *Yangi* (sifat) – *yangi* (ravish). *Kasal, yarador, qahramon, mard* singari so'zlar deyarli ot so'z turkumiga o'tgan. Sifatlarning otga ko'chishi sifatdan keyin kelgan otning tushib qolishi bilan ifodalanadi va otga tegishli barcha kategoriyalarni olib turlanadi: *kasalim, kasaling, kasali, kasalimiz, kasalingiz, kasallari* (aslida, *kasal odam*, sifat so'z turkumi) [1: 47]. Morfologik shakllarda *-ish* harakat nomining (o'qimoq, o'quv, o'qish) nisbat shakliga o'tishi ko'chishning bir ko'rinishi sifatida baholanishi lozim: *o'qishdi, borishdi, yozishdi* kabi. Misollarga yana bitta nisbat qo'shilsa, pleonizmni kuzatamiz: *o'qishishdi, yozishishdi.*

Morfologik shakllarda esa yuqorida aytganimizdek, shakl yasovchilarning so'z yasovchiga konversiyasi orqali ifodalanadi: ***-(i)sh*** harakat nomi shaklidan konversiya yo'li bilan ot yasovchi shakliga – o'qish, yashash, qurilish, burilish, bilish; ***-(u)v*** harakat nomi shaklidan konversiya yo'li bilan ot yasovchi shakliga – *qidiruv, ko'rsatuv, saylov*; ***-mish*** shakli ham tarixan sifatdosh shakli (borg'on / bormish, kelg'on / kelmish) bo'lib, bugungi kunda konversiya yo'li bilan ot yasovchi vazifaga ko'chgan: *o'tmish, kechmish, qilmish, yemish* kabi.

Shuningdek, fe'llarning bo'lishsiz shaklini hosil qiluvchi ***-ma*** shakli ham (inkor qilish sharti bilan) konversiya yo'li bilan ot yasovchilikka o'tgan bo'lish ehtimoli bor: *uyushma, qovurma, qaynatma, terlama*. Bunday shakllar fe'llarga xos xususiyatdan hosil bo'lganligi, fe'l so'z turkumida ham mavjudligi, majhul nisbat shaklining olmasligi, *tugma (tugilma), topilma, qo'llanma* singari ot yasovchilardan ajralib turishi buni isbotlamoqda.

Sifat yasovchilarda (*quvurma* lag'mon, *qaynatma* sho'rva, *qovima* ko'rpa, *yozma* ish, *yig'ma* jild, *yasama* qaychi) ***-ma*** shakli ham aslan fe'lning bo'lishsiz shakliga aloqasi bordek, nazarimizda. Chunki *qazilma boylik* shaklidagi yasalishdan (yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'rtada majhul nisbatning kelishi) biroz farq qiladi.

-(i)l nisbat shakli (aytildi, ko'rildi, qamaldi, buraldi) ham konversiya yo'li bilan *ayir+il* (ayril) fe'l yasovchiga; *qama+l* (qamal) ot yasovchiga ko'chgan.

Morfologik shakllar tizimida kishraytirish-erkalash shakllarining nomutanosibliklari diaxron jihat bilan bog'liq. Chunonchi, beklar avlodidan bo'lmish *Temur* ismiga *bek* unvoni (so'zi)ning qo'shilishi mustaqil so'z sifatida ifodalangan. Taraqqiyot natijasida bek unvoni atoqli otlarga qo'shilib, erkalash mazmunini kasb eta boshlagan: Temurbek, Bilolbek, Avazbek singari. Bunda *bek* so'zining asl mazmuni yo'qolib, affiks maqomiga o'tib, erkalash mazmuni uchun asos bo'lgan va erkalash shakliga aylangan. Demak, asli mustaqil so'z sifatida paydo bo'lgan *bek* leksemasi taraqqiyotning keyingi davrida transpozitsiya yo'li bilan affiks maqomini olgan. So'zning affiks sifatidagi transpozitsiyasi shu so'z tarkibida o'rinlashuvga asos bo'lgan. Tarixiy shaxs hisoblangan *Xudoyorxon* ismi tarkibidagi *xon* ham shu holatda transpozitsiya yo'li bilan affiks holiga kelib qolgan. *Xon* mustaqil so'zidan kelib qolgan erkalash shakli *-xon* o'z rivojlanish tarixida transpozitsiya yo'lini boshidan kechirgan. Funksional transpozitsiya jarayoni bilan bog'liq *bek* va *xon* so'zlari morfologik shakllar tizimida erkalash shakli sifatida o'rinlashgan: Temur bek – Temurbek; Xudoyor xon – Xudoyorxon.

Demak, konversiya masalasi morfemalar tarkibida ham mavjud bo'lib, bugungi kunda ham amal qilayotgan hodisa hisoblanadi. Funksional transpozitsiya esa bugungi kunda so'z turkumlari doirasida amal qilib, morfemalar sathida deyarli qo'llanilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tili grammatikasi. I jild. – Toshkent, 1975.
2. Карцевский С. Об асимметричном дуализме лингвистического знака / В.А.Звегинцев (сост.). История языкознания XIX–XX веков в очерках и извлечениях. Ч. II. – Москва: Просвещение, 1965.
3. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – Москва, 1955.
4. Balli Sh. Umumiy tilshunoslik va fransuz tili savollari, transpozitsiya fransuz tilidan. – Moskva, 1955; Kubryakova Y.S. Onomasiologik yoritishda nutq qismlari. – Moskva, 1978; Soboleva P.A. So'z hosil qiluvchi polisemiya va omonimiya. – Moskva, 1980; Gak V.G. Fransuz tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya, 2-nashr. – Moskva, 1986.
5. Eltazarov J.D. O'zbek tilida so'z turkumlarining o'zaro aloqasi va ko'chishi: Filol. fanlari d-ri diss... avtoref. – Toshkent, 2008.
6. Sharipov F. O'zbek zamonaviy morfologik nazariyasining shakllanishi, taraqqiyot tendensiyalari va istiqbollari: Filol. fan. dok ... diss. avtoref. – Toshkent, 2022.

Nigora SAYDALIYEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
xitoy tili o‘qituvchisi

XITOY TILIDAN YOZMA TARJIMADAGI NUQSONLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarjima amaliyoti jarayoni, amaliyot vaqtida vositachilik qilib tarjima qilishni o‘rganish, uning turlari, nazariyasi, yo‘nalishlari va tarjimashunoslik haqida so‘z yuritilgan.
Kalit so‘zlar: tarjima, tarjimashunoslik, tarjima nazariyasi, tarjima obyekti, tarjima amaliyoti, tarjima sifati, tarjima yakuni.
Annotation. This article talks about the process of translation practice, learning to translate through mediation during practice, its types, theory, directions, and translation studies.
Keywords: translation, translation studies, translation theory, translation object, translation practice, translation quality, translation end.
Аннотация. В статье сообщается о процессе переводческой практики, обучении переводу через посредничество во время практики, его видах, теории, направлениях и переводоведении.
Ключевые слова: перевод, переводоведение, теория перевода, объект перевода, практика перевода, качество перевода, завершение перевода.

Tarjima qadimdan turli millat va elatlar o‘rtasida muloqot, qadriyat almashish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan. “Tarjima” so‘zining bir qator ma’nolari mavjud bo‘lib, tarjima amaliyoti deyilganda talabalarning fikrlash qobiliyati, ma’lumotni yetkazish usullari, o‘z fikrini ona tilidan boshqa tilga tarjima qilib, yetkazib bera olish jarayoni tushuniladi. Ushbu amaliyotining yana bir muhim xususiyati – matnni yozma yoki og‘zaki tarjima qilish usullarining movjudligi. Bu tushunchalarning ma’nolari turlicha, lekin ulardagi dialektik birliklar bir xil bo‘lib, bunda ikki til o‘rtasida muloqot jarayoni ham shakllanadi. Tarjima amaliyoti ikki tilning vositachilik aloqalarini bog‘laydi. Vositachilik qilish jarayoni “matnni qayta izohlash”, suriyaliklar tilida “targmana”, vizantiyaliklar tilida esa “daragoumanous” deb yuritiladi. Fransuz va lotin tilida “translatio” so‘zi “metafora, ma’noni chiqarib berish” ma’nolarini bildiradi. Tarjima jarayonida ma’lumotni og‘zaki yoki yozma tarzda boshqa til vakillariga yetkazish uchun so‘z ekvivalentini topish muhim hisoblanadi. Matn ona tilidan xorijiy tilga tarjima qilinganda asl mohiyatini yo‘qotmasligi, emotsional-ekspressiv, stilistik, funksional, janriy va estetik xarakterga ega bo‘lishi kerak.

Belgiyalik tadqiqotchi A.D.Viner fikricha, “ma’lumot – inson qalbidagi hissiyotni boshqa bir insonga xorijiy tilda yetkazib berishni ta’minlovchi jarayondir. Kibernetikada ma’lumot yetkazib berish so‘zlar, belgi va signallar orqali aks etadi. Shuningdek, “ekvivalent” so‘zini izohlaydigan bo‘lsak, u matn tarjimasida originaldagi janrni saqlash va sifatli tarjima qilib berishni ta’minlaydi. Tarjima ekvivalentligi tadqiqot va tadqiqotchining qarashlarida aks etadi” [1: 2]. Matnni ona tilidan xorijiy tilga tarjima qilganda so‘z turkumlari, jins kategoriyasiga alohida e’tibor berish kerak.

Tarjima va tarjima nazariyasi bir-biri bilan bog‘liq tushunchalardir. Tarixdan ma’lumki, tarjima sohasi qadimdan iqtisod, siyosat, falsafa, geografiya, adabiyot va boshqa fanlar bilan bog‘liq holda rivojlanib kelgan. Shundan tarjima faoliyati hayotning har bir jabhasiga aloqador ekanligini ko‘rish mumkin.

A.A.Chernyaxovskayaga ko‘ra, tarjima – og‘zaki asarning tizimli tuzilmasi, unda matnning asl plani saqlanadi, faqat gaplar struktur jihatdan o‘zgaradi.

Ma’lumki, tarjimashunoslik yoki tarjima nazariyasi nazariy fan bo‘lib, ilmiy nizom asosida tarjima jarayonidagi qoidalarni o‘rganish, tarjima mohiyatini ochish, tillararo tarjimada turli bilim darajalarini egallash, matnlarni yozma va og‘zaki tarjima qilganda matnning asl mazmunini saqlab qolib, tarjima usullarini o‘rganish, madaniyat rivojlanishiga ham katta yordam beradi. Tarjimashunoslik obyekti bu – tarjima jarayoni bo‘lib, unda turli hajmdagi matnlar uchraydi, bu esa tarjima nazariyasi fanining shakllanishiga asos bo‘ladi. Tarjimashunoslikda uchta yo‘nalish mavjud: lingvistik, badiiy va muhandislik.

Lingvistlar o‘z diqqatlarini tarjima sohasini o‘rganishga qaratadi, ular ayniqsa so‘zlarning gipotetik modellariga ahamiyat berib, asl matnni tarjima qilayotganda uning leksik birliklarini aniqlash, grammatik qoidaga asosan so‘zlarning ekvivalentini topish va talabalarni tarjimaga o‘qitishda innovatsion usullardan foydalanishlari lozim [2: 48]. Adabiyotshunoslar esa asosiy e’tiborni matnni aksiologik tarjima qilishga qaratadi. Bu usulda talabalarga badiiy matnlar tarjimaga beriladi, ular estetik jihatdan so‘zlar tarjimasida ekvivalentlikni saqlab qolishga harakat qiladi, shu bilan birga, millatning ruhiy madaniyati ko‘tariladi, davr talabiga ham moslashadi. Ko‘p adabiyotshunoslar va tarjimonlar doim tarjimonlik faoliyatini olib boradilar. Muhandislik yo‘nalishiga kelsak, unda matn avtomatik tarzda ketma-ket tarjima qilinadi. Ularning faoliyati uchta bosqichni tashkil etadi: analiz, sintez, lingvistik ma’lumotlarni topish va tilning sintaktik struktur tashkil etilganligi, leksik birliklarning tahlili, algoritm va programmalarni tuzish, elektron qurilma yordamida ona tilidan xorijiy tilga matnlarni tarjima qilishni ko‘zda tutadi [3: 21].

Tarjimashunoslik bir necha bo‘limlardan iborat: *umumiy nazariy qism*da nazariy qismga urg‘u beriladi, tarjima borasidagi amaliyot va qoidalar, xorijiy tillar orasidagi tafovutni tahlil qilish, yozma va og‘zaki

tarjimani farqlay bilish, stilistik va funksional talablarga javob berishi kabi barcha jihatlar inobatga olinadi. A.V.Yodorovga ko‘ra, tarjima haqidagi umumiy nazariy umumlashtirish tizimi tarjimaga oid turli qo‘llanmalar va ularni turli tillarga tarjima qilish jarayonini tashkil etadi [4: 67].

Nazariy qismning ikkinchi bosqichida tarjima amaliyoti jarayonida til birliklari bilan matnlarni yozma tarjima qilish, matnning og‘zaki nutq talablariga sifatli o‘girilishi, individual stilistik usullar yordamida matnlar tarjima qilinishi amalga oshiriladi. Ular empirik qo‘llanmalar ko‘rinishida ishonchli va dalil bilan keltirilgan bo‘ladi.

Sharq tillaridan xitoy tilini misol qilib olib, matnlarni yozma tarjima qilish jarayonida qanday xatolar va kamchiliklar yuzaga kelishi mumkinligini ko‘rib chiqamiz. Xitoy tili sharq tillariga mansub bo‘lib, ohang va yozuv jihatdan murakkab hisoblanadi, iyerogliflar yozib qaytarilmasa, vaqt o‘tgan sayin, nafaqat talabalar, balki ustozlarning ham yodidan ko‘tariladi. Xalqaro imtihonda HSK 5 va 6 darajalari topshirilganda ham ko‘pchilik talabalar va ustozlar aynan 写作（bayon yozish） va 阅读 (o‘qish) bo‘limida imtihondan o‘ta olmaslik holatlari ko‘p kuzatiladi. Chunki HSK 5 va 6 darajadagi so‘zlar tarkibi juda murakkab. Yuqori darajadagi so‘zlar tarkibida so‘z birikmalari ham mavjud. Matnlarning yozma tarjimasida esa so‘z ekvivalentini topish, gaplar tarjima qilinganda joylashuv tartibi, iboralar tarjimalari ayrim vaziyatlarda o‘zbek tilidagi iboralar ma’nosiga mos kelmaydi. Ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilish jarayonida tarjima ekvivalenti, tarjima aniqligi, ma’lumotlar va yoritilish sifati hamda tarjima mantiqiyligi sifati kabi talablarga amal qilinishi lozim. Ilmiy-texnik matn sifatli tarjima qilinishi uchun tarjimon quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim:

– xitoy tilining nazariyasi, fonetikasi, leksikasi va grammatik tuzilishi haqida bilimga ega bo‘lish;

– ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilish ko‘nikmasi;

– lingvistik amaliy bilim (tarjima usullari, transformatsiya, so‘zlar ekvivalentini almashtirish) ko‘nikmasi;

– matnni tarjima qilish jarayonida gap mazmuni va jumlalarni ishlata olish ekstralingvistik bilim va qobiliyatga ega bo‘lish (bunda maxsus ilmiy-texnik matnni tarjima qilishda yetarli ma’lumotga ega bo‘lish talab etiladi) [5: 45].

Tarjima jarayonidagi ko‘zga ko‘rinmas, ammo ahamiyatli muammolardan biri – tarjimonning “ilmiy tarjima” haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘lmasligi. Ilmiy tarjimani muvaffaqiyatli bajarish uchun tarjimon uning boshqa tarjima turlaridan farqini bilishi shart. Ilmiy tarjima, jumladan, dissertatsiyalarni xitoy tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish juda murakkab jarayon. Ilmiy so‘zlarni tarjima qilish uchun maxsus ilmiy lug‘atlar, terminlarning maxsus lug‘atlaridan foydalaniladi. Xitoy tilidan o‘zbek tiliga hujjatlarni tarjima qilgan vaqtda *bkrs.info.com* internet sahifasidan foydalanish mumkin. Umuman olganda, ilmiy uslub tarjimasi tezislardan boshlab, referatlar va maqolalar taqrizi, diplom, dissertatsiya va monografiya qo‘lyozma matnlarni ham o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy tarjima nazariyasi fani ikki bo‘limga bo‘linadi: tarjima amaliyoti jarayonida sotsiologik tarjima, nashriyotdagi matnlar tarjimasi, tarjima tanqidi metodologiyasi, tarjima didaktikasi kabilar o‘rganiladi, bu jarayonda tarjimonlarning tarjima amaliyoti jarayonidagi kamchiliklari va qiyinchiliklari tahlil qilinadi [6: 89].

Ta’kidlab o‘tganimizdek, tarjima nazariyasi fanida insonning aqliy faoliyatida matnlarni tarjima qilish jarayoni boshlanadi. Yakuniy yagona tarjimani ro‘yobga chiqaruvchi jarayonda tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalari doimo bir-biri bilan bog‘liq. Tarjima bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar yakuniga ko‘ra, tarjimashunoslikda talabalar matnni tarjima qilishning yangi usullari va turlarini o‘rganib, mustaqil ravishda matnni yozma va og‘zaki tarjima qilishni mashq qiladilar.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, tarjima jarayoni murakkab va diqqattalab jarayondir. Ushbu jarayonda birgina so‘z ma’nosining o‘zgarishi butun matn ma’nosiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Quyida xitoy tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan matn va unga sharh orqali so‘zimizni yakunlaymiz:

不久前，计算机被认为是一个了不起的邀请. 今天，它们已成为我们日常生活的一部分. 今天最后一件事是虚拟现实. 虚拟现实系统可以传输给用户到异国情调的地方，例如夏威夷的海滩.

O‘zbekcha tarjimasi: Yaqinda kompyuterlar hayratlanarli taklif hisoblanardi. Bugun ular kundalik hayotimizning bir qismidir. Bugungi kunda oxirgi narsa virtual haqiqatdir. Virtual haqiqat tizimlari foydalanuvchilarga Gavayi plyajlari kabi ekzotik joylarni uzata oladi.

Misolda ko‘rib turganimizdek, xitoy tilidan o‘zbek tiliga bajarilgan tarjima to‘liq qilinmagan, aksincha, transformatsiyaga duch kelgan. Yangi original matn o‘zbek tilida boshqa so‘zlar ma’nosi bilan yuritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Исламджановна Х. Переводоведение. Учебное пособие. – Ташкент: ТДШУ, 2011.
2. Beldyan B. Translation and translation skills. – London: London Teacher Council, 2020.
3. Toirova T. Matnni yozma tarjima qilish texnikasi va ko‘nikmalari. – Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2021.
4. Golubovschi O. Технология формирования переводческих компетенций у студентов-переводчиков. – Кишинёвский государственный педагогический университет им. Ион Крянгэ. Дис... канд. пед. наук, Кишинев, 2020.
5. Razzakova Sh.D. Tarjimada uchraydigan asosiy xatolar. – Toshkent: Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 2021.
6. Panizzon R. Acquiring translation competence through the use of subtitling. Enhancing language learning through translation and translating. – London: London Teacher Training College, 2022.

Mahbuba TOJIBOYEVA,
Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi;
Alisher G‘OZIYEV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi

“LO‘G‘ATE CHIG‘ATOYI BEFORSI” LUG‘ATI XUSUSIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada lug‘atlarning turlari, Erondagi “Ketobxoneye majlese sho‘roye melli” nomli kutubxonada saqlanayotgan “Lo‘g‘ate chig‘atoyi beforsi” nomli asar, uning tuzilishi, undagi shakldosh va ko‘p ma’noli so‘zlar haqida so‘z yuritilgan, grammatika hamda ijtimoiy mavzularga oid turkiy so‘zlarga misollar Lutfiy, Navoiy, Mirhaydar kabi shoirlarning she’rlaridan berilgan.

Kalit so‘zlar: lingvistika, izohli lug‘at, omonim, sinonim, turkiy til, kofi arabiy, kofi ajamiy, imola, ko‘p ma’noli so‘zlar.

Annotation. This article provides information about the types of dictionaries, the structure of the work “Logate chigatoyi beforsi” stored in the library named “Ketobkhoneye majlese shoroye melli” in Iran, the similar and polysemous words in it, as well as gives examples of Turkish words related to grammar and social topics through the poems of such poets as Lutfi, Navoi and Mirhaydar.

Keywords: linguistics, explanatory dictionary, homonym, synonym, Turkish language, Kafi Arabic, Kafi Ajami, Imola, polysemous words.

Аннотация. В данной статье рассматриваются типы словарей, произведение “Логате чигатойи бефорси”, хранящееся в библиотеке “Кетобхонее майлесе шоройе мелли” в Иране, его структура, а также сходные и многозначные слова в нем. Примеры турецких слов, связанных с грамматикой и социальной тематикой, даны через примеры из стихотворений таких поэтов, как Лутфи, Навои, Мирхайдар.

Ключевые слова: лингвистика, толковый словарь, омоним, синоним, турецкий язык, кафи-арабский, кафи-аджами, имола, многозначные слова.

Turkiy tillar lug‘atshunosligi boy tajribaga ega. Ayniqsa, o‘tmish lug‘atshunoslari o‘ziga xos lug‘at tuzish usullari, tamoyillari, so‘zlarni sharhlash uslublari jihatidan ajralib turadi. Ushbu lug‘atlarda so‘z tanlash mezonlari, so‘zning semantik tarkibiga munosabat bildirish, so‘zning ma’no qirralarini ochish kabi masalalar hozirgi zamon lug‘atshunoslari uchun ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Turli davrlarda yaratilgan qo‘lyozma lug‘atlarni qiyosan o‘rganish, ularni turli maqsadlarda tuzilganligini aniqlash, nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish, lisoniy xususiyatlarini chuqur o‘rganish tilshunoslik fani uchun naqadar ahamiyatli hamda zarur ekanligi kundek ravshan. Lug‘atshunoslik tarixiga nazar tashlansa, ularni tuzishda muayyan maqsadlardan kelib chiqib ish ko‘rilgani ayon bo‘ladi.

Lug‘atlar, eng avvalo, mohiyati jihatidan ikki xil bo‘ladi:

a) ensiklopedik lug‘at;

b) lingvistik lug‘at.

So‘z yoki atama ma’nolarining yoritilishiga ko‘ra lug‘atlar *izohli* va *izohsiz* turlarga bo‘linadi: so‘z yoki terminlarning imlosi, tushunchalar, masalan, forscha-arabcha yoki arabcha-forscha nomlarini berish bilan cheklangan lug‘atlar *izohsiz lug‘atlar*, shunday so‘z yoki terminlarning ma’nolariga izoh beradigan lug‘atlar esa *izohli lug‘atlar* deb ataladi.

Obyekti va predmetiga ko‘ra ham lug‘atlar xilma-xil bo‘ladi: *terminologik*, *frazeologik*, *orfografik*, *orfoepik*, *antroponimik*, *toponimik*, *chastotali*, *dialektologik*, *teskari*, *etimologik*, *tarixiy*, *baynalminal so‘zlar*, *sinonimlar*, *maqol va matallar* lug‘ati kabi.

Ilmiy adabiyotlarda lug‘atchilik tilshunoslikning alohida sohasi hisoblansa-da, aslida leksikologiya tarkibi bilan bevosita aloqadordir. Chunki leksikada tilning lug‘at tarkibi, so‘z ma’nosi, uning iste’moli, ya’ni qo‘llanish darajasi, nutq, uslub hamda shakl va mazmunga bo‘lgan munosabati kabilar o‘rganiladi. Hozirgi kun talablari asosida o‘zbek tilshunosligining lug‘atshunoslik sohasida badiiy asar, xususan, mumtoz adabiy manbalarning lisoniy xususiyatlarini o‘rganish borasida ahamiyatga molik bir qator tadqiqotlar yuzaga kelgan va kelmoqda. Bu tadqiqotlar o‘zbek lug‘atshunosligining bugungi va kelajakdagi taraqqiyotining tanlab beradigan eng asosiy mezonlaridir. Quyida hukmingizga havola etilayotgan mazkur maqola ham aynan lug‘atshunoslik taraqqiyoti rivojiga hissa qo‘shish maqsadida amalga oshirilayotgan kichik bir tadqiqot ishlaridan biridir.

Bilamizki, hozirga kelib Alisher Navoiy asarlarini lug‘atsiz tushunish mushkul. Bundan tashqari, Alisher Navoiy asarlarining mazmunini anglab yetish uchun birgina lug‘at kamlik qiladi, chunki lug‘atlarda so‘zlarning faqatgina leksik ma’nosi beriladi. Asarning haqiqiy ma’nosini anglash uchun esa so‘zning semantik tomoni, ya’ni ko‘chma ma’nolari, konnotativ tomoni hamda boshqa ma’nolarini ham bilish lozim.

Alisher Navoiy asarlariga sharh berish, maxsus lug‘atlar tuzish Navoiyning o‘z zamonidan boshlan-

gan. Hisraviyning “Badoe’ ul-lug‘at”, “Abushqa” (XV), Muhammad Yaqub Chingining “Kelurnoma”, Mirzo Mahdixonning “Sangloh”, “Maboni ul-lug‘ot” (XVIII), Fath Alixon Kojariyning “Lug‘ati atrokiya” (XIX), Shayx Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy usmoniy” (XIX) lug‘ati va yana bir qancha so‘zlik-lug‘atlar lug‘atchilik tarixida va Navoiy asarlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega [2: 9].

Eron mamlakatida ham Alisher Navoiyning ijodiga bo‘lgan qiziqish juda katta. Buni Navoiy va uning ijodiga bag‘ishlangan yuzlab maqola hamda ilmiy tadqiqot ishlarida kuzatishimiz mumkin. Shu kabi ishlardan biri Nazir Ali Sayyidning “Lo‘g‘ate chig‘atoyi beforsi” lug‘ati bo‘lib, mazkur lug‘at Eron mamlakatining “Ketobxoneye majlese sho‘roye melli” nomli kutubxonasida “Lo‘g‘ate chig‘atoyi beforsi” nomi bilan 85417 inventar raqami ostida saqlanmoqda. Katalog raqami – 9174. Asarning birinchi, ikkinchi va uchinchi sahifalari yirtilgan, ammo keyinchalik mazkur qismlar tiklangan. Umuman olganda, asar to‘liq saqlangan.

Lug‘at hijriy 1382-yili kutubxonaga qabul qilingan. Qo‘lyozma 19,5x18,5 sm hajmda bo‘lib, 101 sahifadan iborat. Xati nasta’liq yozuvida, poygirlari to‘liq, qog‘ozi novvotrang, sahifa qatorlari 16 tadan. XII asrda kitobat qilingan. Asar 1348-hijriy yilda Eronning mashhur adabiyotshunos olimlaridan biri Jafar Sulton al-Qurayдan sotib olingan. Qo‘lyozma boshida Lutfulloh xon va Muhammadboqirga tegishli bo‘lib, ular bu asarni Sangloh deb tushunishgan. Hijriy 1191-yilning 12-rajab oyidan boshlab qo‘lyozmaga Shukrulloh bin Haydar Quli bin Mortazo Quli bin Muhammad Rizo bin Hoji Ali Qulixon Ko‘ngarlu egalik qilgan.



Bu asarning nusxalaridan biri Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasining “Nodir nashr va qo‘lyozmalar bo‘limi”da PV78 raqami ostida Nazar Ali Sayyidning “Navoiy asarlari lug‘ati” nomi bilan saqlanadi (Bizningcha, **Nazar** Ali Sayyid emas, balki **Nazir** Ali Sayyid. Chunki arab tilida nazar so‘zi **zo harfi** bilan yoziladi. Asar muallifining ismi **zol harfi** bilan yozilgan. Bu esa nazir tarzida o‘qiladi). Qo‘lyozmaning mazkur nusxasi 22x12 sm hajmda bo‘lib, 79 sahifadan iborat. Xati nasta’liq yozuvida, poygirlari to‘liq, qog‘ozi novvotrang. Asar to‘liq saqlangan. Qo‘lyozma taxminan XVI–XVII asrlarda Nusratulla Buxoriy tomonidan ko‘chirilgan. Ushbu lug‘atning asliyati va qachon tuzilganligi noma’lum. Lug‘at titul varag‘iga 1973-yil deb yozilgan. Bu esa uning kutubxonaga kelib tushgan vaqtini anglatadi [5: 76].

“Lo‘g‘ate chig‘atoyi beforsi” – turkiy-forsiy lug‘atda qisqacha hamd va na’tlardan so‘ng muqaddima fasli bayon qilingan. Lug‘at eski o‘zbek alifbosi tartibiga ko‘ra tuzilgan. Asarning kirish qismida turkiy so‘zlar va ularning yasalishi haqida ma’lumotlar berilgan (**masalan:** *g‘on+chi*, *yomon+liq* kabi).

Lug‘atda *alif, be, te, se, shin, kof, yo* harflariga ko‘p, *chim, ze, g‘ayn, mim* harflariga esa nisbatan kam misollar berilgan. *Se, hoyi hutti, zol, sod, zod, to, zo, hoyi havvaz* harflari turkiy tilga xos bo‘lmagan tovushlar sanalgani uchun ularga misollar umuman berilmagan.

Muallif asarda *kof* va *gof* harflarini bir-biridan ajratish maqsadida avvalgi lug‘atshunoslar kabi *kof* harfini ***kofi arabiy***, *gof* harfini esa ***kofi ajamiy*** atamasi orqali ifodalagan. **Masalan:** *kengash* (کنکش) – *kofi avval arabiy va kofi soniy ajamiy ba ma’nii mashvarat* (**tarjimasi**: birinchi *kof* “k” tovushini ifoda etuvchi *kof* harfi, ikkinchi *kof* esa “g” tovushini ifoda etuvchi *kof* harfidir. *Kengash* so‘zi forsiyda mashvaratdir) [۸۲ :۱].

Muallif asarda bir xil yozilib, turli ma’no anglatuvchi so‘zlarga ham alohida e’tibor bergan. Masalan: *ur* (اور) va *o‘r* (اور) so‘zlari arab yozuvida bir xil yozilishini inobatga olib, birinchi so‘z *urmoq* fe’lining buyruq mayli, ikkinchi so‘z *o‘rmoq* fe’lining buyruq mayli ma’nosini anglatishini ko‘rsatish maqsadida yoniga *imola* atamasini qo‘yadi.

Agar so‘z ma’nosi ommaga tanish bo‘lsa, misol berilmagan va izoh ham qisqa bo‘lgan. Masalan: *tish – dandon ast* (تیش – دندان است)**.** Agar so‘z ma’nosi omma uchun notanish sanalsa, unga qo‘lyozmada kengroq to‘xtalingan va misollar berilgan. Masalan, *uyat – uyal bema’niye sharmandegi boshad*. (اویت – اویال بمعنی شرمندگی باشد.)

Ey ko‘z, onsiz o‘zga ko‘rmakni qilmishsen havas,
Hajr tig‘idin o‘yul yoxud Navoiydin uyal [۱۵ :۱].

Qo‘lyozmaning birinchi fasli lug‘atda uchragan shakldosh va ko‘p ma’noli so‘zlarga bag‘ishlangan. Muallif lug‘atning avvalida ot (آت), o‘t (اوت), tuz (توز), tush (توش), uz (اوز), it (ایت), yosh (یاش), o‘q (اوق) kabi omonim va ko‘p ma’noli so‘zlar misolida o‘zbek tilining naqadar boy va rang-barangligini ta’kidlab o‘tadi. Masalan, Nazir Ali Sayyid quyida berilgan to‘rtlikdagi *it* so‘zi birinchi misrada *kuchuk*, ikkinchi misrada *ket* ma’nolarida

ishlatilganini ko‘rsatish maqsadida “Muhokamat ul-lug‘atayn”dan misol keltiradi:

Ayt raqib, o‘zni anga tutsang ham it,
Bizga rahm aylab, aning kuyidan it [۱۰ :۱].

Qo‘lyozmaning ikkinchi fasli turkiy uluslarda ma’lum bo‘lgan so‘zlarga bag‘ishlangan.

Qarindosh-urug‘chilikni ifodalovchi so‘zlar: og‘a (آغا) – barodar-e bo‘zo‘rg (برادر بزرگ), ini (اینی) – barodar-e kuchek (برادر کوچک), egaj/egach (ایکاج) – xohar-e bo‘zo‘rg (خواهر بزرگ), singil (سینگیل) – xohar-e kuchek (خواهر کوچک), obog‘a (اباغه) – amu (عمو) (Bizningcha, *obog‘a* so‘zidagi oxirgi “a” tovushini ifoda etayotgan *hoyi havvaz* harfi turkiy tilga xos emas. Chunki Mahmud Koshg‘ariy o‘zining tilshunoslikka oid “Devoni lug‘otit turk” asarida bu harfni xo‘tanlardan kirganligini aytib o‘tadi).

Mansab-amal ma’nosini ifoda etuvchi so‘zlar: tobuqchi (تابوقچی) – xetmatkor (خدمتکار), ayoqchi (ایاقچی) – soqiy (ساقی).

Tana a’zolari: tish (تیش) – dandon (دندان), til (تیل) – zabon (زبان), yonak (یانک) – oraz (عارض), mankla/ manglay (منکلا) – pishoni (پیشانی), so‘ngak (سونکاک) – o‘sto‘xon (استخوان), tiz (تیز) – zonu (زانو).

Inson hissiyotlari: quvonib (قوانب) – nozash (نازش), uyat (اویات) – sharm (شرم).

Hasharotlar nomi: o‘rgimchak (اورکمچک) – ankabud (انکبود), so‘na (سونه) – bite nar (یط نر).

Uy hayvonlari nomi: qo‘y (قوی) – gusfand (کوسفند), yilqi (یلقی) – asb (اسب), tovushqon (quyon) (تاوشقان) – xargush (خرکوش), ... ;

Yovvoyi hayvonlar nomi: bo‘ri (بوری) – go‘rg (کرک), qabon (قبان) – xuk-e nar (خوک نر).

Qush va parandalar: burgut (بورکوت) – uqob (عقاب), chubchuq (چوبچوق) – go‘njeshk (گنجشک).

Qo‘lyozmaning uchinchi fasli asosiy fasl bo‘lib, unda turkiy so‘zlar arab yozuviga asoslangan eski o‘zbek alifbosi tartibida joylashtirilgan:

Ijtimoiy mavzularda qo‘llaniladigan so‘zlar: ochun (آچون) – do‘nyo (دنیا), o‘run (اورون) – joygoh (جایگاه), uyat (اویات) – sharmandegi (شرمندکی).

Harakat ma’nosini ifodalovchi so‘zlar: unamadi (اونامادی) – rozi namisho‘d (راصی نمیشد), unab ((اوناب– rozi sho‘d (راضی شد), tez (تیز) – zud (زود), to‘xta (توخته) – orom begir (آرام بکیر).

Gidronimlar: ariq (ارق) – juy-e ob (جوی آب).

Libos – kiyim ma’nosidagi so‘zlar: to‘n (تون) – qabo (قبا), qolboq (قالباق) – kaloh (کلاه).

So‘z turkumlariga oid so‘zlar: [ot] qo‘nog‘ (قوناغ) – mehmon (مهمان); [sifat] qoq (قاق) – xo‘shk (خشک); [son] tuman (تومان) – dah hazor (ده هزار); [olmosh] bul (بول) – in (این); [fe’l] solmoq (سالماق) – andoxtan (انداختن); [ravish] tez (تیز) – zud (زود).

Ovoz – tovush ma’nosidagi so‘zlar: tovush (تاووش) – sedo (صدا), ayoolg‘u (ایالغو) – sedoye xush (صدای خوش), ...

Ichimlikni anglatuvchi so‘zlar: chog‘ir (چاغیر) – sharob (شراب), ...

Yer va tuproq bilan bog‘liq so‘zlar: tosh **(تاش) –** sang (سنک).

Sovg‘a-salom va hadyaga oid so‘zlar : tortug‘ (تارتوغ) – hadye (هدیه).

Tabiat hodisalarini bildiruvchi so‘zlar: shamol (شامال), quyun (– (قویون gerde bod (کرد باد).

Masofa anglatuvchi so‘zlar: yiroq (ییراق) – dur (دور).

Rang bildiruvchi so‘z: oq (آق) – sefid (سفید).

Tomonni anglatuvchi so‘zlar: o‘ng (اونگ) – rost (راست), so‘l (سول) – chap (چپ).

Kun va kun qismlarini bildiruvchi so‘zlar: tun (تون) – shab (شب), tong (تانک) – so‘bh (صبح).

Insonning ruhiy holatiga oid so‘z: telba (تیلبه) – devona (دیوانه).

Samoviy unsurni anglatuvchi so‘z: quyosh (قویاش) – oftob (آفتاب).

Imorat va imorat qismlariga oid so‘z: bo‘sag‘a (بوساغا) – ostone-yoe xone (آستانه ی خانه).

So‘roq ma’nosini ifodalovchi so‘zlar: nima? (نیمه) – che chiz (چه چیز), nega? (نیگا) – chero (چرا), netti? (نیتتی) – che kard (چه کرد).

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, lug‘atni lingvistik jihatdan batafsil tadqiq etish biz tilshunoslarning dolzarb vazifalarimizdan biri bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazir Ali Sayyid. Lo‘g‘ate chig‘atoyi beforsi. – Eron, XII asr.
2. Hamidov Z. Lug‘atshunoslik tarixi va qo‘lyozma lug‘atlar. – Toshkent, 2004.
3. Hasanov B. Alisher Navoiyning “Sab’at abhur” lug‘ati. – Toshkent, 1981.
4. Hasanov M. Lug‘atshunoslar // O‘zbek tili va adabiyoti, 1978, №5, 25-bet.
5. Umarov E. Yangi topilgan Navoiy asarlari lug‘ati // O‘zbek tili va adabiyoti, 1991, 4-son, 76-bet.
6. Umarov E. Eski o‘zbek lug‘atlari. – Toshkent, 1994.

Muslimjon NASIROV,
Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘zbek tili kafedrasi o‘qituvchisi;
Malikaxon MELIQO‘ZIYEVA,
Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

RADIOALOQA SOHASIGA OID BIRIKMA-TERMINLAR TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek radioaloqa sohasida qo‘llaniladigan birikma-terminlar haqida fikr yuritilgan. Tahlil davomida analiz, sintez, komponent tahlil usullaridan foydalanilgan. Sohaga oid terminlarning komponentlari miqdori bo‘yicha turlarga ajratilib o‘rganilgan va har bir tur soha terminlari misolida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: birikma-terminlar, komponent, struktura, sifat, sifatdosh, harakat nomi, son, ot so‘z turkumlari, tushuncha.

Annotation. The article discusses the compound terms used in the field of Uzbek radio communication. Analysis, synthesis, component analysis methods were used during the analysis. The components of field terms were divided into types and studied according to their quantity, and each type is explained by the example of field terms.

Keywords: compound terms, component, structure, adjective, participle, action, numeral, noun, concept.

Аннотация. В статье рассматриваются составные термины, используемые в сфере узбекской радиосвязи, при этом применялись методы анализа, синтеза, компонентного анализа. Компоненты отраслевых терминов разделены на типы и изучены в зависимости от их количества, каждый тип проиллюстрирован на примере отраслевых терминов.

Ключевые слова: составные термины, компонент, структура, имя прилагательное, причастие, имя действия, число, имя существительное, понятие.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o‘rin va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. O‘zbek tili terminlar sistemasida sintaktik usulda termin hosil qilish keng ommalashgan. Birikma-terminlar yakka holdagi terminlarga nisbatan keng qo‘llaniladi. Birikma-terminlarning komponentlari har bir soha terminologik sistemasida turlicha miqdorni hosil qiladi.

N.Mahmudova telefoniya sohasiga oid terminlarni tadqiq qilish jarayonida sohaga oid birikma-terminlar asosan uch usul yordamida hosil qilinishini aytadi hamda ularni komponentlari miqdoridan sakkiz guruhga ajratgan holda tadqiq etadi. Terminlarning komponent miqdori ko‘paygani sari termin tushunchasi mavhumlikdan ancha yiroqlashib borishini ta’kidlaydi [1]. Z.Urunova ham defektologiya sohasiga tegishli terminlarni struktur jihatidan turlarga ajratar ekan, birikma-terminlarga alohida to‘xtalib o‘tadi va o‘zbek tili defektologiya sohasiga oid birikma-terminlarning hosil qilinish usullarini o‘rganib, komponentlari miqdori jihatidan ularni olti guruhga bo‘lib tadqiq etadi [2].

O‘zbek tili radioaloqa sohasida birikma-terminlar miqdor jihatidan ko‘p. Ushbu terminlar barcha terminologik tizimlarda o‘zining mustahkam o‘rniga ega. Birikma-terminlar sintaktik usulda ikki va undan ortiq so‘z shakllarini o‘zaro bog‘lash yo‘li bilan ham hosil qilinadi. Masalan:

1) o‘z til birliklarini o‘zaro biriktirish usuli orqali termin hosil qilinadi: *tayyor bo‘lmaslik vaqti, kirish kuchaytirgichi, asosiy yaproq, guruhli kechiktirish, tebranishlarning so‘nishi, yer to‘lqini, eltuvchi quvvat, beixtiyoriy nurlanish, o‘rtacha quvvat, ikkilangan navbat, santimetrli to‘lqinlar o‘tkazish qobiliyati, fazoda tarqalish, to‘lqinlarning tarqalishi, tarqoq qabul*...;

2) o‘z til birliklari va o‘zga til birliklarini o‘zaro biriktirish usuli orqali termin hosil qilinadi: *polosa kengligi, oraliq liniya, oxirgi stansiya, signalning kuchsizlanishi, asosiy polosa, ko‘tarilgan refraksiya, qutblantiruvchi selektor, oddiy modulatsiya, radiochastota shovqini, joy relyefi, qo‘shni kanal, pasaytirilgan refraksiya, parabolik qaytargich, antenna qaytargichi, dialektrik o‘tkazuvchanlik, qabul yo‘q zona* va boshqalar;

3) o‘zga til birliklarini biriktirish orqali soha terminlari hosil qilinadi: *topografik karta, radiorele liniyasi, standart refraksiya, regenerativ retranslator, pereskopiv antennalar, rezerv stvol, trassa profili, magistral radiorele liniya, kritik refraksiya, zona radiorele liniyasi, analog signal, adaptiv modulatsiya, aktiv filtr, amplituda detektori, antenna polotnosi*.

Radioaloqa sohasiga oid birikma-terminlar juft, takroriy, qisqartma so‘zlar ishtirokida ham hosil qilingan. Bunday terminlarning modeli quyidagicha:

1. [Juft so‘z+leksema] modelidagi terminlar: *punkt-zona aloqasi, antenna-fider qurilmasi, ko‘chki oraliq diod, antenna-fider trakti, azimutal-masofa o‘lchagich radiomayog‘i, ekvivalent izotrop-nurlanuvchi quvvat, kiritish-chiqarish tizimi, uzatilayotgan axborotni kiritish-chiqarish*.

2. [Takroriy so‘z+leksema] modelidagi terminlar: *buzilishning ketma-ket to‘planishi, to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rinish masofasi, troposferadagi qavat-qavat, bir jinsli to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rinish doirasidagi tarqalish, galma-gal ulanish*.

3. [Qisqartma so‘z+leksema] modelidagi terminlar: *RRL aloqasi, VQT diapazoni, RPA o‘kazgich polosasi, AIM spektri, RGI rezonansli chastota o‘lchagich, GPS/LONACC qabul qilgich, JPCh diapazoni*.

Sohaga doir terminlarni komponentlari jihatidan quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganishni maqsadga muvofiq deb topdik:

1. Bir komponentli terminlar radioaloqa sohasida qo‘llaniladigan predmet va hodisa kabi tushunchalarni hech qanday tavsiflarsiz bevosita nomlaydi. Radioaloqa sohasida bir komponentli terminlarning miqdori ikki va undan ortiq komponentlarning birikuvidan hosil qilingan terminlarga nisbatan kammahsul hisoblanadi. Masalan: *qutblanish, nurlanish, himoyalanish, zondlash, tarmoqlanish, soyalanish, tarmoqlagich, o‘tkazgich, o‘lchagich, uzatkich, nurlagich, belgilash, aylantirgich*, *o‘tkazuvchanlik, ta’sirchanlik, egiluvchanlik, ko‘rinish, radionurlanish, tarmoqlagich, fazoaylantirgich, radiomasofa o‘lchagich, uzatkich, nurlagich, stansionarlik, tinish, tebranish, ko‘rinish, ulanish, og‘ish* va shu kabi terminlar.

Bir komponentli terminlarning ko‘p qismi o‘zga tillardan o‘zlashgan terminlar hisoblanadi: *abonent, adaptatsiya, chastota, antenna, kanal, diod, dipol, zond, liniya, link, chastota, machta, retranslator, modulatsiya, polosa, stansiya, projel, filtr* va shu kabi terminlar.

2. Ikki komponentli terminlar radioaloqa sohasida ko‘p miqdorni tashkil etadi. Ushbu terminlar so‘z turkumi jihatidan quyidagicha qoliplar asosida hosil qilinadi:

a) sifat+ot qolipidagi terminlar. Ushbu qolip asosida yaratilgan birikma-terminlar o‘zbek terminologik tizimida salmoqli o‘rinni egallab kelmoqda. Bunday birikma-terminlarning aniqlovchi komponenti aniqlanmishning belgisi, xususiyati, xossasi kabi ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: *yo‘ldoshli tizim, kvadratik detektor, kvadraturali modulatsiya, kilometrli to‘lqinlar, kommunikatsion xalaqit, konduktiv xalaqit, kontaktli xalaqit, kosmik stansiya, kosmik tizim, kosmik xalaqit, ko‘zguli antenna, ko‘zguli kanal, ko‘chma radioplengator, linzali antenna, liniyali chastota, logarifmik antenna, logoperiodik antenna, masofaviy javob, metrli to‘lqinlar, navigatsion radiolokator, ortodromik peleng, ochiq kanal oq shovqin, parabolik antenna, purametrik kuchaytirgich, passiv dipol, past chastota, rejektorli filtr, santimetrli to‘lqin, sirtqi to‘lqin*;

b) sifatdosh+ot qolipidagi terminlar: *sozlangan xalaqit, sozlangan antenna, uzatiladigan signallar, fazalangan antenna, egallangan polosa, ekranlashgan kamera, ajratilgan kanal, yoyilgan radioqabul, o‘zlashtirilgan chastota, yo‘naltirilgan antenna, nurlanmaydigan uzel, rejektrlangan shovqin, sinxronlangan signallar;*

d) ot+ot qolipidagi terminlar: *elektr shovqinlari, quvvat kuchaytirgich, quvvat zichligi, jamoa antennasi, Yer to‘lqini, antenna effekti, antenna elementi, antenna panjarasi, kema stansiyasi, radiochastota osilatori, radiorele liniyasi, signal shakllantirgich, radiochastota spektri, tovush kartasi, tovush tizimi, foydalanuvchi uskuna, to‘lqin tarqatkich*;

e) son+ot qolipidagi terminlar: *birlamchi radar, ikkilamchi radioxizmat, ikkilamchi radar*;

f) harakat nomi+ot qolipidagi terminlar: *kechiktirish liniyasi, kirish kuchaytirgichi, muvofiqlashtirish zonasi, muvofiqlashtirish masofasi, nurlanish darajasi, nurlanish turkumi, radioplenglash xatolari, radioeshittirish stansiyasi, so‘nishni o‘lchagich, tebranishlar davri, nurlanish turkumi, radioeshittirish stansiyasi, so‘nishni o‘lchagich, tebranishlar davri, uzatish liniyasi, uzatish liniyasi*.

3. Uch komponentli terminlar sohada talaygina. Ular turli so‘z turkumlarining birikuvidan hosil bo‘ladi. Masalan: *xalaqitlarni berkituvchi uskuna, chastota bo‘yicha sozlash, chastota modulatsiya telegrafiyasi, shovqinga qarshi antenna, egallangan polosa kengligi, elektr maydon kuchlanganligi, elektromagnit moslashuv darajasi, elektromagnit nurlanish signaturasi, elektromagnit to‘lqinlarining qaytishi, elektr signallarining kuchaytirgichi, eltuvchi chastotasiz uzatish, efir ustida radiouzatuv, yugurma to‘lqin antennasi, yuqori chastotali qurilmalar, yarim dupleksli aloqa, yarim to‘lqinli vibrator, o‘zaro kesishuvchi buzilishlar, o‘zlashtirilgan chastotalar polosasi, o‘rta balandlikdagi orbita, qabul qilgichni darajalash, qabul qiluvchi stansiya, qirg‘oq yer stansiyasi, qisqa muddatli xalaqit, aktiv antenna panjarasi, aktiv maishiy antenna, antenna almashlab o‘lchagichi, antennaning foydalanish koeffitsiyenti, bevosita ko‘rinishdagi radioaloqa, giperabolik radionavigatsiya tizimi* va shu kabilar.

4. To‘rt komponentli terminlar radioaloqa sohasida keng qo‘llaniladi va shu bilan bir qatorda, ifodalanayotgan tushunchani kengroq qamrovda tavsiflash vazifasini bajaradi. Masalan: *antennaning yo‘naltirilgan koeffitsiyenti, asosiy qabul qilish kanali, bevosita kuchaytirib qabul qilish, bir to‘lqinli simmetrik vibrator, davomiy bo‘lmagan industrial radioxalaqit, Yer ustida harakatlanuvchi stansiya, yo‘ldosh radionurlanishining nisbiy darajasi, yog‘inlar sochilishi hisobiga tarqalish, juda kichik aperaturali terminal, juft bo‘lmagan chastotalar polosasi, ikki chastotali simpleks radioaloqa, imkoniyatlari kengaytirilgan raqamli radioxizmatlar, yo‘ldoshli navigatsiya dengiz xizmati* va h.k.

5. Besh komponentli terminlar tushuncha tavsifini avvalgi terminlarga nisbatan kengroq tarzda ifodalaydi, ammo terminlarning bu kabi uzun shaklda bo‘lishi ularning mavhumlik xususiyatiga putur yetkazadi. Negaki termin qanchalik uzun bo‘lsa, u tushuncha mohiyatini shu tarzda keng yoritishga qaratilgan bo‘ladi [1]. Terminlarning komponentlari miqdorining oshishi nutqiy qiyinchiliklarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Masalan: *yo‘ldosh liniyasining ekvivalent shovqin harorati, nurlanish chastotalari polosasining nazorat kengligi, radioplengatorning vertikal tekislikdagi ko‘rinish zonasi, radiotexnika qurilmasining tayyor bo‘lish vaqti, radiouzatkich chastotasining yo‘l qo‘yiladigan og‘ishi, radiouzatkichning ko‘p chastotali ish tartibi, radioelektron vositalarni masofaviy qayd qilish, radioelektron vositalarning o‘zaro funksional ta’siri, radioelektron vositalarni hudud bo‘ylab tarqatish*, *radiouzatkichning effektiv nurlanadigan o‘rtacha quvvati, optik tolaning keng polosalik koeffitsiyenti* va shu kabilar.

6. Olti komponentli terminlar. Olti komponentli terminlar ham tushunchaning tavsifini murakkablashgan tarzda ifoda etadi. Shuni hisobga olish kerakki, bu kabi jarayonlar natijasida tushuncha mavhumligiga putur yetishi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Masalan: *radioeshittirish uzatkichining ishonchli qabul qilish zonasi, standart chastotalar va vaqt signallarining stansiyasi, standart chastotalar va vaqt signallarining xizmati, tarqalish sharoitlarini nazorat qilish uchun radiomayoq, soat milining yurishiga qarshi qutblangan to‘lqin, radioelektron vositalarning zarur minimal chastotalardan farqi, Oy orqali aloqa uchun mo‘ljallangan stansiya*, *radioto‘lqinlarning bir xil anizotrop muhitda tarqalishi, optik tolaning hisoblab aniqlanadigan sonli aperturasi, optik tola so‘nishining spektral egri chizig‘i, optik tola moddalarining muvozanatini o‘rnatish uzunligi v*a shu kabilar.

7. Yetti komponentli terminlar. Sohada uchraydigan terminlar singari ushbu komponentli terminlar ham tushunchaning tavsifini kengaytirgan holda ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: *standart chastotalar va vaqt signallarining yo‘ldosh xizmati, chastotalarning yon polosa qismini bostirish orqali uzatish, yaqin navigatsiya radiotexnika tizimi radiomayog‘ining o‘tkazish qobiliyati, antennaning yo‘naltirilganlik diagrammasi bosh yaprog‘ida nolni shakllantirish, maishiy radioelektron apparatlarni masofadan turib boshqarish qurilmas*i, *ko‘p kirishli antenna panjarasi kirishlar o‘rtasida sozlanishi, elektr ulagichning yo‘l qo‘yiladigan yuqori chastotali quvvati* va h.k.

8. Sakkiz va undan ortiq komponentli terminlar. Sakkiz va undan ortiq komponentga ega terminlar murakkab tushunchalarni ifodalaydi. Tushunchalarni batafsil holatda tavsiflaydi: *asboblar bo‘yicha qo‘nish tizimida vertikal holatni aniqlash asbobi, asboblar bo‘yicha qo‘nish tizimida gorizontal holatni aniqlash asbobi, antenna panjarasining kirish bo‘yicha yo‘nalganlik diagrammasi, antenna panjarasining kirish bo‘yicha yo‘nalganlik diagrammasi notekislik koeffitsiyenti*.

Soha tizimida **to‘qqiz komponentli terminlar** mavjudligi tadqiqotimiz jarayonida ma’lum bo‘ldi: *elektr ta’minoti tarmog‘i bo‘yicha xalaqitga chidamlilik hisoblash texnikasi vositalari*, **o‘n komponentli terminlar**ga misol esa: *ko‘p kirishli antenna panjarasining kirishi bo‘yicha berilgan yo‘nalishdagi kuchaytirgich koeffitsiyenti,* **o‘n bir komponentli termin**larga esa: *gorizontal va vertikal tekisliklardagi antenna yo‘nalganlik diagrammasi asosiy yaprog‘ining oraliq burchagi* kabilar.

O‘zbek radioaloqa sohasidagi terminlarning birikish komponentlari jihatidan eng ko‘p uchraydigan turlari: **ikki, uch** hamda **to‘rt** komponentli terminlar ekanligi tahlilimiz jarayonida ma’lum bo‘ldi. Besh va undan ortiq komponentlarning birikuvidan voqelangan terminlar o‘zining terminlik funksiyasidan chetlashib, nazarimizda, terminning mavhumligiga jiddiy putur yetadi va soha egalariga, iste’molchilarga ham nutqiy qiyinchilikni yuzaga keltiradi hamda nutqiy notejamlik holatlarini kengaytiradi. Terminlarni tahlil etish jarayonida sohada to‘qqiz va o‘n komponentli terminlarning mavjudligiga guvoh bo‘ldik. Bundan tashqari, yuqoridagi misollardan ma’lum bo‘ldiki, ko‘p komponentli terminlarning aksari gibrid so‘zlar hisobiga kengaygan. Ushbu terminlarni talaffuz qilishning o‘zi sohadan bexabar kishilar uchun yotdir. Gibrid terminlardan hosil qilingan ko‘p komponentli terminlarning nafaqat talaffuz, balki yodda saqlab qolish jarayoni ham bir muncha harakatni talab qiladi. Biz ushbu jarayonga ijobiy baho berishdan yiroqdamiz, terminning tushunchasiga putur yetkazmagan holatlarda ularni qisqartirib iste’molda qo‘llanilishi tarafdorimiz. Chunki nutqiy tejamkorlikni hisobga olgan soha egalari ham, iste’molchi shaxslar ham terminlarning qisqartirilishidan manfaatdor bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudova N. O‘zbek tilidagi telekommunikatsiya terminlarining semantik, struktur va derivatsion xususiyatlari: Filol. fan. bo‘y. fal. dok...diss. – Qo‘qon, 2022.
2. Urunova Z. O‘zbek tilida defektologiya terminlari: Filol. fan. bo‘yicha fal. dok...diss. avtoref. – Toshkent, 2021.
3. Shirinova Y. O‘zbek tili bank-moliya terminologiyasi: Filol. fan. bo‘y. fal. dok...diss. – Toshkent, 2020.
4. Valiyev T. Avtoyo‘lsozlik terminlarining shakliy strukturasiga ko‘ra turlari // Xorijiy filologiya. №1. 2016.
5. Aripov A.N., Aripov I.M. Raqamli radiorele uzatish tizimlari. – Toshkent: Sharq, 2015.
6. Radioto‘lqinlarning tarqalishi va antenna-fider qurilmalariga oid atamalarning ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent, 2016.

Salima JUMAYEVA,
Alfraganus universiteti Sharq filologiyasi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

DOSTONLARDA IJODKOR DUNYOQARASHI VA LIRIK QAHRAMON MUAMMOSI

(Ikrom Otamurod ijodi misolida)

Annotatsiya. Maqolada Ikrom Otamurod dostonlari haqida so‘z yuritiladi. Shoirning so‘z qo‘llash mahorati, ramzlarning o‘ziga xosligi va ijodkor ichki kechinmalarining ifodalanishi tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: ramz, tavhid, obraz, ishora, qiyoslash, poetik mahorat, motiv, tasvir, timsol, talqin.
Annotation. This article analyzes poems Ikram Otamurod’s. Author also analyzes word usage skills, the uniqueness of symbols, and the expression of creative inner experiences.
Keywords: symbol, tavhid, image, sign, com parison, prophets, poetic skill, motive, image, emblem, interpretation.
Аннотация. В статье рассказывается о поэме Икрама Атамурада. Автор анализирует поэтическое мастерство, уникальность символов и выражение творческого внутреннего опыта.
Ключевые слова: символ, тавхид, образ, намек, сравнение, поэтическое мастерство, мотив, изображение, символ, интерпретация.

“She’riyat bu – yashashning yorug‘ tantanasi, bu bizni goh-goh qamrab oluvchi hayot sururi; bu ehtiroslar halovati, titrog‘i avj nuqtasi, tuyg‘uning to‘lqini va bo‘roni, muhabbat toshqini, zavq-u shavq rohati, dardkash xayollar toji, azob-iztiroblar lazzati, tuganmas ko‘z yoshlar chanqog‘i…” [1: 235] ekan, aytish joizki, Ikrom Otamurod dostonlarida bu kabi jihatlar o‘zining badiiy takomilini topgan. U o‘zining bir qator dostonlari bilan milliy adabiyotimiz rivojiga salmoqli hissa qo‘shib kelayotgan ijodkorlardan biridir. Shoirning “Yarador umid otlari”, “Yobondagi yolg‘iz daraxt”, “Ruhdan singan nur”, “Xaritaga tushmagan joy”, “Uzoqlashayotgan og‘riq”, “Sopol siniqlari”, “Aning umidi”, “Ichkari... Tashqari...”, “Sen”, “Iztiror”, “Balki”, “Dog‘”, “Huviyyat”, “Istarim”, “Qush”, “Tag‘azzul”, “O‘rin”, “Jadval”, “Muqaddar”, “Ishora”, “Og‘ish” singari badiiy puxta, pishiq dostonlari kitobxon va adabiy tanqid tomonidan qizg‘in kutib olindi. Bu asarlarda inson hayotining falsafiy talqini, tasvirdagi ravonlik va musiqiylik, qahramonlar xarakteridagi ko‘z ilg‘amas qatlamlarni psixologik asoslash, obrazlilikni ta’min etgan badiiy vositalar bo‘rtib turadi. Shuningdek, asarlaridagi o‘ziga xoslik, badiiy mahorat, uslub borasidagi izlanishlari, lirik tafakkur takomilidagi hayotiy va ijodiy omillar, hayotiy haqiqatning badiiy voqelikka aylanish jarayoni, inson ruhiy olami tasviri muammosini tadqiq etish muhim vazifa sanaladi. Alqissa, shoir ijodining asl mohiyati, ahamiyati poeziyada insonning ichki ruhiy dunyosini ochishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Kitobxondan muayyan darajadagi ruhiy tayyorgarlikni talab etadigan, falsafiy mushohadalarga boy asar muallifning keng dunyoqarashi, kuchli mushohadakorligi, mashaqqatli mehnati, botiniy emrinishlari evaziga dunyoga keladi. Zero, “Badiiy asarda akslangan badiiy voqelik ijodkor tomonidan ko‘rilgan, uning ideali asosida ijodiy qayta ishlangan va g‘oyaviy-hissiy baholangan voqelik ekan, demak, badiiy asar mazmuni ijodkor dunyoqarashi bilan bog‘liq bo‘ladi”. [2: 48]. Shu boisdan ham shoirlar zimmasida katta mas’uliyat yotadi. Kitobxon uning har bir she’ridan qalbiga yaqin, dardiga malham bo‘luvchi teran tuyg‘ularni qidiradi. Bunday asarlar kitobxon sezimlariga kuchli ta’sir etadi va ularning sevimli do‘stiga, hamrohiga aylanib qoladi. Fikrimizni Ikrom Otamurodning falastin shoiri Muin Bsisuga bag‘ishlangan “Yarador umid otlari” dostoni misolida asoslashimiz mumkin. Dostonda ijtimoiy motivlar yetakchilik qiladi. Yuksak vatanparvarlik tuyg‘usi bilan sug‘orilgan bu asarda shoir iste’dodining yangi qirralari, o‘zbek she’riyatining keng imkoniyatlari yaqqol namoyon bo‘lgan. Doston falastin xalqining otash-qalb shoiri Muin Bsisuga bag‘ishlangan. Dostondagi voqealar mukammal kompozitsiya doirasida tasvirlangan. Asarda muayyan lavhalar tasviriga singdirilgan yaxlit fikr, g‘oya, yagona uslub – ichki mantiqiy bog‘lanish mavjud. Bu bog‘lanish dostonni o‘ziga xos mukammal asar holiga keltirgan. Shuningdek, dostonda aks etgan turli voqea va lavhalarni lirik qahramon – shoir Muin Bsisu obrazi birlashtiradi va asarga bir butunlik baxsh etadi. Doston xalq kuchiga va adolat tantanasiga komil ishonch ruhi bilan sug‘orilgan. Bundan tashqari, asar g‘oyasi chuqur mantiq asosida yuzaga keltirilgan. Unda nazm va nasr uyg‘unligi, ta’sirli misralar, asar g‘oyasini obrazli tarzda ochishga bevosita xizmat qiluvchi timsollar mavjud. Bosh g‘oya Voqelik, Tarjimayi hol, Fakt, Iztirob, Muin nidosi va Tush deb nomlangan qismlar orqali ifoda etiladi. Bunda shoir asar lirik qahramoni Muin Bsisu obrazi orqali Falastin taraqqiyparvar ziyolilarining istiqlol yo‘lidagi kurashini umumlashtirib ko‘rsatadi. Aytish joizki, Muin Bsisu aslida iste’dodli Falastin shoiri bo‘lib, uning ijodi, siyosiy qarashlari va ijtimoiy faoliyati sionizm mutasaddilarining g‘oyalari hukmronlik qilgan davrdagi buyuk jasorat namunasi edi. U avvalo Isroil bosqinchilari zulmiga qarshi chiqdi, badiiy asarlarida mamlakat mustaqilligi, tinchligi va inson omilini birinchi o‘ringa qo‘ydi, xalqni erk va ozodlik kurashiga chorladi. Publitsistik maqolalarida esa Falastin davlatining halokati zamirida sionizm g‘oyalari yotishini ochiq bayon etdi. Shu boisdan ham u bosqinchilar siyosatining keskin tanqidi va adolatsiz tazyiqiga uchradi. Oxir-oqibat, o‘z yurtidan quvg‘inda yashashga majbur... Do‘stlik daraxti ostiga vatanidan bir siqim tuproq keltirib to‘kish unga armon...*“Qora dengiz bo‘yidagi xiyobon... Do‘stlik daraxti... Dunyo shoirlari uning ostiga o‘z yurtlaridan bir siqim tufroq keltirib to‘kishadi... Muin ham keldi bu yerga, daraxtga tikildi mahzun... U, bir siqim tufroqni qayerdan olib kelsin, yurti boshqalar – bosqinchilar qo‘lida bo‘lgach?.. Daraxt oldida dovdirab, esankirab, o‘yga botib qoldi Muin...”* [3: 103]. Garchi tarix haqida ko‘p narsa ma’lum, biroq boshidan kechirgan odam tortgan har bir chiziq umumiy manzarani yanada to‘ldiradi. Ustiga-ustak, bu chiziqni iste’dodli shoir

qalami-la tortsa! Zeroki, she'r shoir ruhiy-psixologik holati sintezi sanalar ekan, ijodkor idrokida vujudga kelgan tuyg'ular to'lqini lirik qahramon kechinmalarida maromiga yetkaziladi. Turli xil harakat va holatlar, so'z – obraz – ruhiyat jipslashib, muallifning borliqqa ijodiy munosabatini ifodalaydi. Ayni paytda, shoir tafakkurida sayqal topgan va rivojlantirilgan shaxsiy kechinma mohiyatan umumiylikka intilgan holda sinxronik ko'lamga ega bo'la boradi. E'tiborlisi, dostonda kuzatiluvchi bu kabi qator jihatlar aniq bir g'oyaviy-badiiy maqsadga bo'ysundirilgan. Bunda shoir Ikrom Otamurod o'ziga xos obrazli vositalardan, ixcham o'xshatish va ramzlardan, belgilar va timsollardan unumli foydalanadi. Doston yangi fikr va favqulodda umumlashmalarga serob.

Ma'lumki, har bir ijodkorning ijod jarayoniga o'zi yashagan davr ruhi, mafkurasi shubhasiz ta'sir ko'rsatadi. Chunki "...san'atkorning estetik idealiga o'z davrining ilg'or ijtimoiy maqsadi ham singib ketadi. Faqat bir sharti borki, o'sha ijtimoiy maqsad san'atkor uchun shu darajada shaxsiylanib ketishi zarurki, endi u o'sha maqsadga o'z-o'zining maqsadi deb qarasin – ijtimoiylik va shaxsiylik chegaralari yo'q bo'lib ketsin". [2: 52] Asarlariga o'z davrining eng ilg'or ijtimoiy maqsadini singdirish g'oyasi esa ijodkordan an'anaviylik va novatorlik jihatlari, teran fikrlilik, mushohada o'tkirligi, falsafiy bilimlarining chuqurligi, bayonda izchillik, dalillash san'atida mohirligi, tasavvuf ilmiga doir nazariy ma'lumotlarni bilishi va badiiylikni sintez qila olish kabi bir qator xususiyatlarni talab etadi. Buni teran anglagan shoir Ikrom Otamurod bir qator dostonlarida ayni shu jihatlarga ahamiyat qaratadi. Jumladan, uning "Sen" nomli dostoni shu ma'noda nuktadon qalb da'vati va ehtiyoji bilan yozilgan asarlari sirasiga kiradi. Tahlilimizdagi dostonning asosiy motivlari – Vaqt, Makon, Kangul. Uch falsafiy tushuncha vositasida bir butun yaxlitlik kasb etadi. Shuningdek, asarda ilohiy tavhid: olamning yagonaligi, yagona abadiy va azaliy borliq, zarradan koinotgacha Uning qudrati va izmida ekanligiga ishora qilinadi va u sog'inch kechinmalarida ruhiyatning yagona qayg'usiga aylanadi. Darhaqiqat, asarda ruhiyat tasvirining namoyon bo'lishi ancha murakkab kechadi. Sog'inch manzaralari kitobxon tasavvurida shunday fikrlarni uyg'otadi. Asar sujetini yaxlit tizimga solishida muhim rol o'ynagan zamon va makon tushunchasi esa o'ziga xos qoliplov usuli bo'lib, Ilohiy sog'inch hissi bilan sug'orilgan misralarda Rumiy ijodiga xos falsafiylik, Imom G'azzoliy qarashlarini umumlashtiruvchi irfoniy tushunchalar, Navoiy lirizmida ilgari surilgan teran tafakkur mujdalari ko'zga tashlanadi:

Kanglumga bir ufun yugurdi,
Armonlarim sirildi shaydo.
Anglolmadim men-da bu sirni,
Huvaydo, huvaydo, huvaydo...
Seni tanimasdim... tanidim ... [4: 19].

Adabiyotshunoslikka oid ilmiy manbalarda *talqin* atamasi ham *"badiiy talqin"* ma'nosida, ham *"adabiy asar talqini"* ma'nosida birdek qo'llanishi qayd etiladi. Holbuki, bu ikki tushuncha bir-biridan farqlanadi: ularning birinchisi ijod jarayoni bilan, ikkinchisi adabiy asarni o'qish (uqish) jarayoni bilan bog'liq. [5: 12 – 13]. Biroq ... *"talqin subyektiv xarakterga ega ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, adabiyotshunos ham talqinni o'quvchi sifatida boshlaydi, ya'ni u ham talqinni talqin qiladi – yozuvchi badiiy obrazlar vositasida aks ettirgan voqelikni tasavvurida qayta yaratadi".* [6:115]. Shoir Haqni tanish barcha insoniyat uchun buyuk hodisa ekanligini *"Seni tanimasdim... tanidim"* so'zlari bilan talqin etadi. Yana bir jihat – asar sarlavhasi ham mazmun-mohiyati bilan talqin haqiqatiga asoslanib tanlanganligini qayd etish joizdir.

Ikrom Otamurodning keyingi yillarda yaratgan dostonlarida falsafiylik ustuvorlik qiladi. Buning sababi avvalgi asarlaridagi kabi ijtimoiy motivlar yetakchiligi emas, balki insoniy muammo, munosabat, xususiyatlarga e'tiborni qaratilishidir. Yanada aniqroq aytsak, shoirning G'arb falsafasiga emas, Sharq falsafasi asosiga suyanishi bilan bog'lash mumkin. Sharq falsafasi asosida esa dunyodagi barcha ezguliklar zamirida ma'naviyat, axloq va aqlning uyg'unligi hamda uni asoslash yotadi. Konfutsiyning fikri: "Agar yerdagi hayot yomon bo'lsa, inson osmonga emas, balki o'z qalbiga, vijdoniga nazar tashlashi kerak... Odamlar seni bilmasliklaridan g'am chekma, o'zing odamlarni bilmasligingdan g'am chek..." Shoirning "Og'ish" dostoni zamirida ayni shu falsafiy haqiqatning badiiy ifodasi mujassamlashgan. Asarda ko'tarilgan masalalar butun insoniyatga taalluqli, unda bugungi zamin kishisining dardlari, orzu-intilishlarini aks ettiradi. Muallif muayyan hodisotlarga ishora sifatida asarga ulug' ingliz adibi Volter Skottning *"Yer yuzi muloqot qilishga arzimaydigan odamlar bilan og'ish vaznida to'lib ketgan"* degan hikmatli iborasini epigraf qilib keltiradi va muqaddimada ushbu mavzuga shunday munosabat bildiradi:

"Og'ish
jumboqlarga
mutloq jumboqdir..." [4: 115]

Dostondan chiqarib tashlasa bo'ladigan o'rinsiz holatlar yo'q. Asar sujetini tashkil etgan voqealar sabab-oqibat munosabatlarining o'zaro mantiqan bog'langanligi sababli, ortiqcha izoh talab qilmaydi. Bugungi dunyoning ijtimoiy-siyosiy, ruhiy olamini ko'nikuvchanlik va moslashuvchanlik egallab olgan bir davrda shoirning *"Borliqning og'ishi nedan boshlangay?"* [4: 116] degan ritorik savoli asarni o'qiyotgan kitobxonni hushyor torttiradi va hayot haqida o'ylashga, mushohada yuritishga chog'laydi. Zero, har qanday ijod mahsuli borki, u obrazli ifoda natijasidir. Ikrom Otamurod dostonlarida qofiyabozlik ko'zga tashlanmaydi, misralarda jumlalarning joylashishi, shakligacha boshqa ijodkorlardan farq qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Ikrom Otamurod zamonaviy o'zbek adabiyotida o'z uslubi, yo'nalishiga ega dostonnavis shoir. Uning asarlari mazmunida teran ruhiy tafakkur va faylasufona mushohada mujassam va tahlil jarayonida yuksak she'riyatning qudratini tuyush mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot nazariyasi. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1979.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Otamurodov I. Muqaddar: She'rlar va dostonlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.
4. Otamurodov I. Sopol siniqlari. – Toshkent: Ganjina, 2022.
5. Quronov D. Talqin imkonlari. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015.
6. Quronov D. Tarix va talqin mas'uliyati // Adabiy meros 2021. №2.

Ванг Шенью,
магистрант II курса
Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека

ПЕЙЗАЖНЫЕ ЗАРИСОВКИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ВАЛЕНТИНА РАСПУТИНА

Валентин Распутин – одна из центральных фигур литературного процесса второй половины XX века. Как писал С.Залыгин, «Валентин Распутин вошел в нашу литературу сразу же, почти без разбега и как истинный мастер художественного слова, а повторять, что произведения его значительны, что, минуя их, сегодня уже нельзя серьезно рассуждать о нынешней русской и всей советской прозе, нет, очевидно, никакой необходимости» [1, с. 22].

Всеобщее признание пришло к В.Распутину с первых шагов на профессиональном писательском поприще – после публикации в 1967 году рассказа «Василий и Василиса» и повести «Деньги для Марии». В 1970-е годы популярность писателя приобретает масштабы всемирной славы. Практически все художественные произведения В.Распутина конца 1960–начала 1980-х годов были признаны классическими и заслуженно вошли в сокровищницу русской литературы. Как пишет П.Басинский, «Распутин всегда очень чутко отзывался именно на самые глубокие и потаённые вызовы и запросы национальной души. Не просто народной, но общенациональной. По Распутину можно было сверять и сверяли когда-то, чем в глубине души болеет Россия» [2, с. 7].

Творчество В.Г.Распутина – это явление, без которого уже невозможно представить современный литературный процесс. Распутин вместе с некоторыми другими писателями обратился к исследованию актуальнейших проблем современной, прежде всего духовной жизни общества, сумел найти её «болевые точки», поэтому творчество писателя актуально по сей день.

Творческая палитра Распутина богата и многообразна. Модель мироздания в его произведениях весьма своеобразна и складывается из отдельных художественных деталей, представляющих из себя мельчайшие изобразительные художественные подробности.

Существенную роль в произведениях В.Распутина выполняют пейзажные зарисовки, которые не только обозначают место действия, но и создают определённое настроение, помогают расставить акценты, соответствуя или противостоя состоянию героя. Так, в распутинском «Последнем сроке», например, автору надо было подчеркнуть обыденность, размеренность и безликость деревенской российской жизни: «В свой черед засветилось утро, стало проясняться, но ещё до солнца с реки нанесло такого густого и непроглядного тумана, что всё в нем утонуло, потерялось. Утробно по деревне кричали коровы, горланили петухи, коротко и приглушенно, будто рыба плещет в воде, доносились людские звуки – всё в белой, моросящей зге, в которой только себя и видать…» [3, с. 139].

Зачастую пейзаж в произведениях писателя заметно воздействует на душевное состояние героя, близость к природе – залог нравственной красоты и чистоты помыслов. Достаточно вспомнить Саньку («Век живи – век люби»), Дарью («Прощание с Матёрой»), бабку Наталью («Женский разговор»), старуху Анну («Последний срок»). Анна живет в согласии с природой, жизнь дня, красота солнечного света откликаются в её душе радостью, само чувство жизни приходит к ней через звуки, краски природы, через солнечный свет; она сама – часть вечной и мудрой природы: «Солнце по утрам не попадало в избу, но когда оно взошло, старуха узнала и без окошек; воздух вокруг нее заходил, заиграл, будто на него дохнули со стороны» [там же, с. 132].

Окружающий героев Распутина мир – заброшенная, вымирающая деревня – не знающая язв и пороков цивилизации, прекрасное и чистое место, как нельзя лучше подходит для их благородных и искренних героев. Это почва, на которой произрастают такие натуры, возможно, необходимое условие для этого. Для современного человека местом действия часто становится город, формирующий характер, воздействующий на психику. В литературе появился даже неточный и оксюморонный термин «городской пейзаж». Писатель не просто описывает место действия, но в соответствии со своими художественными задачами строит определённый образ города. Так, у Распутина образ города, превратившись в газовую камеру под небом, созданную подвигом строителей (рассказ «В ту же землю»), получил продолжение и в рассказе «Новая профессия»: «В его полной и вялой очерченности выстраивается что-то уже окончательно отошедшее, глядящее безмолвно. Сегодня это уже не тот город… В нем так многое меняется… Может быть, раком страдают не только люди, но и города, государства, только «ра-

ковые» города живут дольше»; или «Они садились на старенькую «Ниву», принадлежащую издателю, выбирались из города, из уличных его теснин, загаженных пошлыми рекламными щитами…» [4, с. 18].

Итак, у Распутина свой образ города, своё восприятие «городского пейзажа». Довольно часто пейзаж помогает создать определенную эмоциональную атмосферу, косвенно отобразить душевное состояние героев, причём этот прием сопровождается психологическим параллелизмом или сравнением. Так, в рассказе «Женский разговор» описание природы перекликается с внутренним состоянием героев: «Избы на другой стороне улицы стояли придавлено и заворожено – ни дымка, ни огонька, ни звука. Снежные шапки на крышах, подтаявшие за день, сидели набекрень и леденисто взблескивали под могучим дыханием неба. Такое там царило безлюдье, такая немота и такой холод, так искрилось небо над оцепеневшею землёй и такой бедной, сиротливой показалась земля, что Наталье стало не по себе» [5, с. 67]. Если в начале рассказа создаётся ощущение неуверенности, холода, неудовлетворённости, то в конце его начинают звучать оптимистические ноты. Человек обретает уверенность в себе, постигает истинные ценности в жизни: «С тихим звоном билась в стеклину звездная россыпь, с тихим плеском наплывал и холодно замирал свет… небо, разворачиваясь, всё играло и играло мириадами острых вспышек, выписывая и предвещая своими огненными письменами завтрашнюю неотвратимость» [там же, с. 71]. Итак, с одной стороны холодный, спокойный, вечный «свет», с другой – сомнения, «мириады острых вспышек».

Иногда пейзажные зарисовки приобретают самостоятельное значение, природа становится как бы действующим лицом художественного произведения. Так в рассказе Распутина «Под небом ночным» пейзаж – это самостоятельный персонаж, наделённый особым характером и способностью мыслить и реагировать: «Он опять открыл глаза и вгляделся. И не мог понять, что это пред ним: разноцветными кругами, тянущимися из одного радужно-качающегося мотка, небо снизывалось и затухало в тайге. Сон это или не сон? Над темными волоками лесов колыхались мерцающие волны. Затем осторожно, как от неведомого вздоха, прошел ветер и чуть слышно куда-то постучал. Издатель поднял голову и прислушался. Что-то будто медленно наползало на него по земле, притаёнными толчками раздвигая траву и листья…» [6, с. 23]. То же в повести «Последний срок»: отчетливо слышен могучий живой голос природы, которая вершит нравственный суд над Люсей. Заброшенное поле, заросшее лесом, забытая людьми земля, лесная дорога, кусты черемухи – всё это предъявляет Люсе свой негласный, но требовательный счет.

Таким образом, пейзаж, в творчестве Распутина наделен психологически важными функциями: обозначать место действия, влиять на формирование характеров героев, определять психологическое состояние, иными словами, определенные состояния природы так или иначе соотносятся с теми или иными человеческими чувствами и переживаниями, выполняют функции действующего лица художественного произведения.

Литература

1. Залыгин С. Повести Валентина Распутина. М., 1991.
2. Басинский П. Новые деревенские // Литературная газета, 2001, №36.
3. Распутин В. Последний срок. М., 2006.
4. Распутин В. Новая профессия // Сибирь, 1998, №1.
5. Распутин В. Рассказы: женский разговор. Иркутск: Облмашинформ, 2001.
6. Распутин В. Под небом ночным // Сибирь, 2002, №2.

Sayyora SAMIYEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi

TALABALARNING INGLIZ TILIDAGI NAZARIY VA AMALIY GRAMMATIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Maqolada talabalarning ingliz tilidagi nazariy va amaliy grammatik kompetensiyalarini uzviylikda takomillashtirishda grammatik hodisalarning shakl, ma’no va qo‘llanishini tanishtirishga oid mashqlardan foydalanish masalalari yoritilgan. “Grammatik shakl”, “ma’no” va “qo‘llanish” atamalariga izoh berilgan.

Kalit so‘zlar: mutaxassis, grammatik kompetensiya, nazariy va amaliy grammatika, grammatik hodisa, lisoniy hodisa, grammatik ma’no, grammatik shakl, qo‘llanish, takomillashtirish.

Annotation. The article covers the issues of using exercises to introduce the form, meaning and function of English grammatical phenomena in order to improve the theoretical and practical grammatical competences of students. The terms “grammatical form”, “meaning” and “function” are explained.

Keywords: specialist, grammatical competence, theoretical and practical grammar, grammatical phenomenon, linguistic phenomenon, grammatical meaning, grammatical form, usage, improvement.

Аннотация. В статье показано использование упражнений для ознакомления формы, значения и применения грамматических явлений в английском языке для совершенствования теоретических и практических грамматических компетенций студентов. Объяснены термины “грамматическая форма”, “значение” и “применение”.

Ключевые слова: специалист, грамматическая компетенция, теоретическая и практическая грамматика, грамматическое явление, языковое явление, грамматическое значение, грамматическая форма, применение, совершенствование.

O‘zbek milliy chet til o‘qitish metodikasida grammatikani o‘rgatishga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlar bajarilgan. T.Q.Sattorov, T.Etminov, R.N.Kremer, I.E.Tarsina, L.R.Benyaminov, O‘.Xoshimov, A.Parpiyev, M.M.Mamajonova, Y.E.Temirov, N.Baqoyev, Sh.Y.Begaliyev, H.Boyqo‘ziyev, Y.M.Gulkarov, M.I.Diment, H.T.Mustafayeva, Sh.S.Alimov, M.Y.Soliyeva, M.A.Abdullayeva, D.A.Kurbanbayev, I.A.Hakimov, A.A.Isoqovlar [1, 2, 3, 4, 5, 6] o‘z nomzodlik dissertatsiyalarida o‘zbek auditoriyasida chet til grammatikasini o‘rgatish muammolarini yoritganlar.

Mazkur maqolamizda biz mutaxassis OTM talabalarining nazariy va amaliy grammatik kompetensiyalarini uzviylikda takomillashtirishda grammatik hodisalarning shakli, ma’nosi va qo‘llanishini tanishtirishga oid mashqlardan foydalanish masalalarini yoritishga harakat qilamiz.

Avvalambor, biz grammatik hodisaning grammatik ma’nosi, shakli va qo‘llanilishi haqida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. So‘zning ma’lum bir turkumga mansubligini ko‘rsatuvchi, so‘zning ma’lum bir grammatik shaklini ifodalaydigan, gapda qanday vazifa bajarishini bildiradigan ma’no grammatik ma’no hisoblanadi.

So‘zning biror grammatik ma’no ifodalaydigan ko‘rinishi uning grammatik shakli deyiladi. So‘zlarning quyidagi grammatik shakllari farqlanishi mumkin: **1. Sintetik shakl.** Bu shakl shakl yasovchi affikslar vositasida hosil bo‘ladi: *go – went.* **2. Analitik shakl.** Mazkur shakl yordamchi so‘zlar orqali yuzaga keladi: *is going, has been doing.*

Grammatik hodisaning qo‘llanishi – so‘zning sintaktik vazifasi. Masalan, ot gapda ega, to‘ldiruvchi vazifalarida kelishi mumkin: *Zarina* was at home (ega). My parents bought a lot of *things* yesterday (to‘ldiruvchi).

O‘zbek talabalari duch keladigan inglizcha grammatik hodisalarning har biri uch toifani tashkil etadi: grammatik hodisaning shakli, ma’nosi, qo‘llanilishi alohida-alohida qiyinchilikka sabab bo‘lishi mumkin. Grammatik hodisani o‘rgatish/o‘rganishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni belgilashda shakl, ma’no va qo‘llanish kabilar alohida-alohida o‘rgatish obyekti sifatida qaralishi e’tirof etiladi. U yoki bu grammatik hodisa bir, ikki va uch martalab qiyinchilik tug‘dirishi mumkin: masalan, *the Present Indefinite third person singular* o‘zbek talabalari uchun faqat shaklan qiyinchilik tug‘diradi, ma’no va qo‘llanishida qiyinchilik paydo bo‘lmaydi. *Reflexive pronouns* shaklan qiyin, ma’no va qo‘llanilishi katta qiyinchilik tug‘dirmaydi; ingliz tili artikli *(Article)* shakl/ma’no/qo‘llanilishida o‘ta jiddiy qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi va h.k.

O‘zbek metodisti T.Q.Sattorov ingliz tili grammatikasini o‘rgatish mavzusida o‘tkazgan tadqiqotida mazmuniga ko‘ra, har qanday grammatik hodisaning uch jihati borligini alohida ta’kidlab o‘tgan: shakl, ma’no va qo‘llanish (lingvistik adabiyotlarda ushbu uch termin forma, semantika va funksiya nomlari bilan yuritiladi) [5]. Olim chet til grammatikasini o‘rgatishda lisoniy hodisaning uch jihatini alohida-alohida hisobga olish va

ulardagi qiyinchiliklarni e'tiborga olgan holda mashqlar bajartirishdek innovatsion texnologiyaga e'tiborni qaratadi. U o'quvchilar og'zaki nutqida qiyinchilik tug'diradigan ingliz tili grammatik hodisalarining tasnifi, ingliz, o'zbek va rus tillarida o'xshash (transpozitsion) va farq qiluvchi (interferension) grammatik hodisalarning qiyinchilik darajasini aniqlagan.

Yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda, biz mutaxassis talabalarning nazariy va amaliy grammatik kompetensiyalarini uzviy takomillashtirishda grammatik hodisalarning shakli, ma'nosi va qo'llanishini tanishtirishga oid mashqlardan namunalarni tavsiya qilmoqchimiz.

1-mashq. Quyida berilgan gaplardagi nutq bo'laklarining nomlarini ayting.

Name the parts of speech in the following sentences.

1. My friend's son was discussing the height of Mount Everest. 2. My young niece was given a very much wanted puppy for a present. 3. It is difficult to find a nice place to stay a night in. 4. I like the idea of going there for a weekend. 5. He was always first to spot interesting things lying on the pavement.

2-mashq. Matnni o'qing va undagi sodda, bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplarni ajrating. Read the paragraph and find simple, compound and complex sentences [7].

First impressions are important in an interview. *You will make a good impression if you follow some important steps.* **Confident people often make good first impressions.** *Employers may feel uncomfortable when you do not seem confident.* **Your clothing can also make a good first impression.** Clean and neat clothing makes a good impression, and a neat hairstyle also shows professionalism. *Messy clothing does not make a good impression because people associate it with laziness.* You do not have to wear expensive clothing, but you can still dress nicely. **Finally, your body language says a lot about you.** *You should not move around too much, although you do not have to be perfectly still.* **You can follow this advice for your next interview.**

1. The sentences in **bold** are: A) simple sentences. B) compound sentences. C) complex sentences.

2. The *italicized* sentences are: A) simple sentences. B) compound sentences. C) complex sentences.

3. The underlined sentences are: A) simple sentences. B) compound sentences. C) complex sentences.

3-mashq. Gaplardagi har bir so'zni jadvalda berilgan kategoriyalar bo'yicha tasniflang. Classify each word in the following sentences according to the categories given below [8].

N noun	**V** verb	**A** adjective	**P** preposition	**DET** determiner	**PRN** pronoun	**AUX** auxiliary

Some people like cats.							
Europeans peopled America.							
Careful owners wash their cars.							
Down fills the best duvets.							
She might drive down my street.							

4-mashq. So'zlarni kerakli tartibga joylab gaplar tuzing.

Put the words in the right order to form sentences [7].

1) always / new / is / she / about / speaking / her / convertible

2) think / excellent / you / ? / Marc / is / don't / student / an

3) a / She / hard-working / back / and / to work / Susan / woman. / up / at 6 am / at 6 pm / goes / comes / is / wakes / home

4) music / to / Robert / classical / sometimes / listens

5) daughter / 's / can / well / words / French / Mario /very / spell

5-mashq. 1- va 3-ustunlarda berilgan qismlarni 2-ustundagi tegishli bog'lovchi bilan qo'shib, qo'shma gaplar tuzing. Make compound sentences by combining a clause from Coloumn 1 and another suitable clause from Column 3 with an appropriate conjunction from Column 2.

Column 1	Column 2	Column 3
He is outwardly strict	and	delivered the letter.
Work hard,	but	we stayed indoor.
United we stand,	nor	takes tea.

Do	still	I decided to help you.
He is very ill,	yet	pretends madness.
The postman came	either…. or	you will fail.
It rained heavily,	neither …. nor	lenient at heart.
He smokes cigarettes,	not only …..but also	I shall fine you.

Xulosa qilib aytganda, mutaxassis talabalarning nazariy va amaliy grammatik kompetensiyalarini takomillashtirishda biz taklif qilgan grammatik mashqlar yangi grammatik hodisaning shakli, ma'nosi va qo'llanishini eslab qolishda ularga yordam beradi. Bu mashqlar sodda mashqlar bo'lib, taqdim etilgan ma'lumotlarni tushunishga undaydi. Ta'riflash, solishtirish va qarama-qarshi qilish, qayta ishlash va muhokama qilishga undaydigan mashqlar orqali talaba grammatik hodisani mustaqil ravishda qo'llashga tayyorlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаева М.А. Коммуникативная методика обучения иноязычной грамматике на начальном этапе языкового факультета (на материале Present Continuous, Present Perfect английского глагола). Автореф... Дис... канд. пед. наук. – Ташкент, 2004. – 20 с.
2. Isoqov A.A. Akademik litsey o'quvchilarining ingliz tilida grammatik ko'nikmalarini takomillashtirish texnologiyasi: Ped. fan. nomz... diss. – Toshkent, 2008. 160-bet.
3. Kurbanbayev D.A. Bo'lajak chet til o'qituvchilari nutq omilkorligini nazorat qilish metodikasi: Ped. fan. nomz... diss. − Toshkent, 2011. 160-bet.
4. Mustafayeva H.T. Ingliz tili grammatikasini ijtimoiy-gumanitar fakultetlar talabalariga o'rgatishning lingvometodik asoslari: Ped. fan. nomz... dis. avtoref. – Toshkent, 2004. 22-bet.
5. Саттаров Т.К. Методическое содержание обучения активной грамматике английского языка в узбекской средней школе. Автореф. Дис... канд... пед. наук. – Москва: НИИСиМО АПН, 1982. – С.7
6. Hoshimov O'., Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2003. 301-bet.
7. https://otvet.mail.ru/question/214481088
8. https://listenaminute.com/f/first_impressions.html
9. https://cyberpedia.su/3x12356.html

Saodat KAMBAROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

OBRAZLI VA KONSEPTUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHGA TIZIMLI YONDASHUV

Annotatsiya. Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot fanini o‘qitish orqali o‘quvchilarning obrazli va konseptual tafakkuri shakllanishining yosh dinamikasini aniqlash va ularni rivojlantirishning metodik tizimini yaratish masalasi yoritiladi. Buning uchun obrazli va konseptual fikrlashni rivojlantirish shartlari, shuningdek, ushbu fikrlash turlarining muvaffaqiyatli rivojlanishini ta’minlaydigan ketma-ket va bog‘liq operatsiyalar mazmuni bayon etiladi.
Kalit so‘zlar: emotsionallik, dialog, konseptual tafakkur, majoziylik, obraz-ramz, obrazli fikrlash, talqin.
Annotation. The article describes the issue of determining the age dynamics of the formation of figurative and conceptual thinking of students and creating a methodical system for their development through the teaching of literature in general secondary schools. For this, the conditions for the development of figurative and conceptual thinking, as well as the content of sequential and related operations that ensure the successful development of these types of thinking, are described.
Keywords: emotionality, dialogue, conceptual thinking, figurativeness, image-symbol, figurative thinking, interpretation.
Аннотация. В статье рассматривается вопрос определения возрастной динамики формирования образного мышления учащихся и создания методической системы его развития через преподавание литературы в общеобразовательных школах, описываются условия развития образного и концептуального мышления, а также содержание последовательных и связанных операций, обеспечивающих успешное развитие этих видов мышления.
Ключевые слова: эмоциональность, диалог, метафора, концептуальное мышление, образное мышление, образ-символ, интерпретация.

Bugungi kunda adabiy ta’lim tizimida obrazli va konseptual fikrlashning o‘zaro bog‘liqligi muammosi nafaqat san’atga oid, balki boshqa fanlarni o‘qitish jarayonida ham paydo bo‘ldi. Xususan, bu borada tadqiqotlar olib borgan rus metodisti V.G.Maransmanning fikricha, “Adabiyot o‘qitishda obrazlilik va konseptuallikka qoida tariqasida – asarni idrok etishning turli qutblari va bir-biriga qarama-qarshi faoliyat turlari sifatida qarala boshlandi. Shuningdek, konsepsiya va tasvir o‘rtasidagi bo‘shliq zamonaviy maktab o‘quvchisi tafakkurining parchalanishiga, ongining “klipi”ga olib keladi. Bunda bir qator o‘zgaruvchan yorqin taassurotlar tushunchaga aylanadi, izchil tasvirlar zanjiri shakllanmaydi” [4: 5].

Adabiyot o‘qitishdagi estetik yo‘nalish o‘z mohiyatiga ko‘ra idrokni subyektivlashtirish, muallif qiyofasini anglash hamda uning o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishiga qaratilgan bo‘lsa ham, individual obrazlarni talqin qilishda asarning yaxlit tushunchasi mavjud. Shu bois N.V.Belyayeva [1], V.G.Maransman [4], N.D.Moldovskaya [6], I.V.Rijkova [8], T.F.Sigayeva [9], L.V.Shamrey [10] kabi rus metodistlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda adabiy ta’limning ushbu tamoyillarini birlashtirishga qat’iy harakat qilingani kuzatiladi. Milliy metodikada mazkur muammo Q.Husanboyeva [3], M.Mirqosimova [5], R.Niyozmetova [7]lar tomonidan tafakkurning ijodiyligi, mustaqilligi va mantiqiyligi kabi shakllari asosida yoritilgani kuzatiladi.

O‘quvchi berilgan g‘oyani aniq idrok etishi, asarda ko‘rishi va muallifning uni amalga oshirishdagi harakatlarini tanqidiy baholashi kerak. Adabiyot o‘qitishdagi estetik yo‘nalish o‘z mohiyatiga ko‘ra idrokni subyektivlashtirish, muallif qiyofasini anglash hamda uning o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishiga qaratilgan bo‘lsada, individual obrazlarni talqin qilishda asarning yaxlit tushunchasi mavjud. Adabiyot o‘qitish metodikasida pedagogik psixologiyada bo‘lgani kabi obrazli va konseptual tafakkurning o‘zaro ta’sir qilish mexanizmlari oydinlashmagan. Ushbu muammo ko‘pincha o‘quvchi idrokida tasviriy va mantiqiy tamoyillarning o‘zaro ta’siri haqidagi savol bilan almashtiriladi. Bu biz qo‘ygan muammoga ekvivalent emas, chunki konseptual fikrlash, nazarimizda, majoziy fikrga qarshi turmaydi, lekin uni mantiq va his-tuyg‘ularning o‘zgarishi yordamida o‘z ichiga oladi.

N.D.Moldavskayaning izlanishlarida konseptual tafakkur haqida so‘z yuritilgan, lekin bu bilan cheklanib qolinmagan ham. Uning fikricha, konseptual tafakkur matnning mantiqiy talqini bilan bog‘langan obrazli umumlashtirishni o‘z ichiga oladi [6: 169]. Bizningcha, o‘quvchi ongidagi konseptual tafakkur deyilganda obrazli taassurotlarni dunyoqarash paradigmasiga qurish qobiliyati tushuniladi, bu esa majoziy ko‘chirish tufayli estetik idrok etishning taassurotlari va strategiyalarini tartibga soladi. Ta’kidlash joizki, konseptual tafakkur badiiy asarning o‘quvchi talqinini yaratish jarayonida aqliy faoliyatning majoziy va mantiqiy tarkibiy qismlarini izchil qo‘llash bilan bog‘liq emas.

Fikrimizcha, bunda qayd etilgan jihatlarning uyg‘unlashuvi mavjud bo‘lib, u maxsus birlikni hosil qiladi. Hissiy, analitik va assotsiativ jihatlarni o‘z ichiga olgan badiiy obraz ko‘rinishidagi aks ettirish san’at obyektini idrok etishga yordam beradi. Badiiy asar tushunchasi o‘quvchi talqinining eng yuqori darajasi sifatida qabul qilinadi. Bu daraja maxsus fikrlash jarayonini ta’minlashi e’tiborga olinsa, uni konseptual tafakkur deb atash mumkin.

Ma’lumki, konseptual tafakkur obrazli elementlarni o‘z ichiga oladi va ularni mantiqiy harakatlar yordami-

da badiiy asarning yaxlit talqiniga aylantiradi. O‘quvchi idrokining obrazli boshlanishi nazariy va tarixiy-adabiy bilimlar, tahlil qilish qobiliyatlari kabi izchil rivojlantirilishi kerak. Shuningdek, badiiy asarlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar obrazli-konseptual tafakkurining rivojlanish qonuniyatlari, shartlari va darajalari belgilanishi maqsadga muvofiq. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi shartlar va harakatlarni o‘z ichiga olgan metodik tizim talab qilinadi:

1) obrazli tafakkurni shakllantirish jarayoni matnni o‘qish va tahlil qilish ko‘nikmasini hosil qilish orqali rag‘batlantiriladi va asarni o‘rganish jarayonida muammoli vaziyatlarning konjugatsiyasi sharoitida konseptual tafakkur rivojlanadi; 2) o‘quvchi idrokini ochishda oppozitsion diadalar: o‘quvchining his-tuyg‘ulari – muallifning his-tuyg‘ulari, tasavvurni qayta yaratish – ijodiy tasavvur, asar shaklini kompozitsiya darajasida – badiiy detallar darajasida anglash obrazli fikrlashdan konseptual o‘zgarishlarga olib keladi; 3) tasviriy va konseptual tafakkurning rivojlanishi asarni tarjima qilish va davrning madaniy kontekstiga kiritish usuli yordamida o‘quvchining badiiy taassurotlarini uzatish jarayonida sodir bo‘ladi; 4) interaktiv ta’lim va badiiy asarni personajlar, muallif va turli yozuvchilar muloqoti sifatida ko‘rib chiqish kontekstida obrazli va konseptual fikrlashni samarali rivojlantirish mumkin.

Badiiy asarning obrazli tuzilishini ajratib ko‘rsatish asosida o‘rganish tizimi bir necha bosqichlardan tashkil topadi. Bular rus metodisti Ye.K.Maransman ko‘rsatganidek, quyidagilardan iborat:

– boshlang‘ich sinflarda asar qahramonlari, mavzusi va sujetiga nisbatan faol munosabatni qaror toptirish;

– 5–6-sinflarda muallifga nisbatan pozitsiyani rivojlantirish vositasi sifatida muallifning badiiy tizimlarini farqlash. Bu maktab o‘quvchilarining adabiy rivojlanishi dastlabki bosqichlarida qiziqarli va mazmunli o‘qishni ta’minlaydi;

– katta yoshdagi o‘smirlar (7–8-sinflar) tomonidan badiiy asarlarni talqin qilishdagi intilishlarni obrazlar zanjiridan ajratib ko‘rsatish, ularni mantiqiy tushunish va shu asosda asar konsepsiyasini qurish orqali bartaraf etishni ko‘zda tutadi;

– umumiy o‘rta ta’lim maktabida adabiy ta’limning vazifasi sifatida obraz-ramzdagi obrazlilik va mantiqiy tamoyillarni uyg‘unlashtirish;

– ramziy obrazlarni uyg‘unlashtirgan adabiy yo‘nalish modelini yaratish va uni faqat bir asar yoki janr darajasida emas, balki muayyan madaniy davrni belgilovchi badiiy uslub darajasida konseptual tushunish [4: 9].

Ayon bo‘ladiki, barcha ma’nolarining yagona obrazda uyg‘unlashuvidan asarning obraz-ramzi vujudga keladi, shu asosda asar tushunchasi quriladi. Natijada obrazli va mantiqiy tamoyillarning uyg‘unlashuvi orqali asar qurilishida obraz-ramzni tanlash va talqin qilish, obraz-ramzning metaforik tarzda ifodalangan ma’nolarini personajlar harakatining real ma’nolari va motivlariga o‘tkazish bosqichlari tashkil qilinadi. Badiiy asarni talqin qilishda obrazli va konseptual tamoyillarni uyg‘unlashtirish o‘quvchilar adabiy rivojlanishining turli bosqichlarida olib boriladi. Boshlang‘ich sinflarda bitta tasvirdagi majoziy va mantiqiy uyg‘un birikmaning propedevtikasi amalga oshiriladi, bu asarning ma’nosini tushunishni ta’minlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida obraz-timsolni tanlash va anglash adabiy ta’limning mustaqil vazifasiga, asar talqinini qurish asosiga aylanadi.

Obraz-ramzni idrok etish uslublari shu obrazga singdirilgan metaforalarning ma’nosini ochishga asoslanadi. O‘quvchilar tasvirning ma’nosini qoida tariqasida, og‘zaki tushuntirishga qiynaladi. Bu boshlang‘ich va o‘rta maktab o‘quvchilari uchun ham amal qiladi. Ma’noni ko‘rish uchun ular og‘zaki tasvirni boshqa belgilar tizimi – grafik yoki kinestetik tasvirga aylantiradigan oraliq bosqichga muhtoj. Axborotni qayta kodlashning bunday usuli ma’noni tushunishga olib keladi, tizimni boshqasiga qoldirib, o‘quvchilarning ko‘rish sohasini kengaytirishni ta’minlaydi. Bu J.Brunerning: "Ma’lumotni kodlash “nafaqat boshqasini keltirib chiqaradi”, balki mazkur qarash boshqa ma’noni anglash imkonini ham beradi” [2: 267] degan g‘oyasini tasdiqlaydi.

Majoziy va konseptual fikrlashni shakllantirish faqat muloqot tizimida sodir bo‘lishi mumkin. Binobarin, o‘qituvchining kommunikativligi, o‘zaro munosabatlardagi faolligi, shaxsiy munosabatni hamda o‘quvchilarining haqiqiy qadriyat yo‘nalishlarini shakllantirishini ta’minlaydi. Majoziy va konseptual tafakkurni rivojlantirish vazifasi faqat interaktiv ta’lim sharoitida olib boriladi. Avvalo, badiiy ongning ushbu tomonlarini birlashtirish tartibi o‘zi dialog bo‘lgani uchun, ikkinchidan, u faqat o‘quvchi va yozuvchi, o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot vaqtida amalga oshirilishi mumkin.

Badiiy asarlarda qahramon va muallif, kitobxon va qahramon suhbati o‘z ifodasini topadi. Adabiy jarayon hamisha yozuvchilar, adabiy oqimlar muloqotida, zamonlar va milliy madaniyatlar muloqotida rivojlanib boradi. Qahramonlar dialogi masalasiga adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning obrazli va konseptual tafakkurini rivojlantirish bosqichi sifatida qaraladi. Asardagi personajlar dialoglari tizimi juda xilma-xil shakllarda tuzilishi mumkin. Masalan, boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallangan asarlarda berilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri real dialoglardan tortib, umumiy badiiy yaxlitlikni tashkil etuvchi bitta muallifning turli asarlaridagi qahramonlar dialogiga qadar. Zamonaviy adabiy ta’lim standarti o‘qituvchi va metodistlarga turli darajadagi dialoglarni, shu jumladan, o‘quvchilarning majoziy va konseptual tafakkurni tushunish uchun turli yo‘llar bilan ko‘tarilishni tashkil qilish imkonini beradi. Demak, ongning har ikkala tomoni uyg‘unlashuvi o‘quvchi shaxsi rivojlanishi uchun tabiiy ravishda sodir bo‘ladi. Natijada bu ham bilimlarni, ham sharhlovchilik faoliyatining badiiy tajribasini majburlashlardan xoli egallashni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Беляева Н.В. Формирование читательского восприятия при изучении лирики в школе: теоретические основы и практика. Автореф. Дис… канд. пед. наук. – Москва, 1997. – 20 с.
2. Брунер Дж. Психология познания. – Москва: Прогресс, 1997. – 412 с.
3. Husanboyeva Q. P. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan. dok... diss. – Toshkent, 2006. – 262 b.
4. Маранцман Е.К. Методическая система развития образного и концептуального мышления школьников в процессе изучения литературных произведений. Дис… док. пед. наук. – Москва, 2005. – 457 с.
5. Mirqosimova M.M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari: Ped. fan. dok... diss. – Toshkent, 1995. – 253 b.
6. Молдавская Н.Д. Литературное развитие школьников в процессе обучения. – Москва: Посвещение, 1986. – 128 с.
7. Niyozmetova R.X. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganishning nazariy va metodik asoslari (rus guruhlari misolida): Ped. fan. dok... diss. – Toshkent, 2007. – 242 b.
8. Рыжкова И.В. Литературное развитие школьников в процессе диалога читателя и писателя: Автореф. дис… канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 1998. – 21 с.
9. Сигаева Т.Ф. Взаимодействие эмоционально-образного и логического начал в читательской деятельности пятиклассника. Дис… канд. пед. наук,1984. – 146 с.
10. Шамрей Л.В. Функциональные закономерности взаимодействия науки и искусства в школьном изучении литературы. Автореф. Дис… докт. пед. наук. – Санкт-Петербур, 1995. – 35 с.

Bobur TURDALIYEV,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti,
xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak chet til ta’limi bakalavrlariga og‘zaki nutqni o‘rgatish, shuningdek, haqiqiy videomateriallar bilan ishlash usullari va variantlari aks ettirilgan.
Kalit so‘zlar: chet til, o‘qitish metodikasi, pedagogik ta’lim, og‘zaki nutq, videomateriallar, tizimli yondashuv.
Annotation. The article presents the methods of teaching oral speech to future bachelors of foreign language education, and also shows the methods and options for working with real video materials.
Keywords: foreign language, teaching methods, pedagogical education, oral speech, video materials, systematic approach.
Аннотация. В статье представлены методы обучения устной речи будущих бакалавров иноязычного образования, а также приемы и варианты работы с реальными видеоматериалами.
Ключевые слова: иностранный язык, методика обучения, педагогическое образование, устная речь, видеоматериалы, системный подход.

Zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanishi iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning tobora ortib borayotgan globallashuvi sharoitida amalga oshiriladi, bu zamonaviy shaxsdan ma’lum ijtimoiy-madaniy va kommunikativ fazilatlarga ega bo‘lishni talab qiladi. Shu munosabat bilan ingliz tilini madaniyatlararo muloqotning muhim vositasi sifatida o‘qitish muammosi ayniqsa dolzarbdir. Madaniyatlararo muloqotga qodir shaxsni shakllantirish uchun nafaqat ingliz tilini o‘zlashtirish, balki uni o‘rganilayotgan til mamlakati madaniyati bilan ham tanishtirish kerak. Shularni inobatga olgan holda, chet til o‘qituvchisi oldida muhim vazifa – o‘rganilayotgan tilga qiziqishni uyg‘otish va qo‘llab-quvvatlash hamda uni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun turli texnologiyalardan foydalangan holda darslarni ishlab chiqish vazifasi turibdi.

Uzoq vaqt davomida muloqotni o‘rgatish chet tillarni o‘qitish metodining asosiy maqsadi hisoblangan. Biroq zamonaviy jamiyatda kommunikativ qobiliyatga ega bo‘lgan shaxs bo‘lish muhimroqdir. Bu tushuncha “muloqot” tushunchasidan biroz kengroq, chunki u nafaqat til birliklariga ega bo‘lish va ulardan nutqda malakali foydalanish qobiliyatini, balki mamlakat hayotining barcha sohalari va jabhalarini bilishni ham anglatadi [1: 44].

Inson chet tilni o‘rganar ekan, undagi nutq jarayonida ko‘p jihatlarga e’tibor berib, o‘zga tilda keng fikrlashni o‘rganadi, tinglash qobiliyatini rivojlantiradi, barcha nutq funksiyalarini o‘zlashtiradi va, albatta, atrofdagi dunyoni o‘rganadi.

Muloqot jarayoniga kommunikantning ijtimoiy mavqeyi, roli, dunyoqarashi va bilim darajasi kabi juda ko‘p omillar ta’sir ko‘rsatadi. Har qanday muloqot turining (monologik yoki dialogik) zamirida suhbatdoshlarni bir-biri bilan muloqot qilishga undaydigan aniq maqsad, o‘ziga xos motiv yotadi [2: 110].

Og‘zaki nutq faol, samarali faoliyat hisoblanadi, chunki ushbu uslubiy kategoriya orqali suhbatdosh o‘z nuqtayi nazarini ifodalaydi, mazmunli ma’lumotlarni yetkazadi, turli nutq funksiyalaridan foydalangan holda monologik yoki dialogik bayonotni quradi. Shu bilan bir qatorda, nutq tufayli inson tafakkuri rivojlanadi va til insonning aqliy qobiliyatlarini faollashtiradi, uning fikrlash jarayonlariga ijobiy ta’sir qiladi [3: 142].

Og‘zaki nutq axborot almashishga qaratilgan inson faoliyatining ma’lum bir turi sifatida quyidagicha bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi [4: 71]:

1. *Motivatsiya*. Inson o‘z fikrini bayon qilayotganida unda motivatsiya ug‘onadi. Umuman, muloqotga bo‘lgan ehtiyojni (inson ijtimoiy mavjudot bo‘lganligi sababli) kommunikativ motivatsiya deb atash mumkin va ma’lum bir vaziyatda nutq harakatini amalga oshirish zarurati tug‘ilganda lug‘at xususiyatlaridan foydalangan holda, nutq texnikasi – vaziyatli motivatsiyaga ehtiyoj tug‘iladi. Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, motivatsion tayyorgarlik kommunikatorlar o‘rtasidagi aloqani quradigan juda muhim omildir.

2. *Faoliyat*. Og‘zaki nutq faol jarayon bo‘lib, u nafaqat o‘z fikrlarini ifoda etish, balki suhbatdoshni tinglash qobiliyati, ya’ni ichki faoliyat deb ataladigan muhim omilni, eshitilgan muloqotga munosabat, uni baholash, idrok etishni anglatadi.

3. *Maqsadlilik*. Og‘zaki nutqni maqsadsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Ma’ruzachi har doim o‘ziga xos maqsadga ega bo‘lib, u muloqotga kirishadi, kerakli natijaga erishishga harakat qiladi. Shuningdek, muloqotchini ishontirish, takror savol so‘rash, tafsilotlarni aniqlashtirish, salbiy tomonlarni aniqlash, hamdardlik uyg‘otish, xavotirga solish kabi turlarni o‘zida namoyon qila olish muhim sanaladi.

4. *Shaxsiyat va munosabat*. Nutqda har bir shaxs

o‘zining subyektiv, individual fazilatlarini, qiziqishlari, ehtiyojlari, motivlari, ideallari, tajribasi, xarakteri va temperamentini aks ettiradi. Natijada insonning og‘zaki nutqi uning individualligi prizmasi orqali quriladi, shuning uchun u juda noyob va o‘ziga xosdir.

5. *Vaziyat*. Har qanday bayonot vaziyat bilan bog‘liq bo‘lishi kerak, kontekstda to‘qilgan, ma’ruzachi oldida turgan vazifaga to‘liq mos kelishi kerak, chunki vaziyatga bog‘liq bo‘lmagan bayonotlar suhbatdoshning javobiga sabab bo‘lmaydi, uni eshitgan mulohazalarini adekvat baholashga undamaydi [5].

Shunday qilib, to‘siqsiz, tabiiy muloqot o‘rganilgan tilni amaliyotda, real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatidan iborat. Buning uchun pedagoglar taqdim etilgan materialni tahlil qilish, uni tushunish va o‘z fikrini bayon qilish uchun shaxsiy tajribadan foydalanishni talab qiladigan vazifalarni tanlashi kerak [2: 110].

Ta’kidlash joizki, nutq faoliyatining ayrim turlarini o‘zlashtirish jarayonida, o‘quvchilarda zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda qo‘llaniladigan shart-sharoitlar chet til o‘qitish metodlarining asosiy kategoriyalaridan biridir. Ta’lim sharoitlari ularning xilma-xilligi va ko‘p qirraliligi bilan tavsiflanadi. Talabalar erishgan natija o‘qituvchi mashg‘ulot jarayonini samarali olib borishda hisobga oladigan shart-sharoitlarning umumiyligiga, shuningdek, ushbu shartlardan tegishli fanni zamonaviy o‘qitishning maqsad va vazifalari uchun adekvat va to‘g‘ri foydalanishiga bog‘liq.

Og‘zaki nutqni o‘rgatish jarayoni quyidagi bir qator muhim funksiyalardan iborat:

1) nutq ko‘nikmalarini shakllantirishning asosiy usuli – kelajakda muloqotning monologik va dialogik shaklini qurish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

2) talabalarni faol nutq faoliyatiga undash;

3) axborot, til va nutq materialini taqdim etish [6].

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan tashqari, holat prinsipini qo‘llashda vizualizatsiya muhim rol o‘ynaydi, uning yordamida talaba til muhitiga ko‘proq singib ketadi, muloqotga erkin, tez hamda oson kirishadi.

Og‘zaki nutq ko‘nikma va malakalarini shakllantirish jarayonida ikkinchi muhim omil bu – individuallashtirish. Pedagogikada bo‘lgani kabi metodikada ham ta’lim jarayoni muayyan o‘quvchining qobiliyati, individual imkoniyatlari, uning psixologik rivojlanish darajasini hisobga olish nuqtayi nazaridan qaraladi. Turli yoshdagi talabalarga qaratilgan tematik yo‘nalishdagi videomateriallarning katta tanlovi mavjudligi sababli o‘qituvchi o‘z ehtiyojlari va talabalarning xohish-istaklariga javob beradigan filmni tanlash imkoniyatiga ega. Shuningdek, mazkur videofilmlar fanning ish dasturiga mos kelishini alohida inobatga olish darkor [7: 23].

Chet tilda nutqni muvaffaqiyatli o‘rgatishning navbatdagi sharti nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. “Film bilan ishlashni tashkil etish o‘quvchilarning filmdagi qahramonlarning nutqiy xatti-harakatlarini nazariy tushunishiga, barcha darajadagi materialni o‘rganishga, jumladan, til birliklarini izohlash va idrok etish qobiliyatiga, so‘ngra qo‘llashga asoslanadi [7: 15].

Yuqorida qayd etilganlar bilan bog‘liq holda o‘quv materiallarini tanlash Instagram va Youtube tarmoqlaridagi haqiqiy filmlar, seriallar, blogerlarning jonli efirlaridan foydalanishga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Ushbu videomateriallar tabiiy nutqiy muloqot holatlarini yaratish, o‘quvchilarning nutq faolligini rag‘batlantirish, boshqa mamlakat hayoti haqidagi ma’lumotlarni vizual tarzda taqdim etish, ma’lum bir xalqning madaniyati va tiliga hurmatni oshirish, psixologik va lingvistik fazilatlarni rivojlantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в школе. – Москва: Просвещение, 1991.
2. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам. – Москва, 2003.
3. Гез Н.И. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. – Москва, 2011.
4. Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник для высших учебных заведений. – Москва, 2011.
5. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – Москва: Просвещение, 1991.
6. Петровский А.В. Психология. Словарь. – Москва, 1990.
7. Терехов И.В. Изучение речевого поведения носителей языка на материале современного британского кино. – Тамбов, 2011.

Ra’no ROZIKOVA,
Toshkent Xalqaro Vestminister universiteti o‘qituvchisi

CHET TILINI O‘QITISHDA LOYIHAVIY TA’LIM METODINING O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy o‘quv yurti talabalariga xorijiy tilni o‘qitishda loyihaviy ta’lim metodini qo‘llashning zarurati, amaliy imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu metodni qo‘llashga doir mavjud muammolar yoritilgan va muqobil yechimlar taklif etilgan.
Kalit so‘zlar: loyihaviy ta’lim metodi, oliy ta’lim, kasbiy kompetensiya, o‘qitish, o‘rganish.
Annotation. This article discusses the necessity and practical opportunities of using the project-based learning method in teaching foreign languages to students of higher educational institutions. Also, it highlights existing issues related to the use of this method and proposes alternative solutions.
Keywords: project-based learning method, higher education, professional competence, teaching, learning.
Аннотация. В данной статье рассматриваются необходимость и практические возможности использования метода проектного обучения при обучении иностранным языкам студентов высших учебных заведений. Также освещены существующие проблемы, связанные с использованием данного метода, и предложены альтернативные решения.
Ключевые слова: проектный метод обучения, высшее образование, профессиональная компетентность, преподавание, обучение.

Bugun jahon sivilizatsiyasi jadal o‘sib borayotgan bir vaqtda ilm-fan va ishlab chiqarishda integratsiyalashuv jarayonining tezkor rivojlanishi turli soha vakillarining chet tilda kasbiy muloqot yuritishlariga talab va ehtiyojni kuchaytirmoqda. Globallashuv natijasida yuzaga kelgan tezkor axborot-ma’lumotlar almashinuvi har bir sohada keskin innovatsion o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga, ilg‘or tajribalar ko‘lamining kengayishiga keng zamin yaratmoqda. Qaysi soha vakili bo‘lishidan qat’i nazar, bugunning mutaxassisi o‘z sohasi doirasida mukammal bilim, muayyan darajada tajriba egasi bo‘lish bilan bir qatorda xorijiy tillarni puxta bilishi, undan sohani takomillashtirish va kasbiy rivojlanish maqsadida foydalana olishi, bir so‘z bilan aytganda, muayyan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishi zaruratga aylandi.

Dunyoning yetakchi universitetlarida chet tillarni maxsus maqsadlarga yo‘naltirgan holda o‘qitish, mutaxassislarning chet tildagi kasbiy-sohaviy kommunikativ layoqatini rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jahon tajribasiga ko‘ra, bugun Yevropaning juda ko‘plab mamlakatlari oliy ta’lim maskanlarida ta’lim berish loyiha asosidagi ta’lim *(project-based learning)* yoki uning muqobil varianti bo‘lgan muammo asosidagi ta’lim, ya’ni muammoli o‘qitish *(problem-based learning)* metodiga asoslangan. Unga ko‘ra, talabalar kasb-hunar egallashgacha bo‘lgan vaqtda allaqachon asosiy va rivojlantiruvchi bilim, malaka va kompetensiyalarini turli loyiha ishlari misolida egallaydilar. Xususan, ushbu asrda zamonaviy dunyoni loyihalar harakatga keltirmoqda va radikal o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga ular kuchli turtki bo‘lmoqda. Shunday ekan, ta’limda loyihaga asoslangan o‘qitish va o‘rganish nafaqat talabalarning xorijiy tilni mukammal o‘rganishlariga, balki ertangi kasbiy faoliyatda jamoadoshlar bilan yirik va manfaatli loyiha ishlarida salmoqli ko‘nikmaga ega kadr sifatida faol bo‘lishlariga xizmat qiladi.

Loyiha asosida o‘qitish bilim oluvchiga yo‘naltirilgan pedagogika hisoblanib, unda o‘quvchilar loyiha yoki muammolar asnosida faol o‘rganish orqali yangi bilimlarni chuqur o‘zlashtiradilar. Loyihaviy ta’lim aniq faktlarni taqdim etuvchi yoki savol, muammo, ssenariyni tayyor berish orqali bilimga yo‘naltiradigan, faqat yozma topshiriqlarga asoslangan, yodlab olish orqali eslab qolinadigan yoki o‘qituvchi boshchiligidagi ko‘rsatmalarga mutlaq asoslangan ta’limdan butunlay farq qiladi. Loyihaviy ta’lim dinamik yondashuvni o‘z ichiga oladi [1]. Bunda talabalar uzoq muddat davomida ishlash va murakkab savol, qiyin vaziyat yoki muammoni tadqiq etish va ularga javob yoki yechimlar topish orqali fanni o‘rganadilar. U faol o‘rganish va so‘rov asosida o‘rganish uslubiga xos pedagogikadir. Ta’lim olamida loyihaviy ta’lim va uning “bajarish orqali o‘rganish” tamoyilini ilk bor ilgari surgan tarafdor sifatida Jon Dyui tan olinadi. 1897-yilda yozilgan “Mening pedagogik aqidam” *(My pedagogical creed)* kitobida Jon Dyui shunday g‘oyani ilgari suradi: “O‘qituvchi ta’lim maskanida o‘quvchilarga muayyan g‘oyalarni yoki odatlarni singdirib yoki shakllantirib qolmay, balki jamiyat a’zosi sifatida o‘quvchiga shunday ta’sir etuvchi muammoli vaziyatlarni tanlashi kerakki, toki o‘quvchi ongiga bu ta’sir qilsin va u bu vaziyatlarda qanday yo‘l tutishni bilsin”. Shu sababli u o‘zaro bog‘lanishli, ya’ni korrelatsiya markazi deb nomlangan ekspressiv va konstruktiv faoliyatlarni ilgari surdi.

O‘zbekiston misolida olib qarasak, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitishda loyihaviy ta’lim metodidan foydalanish darajasi salmoqli emasligi, ta’limda interfaol o‘qitish usullaridan foydalanish sur’ati so‘nggi yillarda o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, aynan loyihalash metodi yoki yondashuvidan amaliyotda foydalanish ko‘rsatkichi yuqori emasligi ushbu metodning oliy ta’lim kontekstida qo‘llanilish tamoyillar-

ini chuqurroq tahlil etish, uning nazariy va amaliy asoslarini, imkoniyatlarini, kelgusi istiqbollarini tadqiq etish, uni amalda qo‘llash mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqotchi Azer ta’kidlashicha (2008), dunyo ilmiyotida ushbu metodning samaradorligi ko‘plab manbalarda yoritilgan bo‘lsa-da, uning amaliy ahamiyati ixtisoslashgan kontekstlarda yetarlicha tadqiq etilmaganligi hanuzgacha undan til o‘qitishda yetarlicha foydalanilmaslikka olib kelmoqda [2]. Olimlar ba’zi omillarni loyiha metodidan ta’lim berishda, xususan, uni til o‘qitishda sust qo‘llashlikning yoki umuman qo‘llamaslikning sabablari deb keltiradilar. Bular: vaqtga oid cheklovlar, ishlab chiqilgan loyihaning ta’lim olish maqsadlarining autentikligi bilan bog‘liqlik holati, o‘qituvchining roli va baholashning sifati kabilardir [3: 4]. Kengroq yoritib ifoda etilganda: loyiha metodi asnosida ishlab chiqilgan o‘quv mashg‘uloti yoki baholash uchun tuzilgan topshiriq turi bir haftadan bir necha oygacha davom etishi mumkin, ya’ni ko‘p vaqt talab etiladi; ishlab chiqilgan loyiha va ta’lim maqsadlari autentiklik nuqtayi nazaridan mutanosib bo‘lmay qolishi mumkin; talabalar mustaqil o‘qib-izlanib tayyorlaydigan loyiha ishida o‘qituvchi aynan qaysi rolda bo‘lishini va qanday nazorat qilishini aniq bila olmasligi va loyihaviy ta’limga asoslangan imtihon topshiriqlarini to‘g‘ri tuzish va to‘g‘ri baholash mezonlarini yetarli darajada yo‘lga qo‘ya olmasligi mumkin.

Ushbu oddiy bo‘lmagan loyiha metodini oliy ta’lim kontekstida qo‘llash uchun dastavval o‘qituvchilarning metodik, psixologik va lingvistik salohiyatini oshirish kerak. Agar loyihaviy ta’lim yondashuvini baholay olishga xorijiy til o‘qituvchisining to‘liq ishonchi komil bo‘lmasa, bu kabi metodni keng joriy qilish uchun uning lingvistik layoqati yetarli bo‘lmasa, u talabalar o‘rtasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan guruhiy nomutanosibliklarning oldini olish choralarini ishlab chiqmasa, qolaversa, loyiha ishi jarayoni va mezonlari haqida talabalarda tushunchalar to‘liq bo‘lmasa, loyihaviy ta’limni keng joriy etish imkoniyatlari kamayadi va bu amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tilni to‘liq o‘rganish uchun katta to‘siqqa aylanadi. Ushbu metodning amaliy imkoniyatlari va afzalliklarini to‘liq bilish til o‘qitish va o‘rganish jarayoni yanada mazmunli tashkil etilishiga va til o‘qitishdagi ustuvor maqsadlarga erishishga sabab bo‘ladi. Xususan, loyiha metodini qo‘llash vositasida til o‘qitish talabalarda bir qancha ko‘nikmalar, ya’ni tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, mustaqil va ijodiy fikrlash, jamoadoshlarini ruhlantira olish, yetakchilik qilish, tadqiqotlar yurita olish, muloqot qila olish, ommaviy nutq so‘zlash va boshqa xususiyatlar shakllanishi va rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, quyidagi tavsiyalar loyihaviy ta’lim metodini chet tilni o‘qitishda samarali qo‘llash va yuqorida qayd etilgan ehtimoliy muammolarni bartaraf etish uchun katta yordam beradi:

Loyihani boshqariladigan bosqichlarga ajratish va har bir bosqich uchun aniq vaqt jadvallarini belgilash kerak. Talabalarga loyiha vaqt jadvalini taqdim etib, ularga vaqtni qanday qilib samarali rejalashtirish va taqsimlash bo‘yicha yo‘l-yo‘riq berish, talabalar to‘g‘ri yo‘lda ekanligiga ishonch hosil qilish uchun muntazam ravishda ular bilan muloqotda bo‘lish va, zarur bo‘lganda, yordam berish kerak.

Tilni bilish darajasini hisobga olgan holda talabalarni strategik guruhlarga ajratish, har bir talabaning kuchli tomonlarini nazardan qochirmay guruhlar ichida rollarni tayinlash, talabalarning tengdoshlar bilan hamkorliklarini rag‘batlantirish va ular bir-biridan o‘rganishlari uchun imkoniyatlar yaratish kerak.

Loyihadan kutilayotgan o‘quv maqsadi va baholash mezonlarini boshidan aniq belgilash lozim. Loyiha maqsadlariga mos keladigan ruknlar ishlab chiqish va talabalarning dinamik faoliyatini baholovchi tavsiyalar berish maqsadga muvofiq. Talabalar ishini baholashda jarayonni ham, yakuniy natijani ham hisobga olish kerak.

Loyiha davomida tildan autentik foydalanish imkoniyatlarini yaratish, talabalarni chet tilda muloqot, hamkorlik va taqdimot qilishga undash zarur. Zarurat tug‘ilganda loyiha uchun kerak bo‘lgan maxsus til ko‘nikmalariga qaratilgan faoliyatni qo‘shish kerak. Talabalarni xorijiy tildan autentik foydalanishga imkon beruvchi video, maqola yoki intervyu kabi autentik materiallarni o‘zaro birlashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, loyihaviy ta’lim dunyoning yetakchi universitetlari tomonidan ta’lim amaliyotida keng foydalanilayotgan metod sifatida xorijiy til o‘qitishda nafaqat til ko‘nikmasi, balki XXI asr ko‘nikmalari deb e’tirof etilayotgan bir qancha zaruriy ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsadida yurtimiz o‘quv yurtlarida samarali qo‘llanilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nguyen T.V. Project-based learning in teaching English as a foreign language // VNU Journal of Science, Foreign Languages, 2011, 27(2), 140–146.
2. Azer S. Navigating problem-based learning. – Elsevier Australia, 2008.
3. Srikrai P.S. Project-based learning in an EFL classroom // Journal of Humanities and Social Sciences. Khon Kean University, 2008, 25, 85–111.
4. Problem-based language learning: Why aren’t teachers using it? Available from: https://www.researchgate.net/publication/374054209_Problem-based_language_learning_Why_Aren’t_teachers_using_it

Xadicha MUHITDINOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori

O‘ZBEK TILIDAN BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARNI BAHOLASH MEZONLARI

Annotatsiya. Maqolada maktab o‘quvchilarining o‘zbek tilidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirish usullari haqida fikr bildirilgan, o‘quv yili davomida ularni baholash mezonlari to‘liq tahlil qilingan hamda bu borada tavsiyalar berilgan.
Kalit so‘zlar: bilim, ko‘nikma, malaka, spetsifik nutq.
Annotation. The article examines the term “system” within the framework of science, using examples to reveal the meaning and nature of the systematic approach in the analysis of works. The distinction between empirical and rational knowledge is also clarified.
Keywords: system, rational knowledge, empirical knowledge.
Аннотация. В статье рассматривается термин “система” в рамках науки, на примерах раскрывается значение и характер системного подхода при анализе произведений. Также уточняется различие между, эмпирическим и рациональным знанием.
Ключевые слова: система, рациональное знание, эмпирическое знание.

Ma’lumki, ta’lim jarayoni bilim berishdan iborat bo‘lib, bilimlarning egallanganlik darajasi ularni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasi va mustaqil faoliyat yuritish jarayonida erkin ishlata olish malakasiga ko‘ra baholanadi. Til ta’limida bu nutqning o‘sish darajasi, nutqni amaliy qo‘llash ko‘nikmalari va erkin so‘zlay olish malakalariga ko‘ra aniqlanadi. Nutqni o‘stirish nutqiy faoliyatning so‘zlash, o‘qish, nutqni tinglab tushunish, fikrni yozma ifodalashni o‘rgatish asosida amalga oshiriladi. Nutqiy faoliyat turlarining o‘ziga xos mezonlari mavjud bo‘lib, jumladan, fikrni og‘zaki bayon qilishga o‘rgatishda quyidagilar e’tiborga olinadi:

– o‘quvchilarning so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlari, yanada ravonroq gapirishlarini ta’minlash;

– so‘zlash paytida tez yodga keladigan leksik va grammatik vositalar boyligini izchil oshirib borish;

– rejali suratda mustaqil ravishda tuziladigan gaplarning sintaktik-sinonimik variantlarini kengaytirib borish;

– og‘zaki hikoyalashda fikrni monologik shaklda bog‘lanishli izchil bayon qilishning asta-sekin murakkablashib borishini ta’minlash;

– dialogik va polilogik suhbatlarda so‘zlashuvchilarning kommunikativ layoqat darajasi ortib borishiga erishish.

O‘quvchilarning so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga erishishda, birinchi navbatda, o‘zbek tilidagi nutq tovushlari talaffuzini puxta o‘rgatish, o‘zbek tilidagi rus tilidan qisman farqli yoki o‘zbek tiliga xos tovushlar, so‘z va so‘z shakllarini nutq oqimida to‘g‘ri talaffuz qilish, ayrim orfoepiya qoidalariga avtomatik tarzda rioya etish talab etiladi. Gapirishdagi ravonlik esa gapda so‘zlarni sintagmalarga to‘g‘ri birlashtira olish, bir sintagmaga kiruvchi so‘zlarni ular orasida to‘xtam qilmagan holda bir so‘zday ayta bilish orqali ta’minlanadi, shu gapirish sur’ati til egalarining gapirish sur’atiga yaqinlashtiriladi. So‘zlashdagi ifodalilik gaplar orqali ifoda maqsadlarini tegishli ohang yordamida bildirish mashqlarini taqozo etadi.

R.Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, na nutqni tinglab tushunish, na matnni o‘qish va na fikrni yozma ifodalash davlat tilini o‘rganish yo‘lida gapirishni o‘rganishchalik ko‘p mashq qilishni talab etmaydi. Chunki ravon so‘zlash uchun nutqiy mashqlarning uzluksizligi va mo‘l-ko‘lligini ta’minlagan holda tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘zni tez eslash, to‘g‘ri tanlash, uni grammatik vositalar bilan shakllantirish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, oxir-oqibatda o‘quvchining so‘zlash ko‘nikmalarini ushbu jarayonda faqat fikr ifodalash haqidagina o‘ylaydigan darajaga yetkazish kerak. Og‘zaki nutq o‘stirish mashqlariga qancha ko‘p vaqt ajratilsa, og‘zaki nutqiy ko‘nikma va malakalar sifati shuncha yuqorilashadi. Yashash joyida qo‘ni-qo‘shnilari, o‘rtoqlari bilan muloqot orqali o‘zbek tilida gaplashishni o‘rganib olgan rus bolalarining nutqi sifat jihatdan yanada yaxshilanadi [1: 14–15].

Nutqiy malaka nutqiy harakatlarni ongli ravishda boshqara olish qobiliyati bo‘lib, u nutq faoliyatining yuqori darajasi hisoblanadi. Nutq faoliyatining har bir turi bo‘yicha ko‘nikmalarning shakllanganlik va malakasining o‘sish darajalarini aniqlash har bir yo‘nalish bo‘yicha parametrlarni belgilab chiqish va shular asosida baholash mezonlarini ishlab chiqishni talab etadi [2: 3–13].

Yozuvni shakllantirish va yozma nutqni o‘stirish odatda quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borishni taqozo qiladi:

1) harflarni yozishni o‘rgatish;

2) so‘z va qo‘shimchalarni to‘g‘ri yozish uchun imlo qoidalarini o‘zlashtirish;

3) ta’limiy va nazorat yozma ishlari (diktant, savollarga javob berish, bayon, insho)ni o‘tkazish;

3) matn tuzishni o‘rgatish.

Biroq ushbu parametrlar umumiy bo‘lib, yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ularning har biri ustida yana quyidagi ishlarni olib borish talab etiladi:

1. Harflarni yozish bo‘yicha:

– harflarning katta va kichik shakllarini to‘g‘ri yozish;
– diakritik elementlarni o‘z o‘rnida qo‘llab yozish;
– harflarni husnixat talablari asosida yozish;
– chet tillardagi harflar bilan almashtirmay yozish...

2. Imlo qoidalarini o‘zlashtirish bo‘yicha:

– bo‘g‘inga ajratish va bo‘g‘in ko‘chirishni bilish;
– so‘zlar va so‘z shakllarini to‘g‘ri yozish;
– so‘zlardagi tovush o‘zgarishlarini imlo qoidalari asosida yozish;
– tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay olish;
– so‘zlarga qo‘shimchalarni to‘g‘ri qo‘shib yozish;
– atoqli va qisqartma otlarni imlo qoidalari asosida yozish;
– so‘zlarni ajratib va qo‘shib yozishni bilish.

3. Diktant, bayon, insho yozish bo‘yicha:

– o‘qilgan matnni bexato va husnixat talabalari asosida yozish;
– tinish belgilari va bo‘g‘in ko‘chirish qoidalarini to‘g‘ri qo‘llash;
– ajratib va qo‘shib yoziladigan so‘zlar, juft so‘zlar, atoqli otlarni imlo qoidalari asosida yozish;
– so‘zlar va harflarni husnixat talablari asosida yozish;
– atoqli va qisqartma otlarni imlo qoidalari asosida yozish;
– matn mazmunini mavzu asosida to‘g‘ri bayon qila olish;
– matn tarkibidagi gaplarni mantiqli va izchil bog‘lay olish;
– matnda mavzuga ijodiy yondasha olish va adabiy materiallardan o‘rinli foydalanish;
– matnni savodxonlik va husnixat talablari asosida tuza olish.

4. Matn tuzish bo‘yicha:

– terma gaplardan bog‘lanishli matn tuza olish;
– berilgan tasvir, rasm, mavzu asosida matn tuza olish;
– matn tarkibidagi gaplarni o‘zaro uzviylikda bog‘lay olish;
– matn qismlarini izchillikda va mantiqiy bog‘liqlikda joylashtira olish;
– matndagi asosiy fikrni qo‘shimcha ma’lumotlar bilan to‘ldira olish;
– matnni qisqartirish, kengaytirish, xulosalashni bilish;
– matnga sarlavha qo‘yish, reja tuzish.

5. Matnni tarjima qilish.

Diktant, bayon, insho yozish va matn yaratish yozma nutqni baholashning keng tarqalgan eng samarali usuli bo‘lib, ular barcha ta’lim bosqichlarida (faqat hajm jihatidan farqlangan holda) joriy, oraliq va yakuniy baholash jarayonida nazorat turi sifatida qo‘llanishi mumkin.

Diktant yozma nutqni va egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarni nazorat qilishning eng oson va tezkor usuli hisoblanadi, shuning uchun odatda yakuniy nazorat sifatida ham o‘tkaziladi. Shu bois uni baholashda bir qancha umumiy qoidalarga rioya qilinishi talab etiladi. Bizningcha, diktantni baholashda quyidagicha mezon belgilanishi maqsadga muvofiq:

DIKTANTNI BAHOLASH MEZONLARI

T/r	Bilim, ko‘nikma, malakalar bo‘yicha egallangan kompetensiyalar	Baholash	
		Yuqori daraja	Quyi daraja
1.	Mutlaqo xatosiz va husnixat talablari asosida yozilgan, bitta tinish belgida xatosi bo‘lsa	5	
2.	Husnixat talablari asosida yozilgan va bitta tinish belgida xatosi bo‘lsa		5-
3.	Bitta imlo va bitta tinish belgida xatosi bo‘lsa	4	
4.	Imlo xato bitta va tinish belgida ikkita xatosi bo‘lsa		4-
5.	Ikkita imlo hamda ikki yoki uchta tinish belgida xatosi bo‘lsa (bunda imlo xatolar soni ikkitadan oshmasligi kerak)	3	
6.	Uchta imlo va uchta tinish belgida xatosi bo‘lsa		3-
7.	Imlo va tinish belgilarida to‘rttagacha xatosi bo‘lsa	2	
8.	Imlo va tinish belgilarida sakkiztagacha xatosi bo‘lsa		2-

Bayon, insho va yaratilgan matnni baholash mezonlari

T/r	Bilim, ko‘nikma, malakalar bo‘yicha egallangan kompetensiyalar	Baholash	
		Yuqori daraja	Quyi daraja
1.	Matn mazmuni mavzu asosida to‘g‘ri bayon qilingan, mantiqli va izchil, so‘z boyligi, ifoda qurilishi va uslubi adabiy til talablariga mos, mavzuga ijodiy yondashilgan, matnda adabiy materiallardan o‘rinli foydalanilgan, savodxonlikda qo‘pol bo‘lmagan bitta imlo va ikkita tinish belgida xato bo‘lsa, uslubiy xato bo‘lmasa hamda husnixat talablari asosida yozilgan bo‘lsa	5	

2.	Fikr bayonida izchillik ta’minlangan, husnixat talablari asosida yozilgan, biroq so‘z tanlash va ifoda qurilishida qisman har xillik bo‘lsa, matnda adabiy materiallardan foydalangan, savodxonlikda ikkita imlo, ikkita tinish belgi va ikkita uslubiy xato bo‘lsa		5-
3.	Husnixat talablari asosida yozilgan, biroq fikr bayonida izchillik biroz yetishmasa, so‘z tanlash va ifoda qurilishida har xillik, mustaqil va ijodiy fikrlashda biroz kamchiliklar kuzatilsa, adabiy materiallardan qisman foydalangan bo‘lsa, savodxonlikda to‘rtta imlo, to‘rtta tinish belgi va uchta uslubiy xato bo‘lsa	4	
4.	Mavzuni yoritishda ijodkorlik yetarli bo‘lmasa, voqealar izohida mantiqiylik, izchillik bo‘lsa, so‘z boyligi, matnda adabiy materiallar o‘rinsiz qo‘llangan bo‘lsa; savodxonlikda beshta imlo, beshta tinish belgi, uchta uslubiy xatoga yo‘l qo‘yilgan va husnixat talablari qisman buzilgan bo‘lsa		4-
5.	Fikr bayoni va qurilishida izchillik yetishmasa, so‘z boyligi yetarli bo‘lmasa, takror fikrlar bo‘lsa, matnda adabiy materiallardan yetarli foydalanilmagan; savodxonlikda husnixat talablari qisman buzilgan, yettita imlo, yettita tinish belgi, to‘rtta uslubiy xatoga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa	3	
6.	Fikr bayoni va qurilishida buzilishlar bo‘lsa, fikrlar bir-biriga bog‘lanmasa, so‘z boyligi qashshoq, matnda adabiy materiallardan foydalanilmagan, savodxonlikda husnixat talablari buzilgan, sakkizta imlo, sakkizta tinish belgi, beshta uslubiy xatoga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa		3-
7.	Fikr bayoni va qurilishida izchillik ta’minlanmagan, takrorlar, g‘aliz fikrlar uchrasa, matnda adabiy materiallardan foydalanilmagan, so‘z boyligida nuqsonlar kuzatilsa; savodxonlikda to‘qqizta imlo, to‘qqizta tinish belgi, oltita uslubiy xatoga yo‘l qo‘yilgan, husnixat talablariga rioya qilinmagan bo‘lsa	2	
8.	Fikr bayoni va qurilishida qo‘pol buzilishlar bo‘lsa, fikrlar bir-biriga bog‘lanmasa, matnda adabiy materiallardan umuman foydalanilmagan, matn yakunlanmagan bo‘lsa; savodxonlikda o‘nta imlo, o‘nta tinish belgi, yettita uslubiy xatoga yo‘l qo‘yilgan, husnixat talablari asosida yozilmagan bo‘lsa		2- (1)

Izoh: Ba’zan o‘quvchining yozma ishidagi xatolar miqdori yuqoridagi mezonga mos kelmasligi mumkin. Bunday hollarda ikkita ishoraviy xatoni bitta imlo xato o‘rnida, ikki yoki uchta imlo xatoni bitta uslubiy xato sifatida baholash mumkin. Xatolarning (uslubiy, imlo, ishoraviy) har birining soni jami o‘ntadan oshsa, o‘quvchiga 1 baho qo‘yiladi.

Yozish kompetensiyasini shakllantirib va rivojlantirib borish uchun yakuniy yozma ishlardan so‘ng, albatta, xatolar ustida ishlash darslarini tashkil etish va har bir o‘quvchiga qilgan xatolarining to‘g‘ri shaklini ish daftariga kamida 5–10 martadan ko‘chirtirish maqsadli bo‘ladi. Shuningdek, choraklar oralig‘ida, albatta, lug‘at diktanti, saylanma diktant, izohli diktant kabi ta’limiy diktantlar o‘tkazib turish, yozma ishlarda so‘zlarni qisqartirib yozish, harflarni chap tomonga yonboshlatib o‘zi xohlaganidek yozishga mutlaqo ruxsat bermaslik kerak.

Ko‘rinadiki, bugungi kungacha rusiyzabon o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi yozma nutqigina baholab kelingan. Og‘zaki so‘zlashuv nutqi, o‘qish va tinglab tushunish ko‘nikmalarini baholash mezonlari ishlab chiqilmagan. Ta’limda natijaviylikni aniqlash uchun har bir sinfda o‘quvchilarning tinglab tushunish, gapirish, o‘qish ko‘nikmalarini ham alohida baholab borish zarur. Quyida tinglab tushunish, gapirish va o‘qish bo‘yicha o‘quvchilar egallagan ko‘nikmalarni baholash mezonlarini tavsiya etamiz.

1. Tinglab tushunish bo‘yicha o‘quvchilar egallashi kerak bo‘lgan ko‘nikmalar:

– spetsifik nutq tovushlari va so‘zlarni eshitilganidek talaffuz qilish;

– aytilgan so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini tushunish;

– eshittirilgan axborot, gap, matn mazmunini tushunish;

– berilgan savol va javoblar mazmunini tushunish;

– tinglangan voqea sujetini tushunish.

Tinglab tushunish ko‘nikmasini baholash mezonlari

T/r	Bilim, ko‘nikma, malakalar bo‘yicha egallangan kompetensiyalar	Baholash	
		Yuqori daraja	Quyi daraja
1.	Eshittirilgan axborot, gap yoki matn mazmuni, so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini, tinglangan voqea sujeti, dialog va polilogik suhbatlar mazmunini to‘liq tushunsa	5	
2.	Eshittirilgan axborot, gap yoki matn mazmuni, so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosi, tinglangan voqea sujeti, dialog va polilogik suhbatlarning asosiy mazmunini tushunsa		5-

3.	Eshittirilgan axborot, gap yoki matn mazmuni, so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosi, tinglangan voqea sujeti, dialog va polilogik suhbatlarning umumiy mazmunini tushunsa	4	
4.	Eshittirilgan axborot, gap yoki matnning asosiy mazmuni, so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosi, tinglangan voqea sujeti, dialog va polilogik suhbatlar mazmunini qisman tushunsa		4-
5.	Eshittirilgan axborot, gap yoki matnning umumiy mazmunini, so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini tushunsa, biroq tinglangan voqea sujeti, dialog va polilogik suhbatlar mazmunini yaxshi tushunmasa	3	
6.	Eshittirilgan axborot, gap yoki matnning mazmunini yaxshi tushunmasa, so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini tushunsa, biroq tinglangan voqea sujeti, dialog va polilogik suhbatlar mazmunini yaxshi tushunmasa		3-
7.	Eshittirilgan axborot, gap yoki matnning mazmunini tushunmasa, so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini tushunsa, biroq tinglangan voqea sujeti, dialog va polilogik suhbatlar mazmunini tushunmasa	2	
8.	Eshittirilgan axborot, gap yoki matnning mazmunini ham, so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini ham, tinglangan voqea sujeti, dialog va polilogik suhbatlar mazmunini ham umuman tushunmasa		2- (1)

2. Gapirish bo‘yicha o‘quvchilar egallashi kerak bo‘lgan ko‘nikmalar:

– o‘rganilgan so‘zlar, grammatik shakllar va iboralarni gap tarkibida to‘g‘ri qo‘llay olish;

– so‘zlarni ortiqcha to‘xtamlarsiz erkin bog‘lab gapirish;

– berilgan savollarga mos javob bera olish;

– matn mazmuni bo‘yicha savol-javob qila olish;

– dialoglarga qo‘shilish va suhbatni davom ettira olish;

– matnni davom ettirish, unga munosabat bildira olish;

– matn shaxsini yoki zamonini o‘zgartirib so‘zlab bera olish;

– matn mazmunini qisqartirib yoki kengaytirib so‘zlab bera olish;

– matnni xulosalay olish;

– matnga sarlavha qo‘yish yoki sarlavha asosida matn tuza olish;

– matn qismlarini bir-biriga bog‘lay olish;

– berilgan gaplarni izchillikda joylashtirib, bog‘lanishli matn tuza olish;

– matnni o‘z so‘zlari bilan hikoya qilib bera olish;

– berilgan tasvir, rasm, mavzu asosida matn tuza olish;

– mavzuni izchil, mantiqiy bog‘liq bayon qila olish.

Gapirish ko‘nikmasini baholash mezonlari

T/r	Bilim, ko‘nikma, malakalar bo‘yicha egallangan kompetensiyalar	Baholash	
		Yuqori daraja	Quyi daraja
1	Gapirish jarayonida orfoepik me’yorlar, tovush o‘zgarishlariga to‘liq rioya qilsa, so‘zlarni qo‘llashda tavtologiyaga yo‘l qo‘ymasa, jumlalarni to‘xtamlarsiz erkin bog‘lab gapirsa	5	
2	Gap tarkibidagi so‘zlar va o‘ziga xos nutq tovushlarini orfoepik me’yorlar asosida to‘g‘ri talaffuz qilsa, so‘zlarni ortiqcha tavtologiyasiz va to‘xtamlarsiz erkin bog‘lab gapirsa		5-
3.	Gapirish jarayonida orfoepik me’yorlar qisman buzilsa, so‘zlarni qo‘llashda ayrim tavtologik xatolarga, jumlalarni bog‘lashda ham ortiqcha to‘xtamlarga yo‘l qo‘ysa	4	
4.	Gapirish jarayonida gap tarkibidagi so‘zlar va o‘ziga xos nutq tovushlari talaffuzida xatolarga yo‘l qo‘ysa, so‘zlarni qo‘llashda ayrim tavtologik xatolar, jumlalarni bog‘lashda ham ortiqcha to‘xtamlar mavjud bo‘lsa		4-
5.	Gapirish jarayonida o‘ziga xos nutq tovushlari talaffuzida, tovush o‘zgarishlarida xatolar ko‘p uchrasa, so‘z boyligi yetishmasligi tufayli tavtologik xatolar hamda jumlalarni bog‘lashda ham ortiqcha to‘xtamlar ko‘p bo‘lsa	3	

6.	Gapirish jarayonida orfoepik talaffuz me'yorlarini qo'pol ravishda buzsa, o'ziga xos nutq tovushlari, tovush o'zgarishlari talaffuzida xatolarga yo'l qo'ysa, so'z boyligi qashshoq, tavtologik xatolar, jumlalarni bog'lashda ham to'xtamlar ko'p bo'lsa		3-
7.	O'zbek tilida orfoepik talaffuz me'yorlariga rioya qilmasa, o'ziga xos nutq tovushlari, tovush o'zgarishlari talaffuzini qo'pol ravishda buzsa, so'z boyligi qashshoq bo'lsa, jumlalarni bog'lay olmasa	2	
8.	O'zbek tili orfoepik talaffuz me'yorlari, o'ziga xos nutq tovushlari talaffuzini bilmasa, so'z boyligi qashshoq bo'lsa, jumlalarni bog'lay olmasa		2- (1)

3. O'qish bo'yicha o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan ko'nikmalar:

– so'zlarni spetsifik nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilgan holda o'qiy olish;

– so'zlarni urg'uni to'g'ri qo'ygan holda o'qiy olish;

– so'zlardagi orfoepik tovush o'zgarishlarini bilish va to'g'ri o'qish;

– gaplarni sintagmalarga to'g'ri ajratgan holda o'qiy olish;

– gaplar urg'usi va ohangini bilish va mos shaklda o'qiy olish;

– dialogni rolli o'qiy olish;

– poliloglarda 3-shaxs sifatida ishtirok eta olish;

– she'rni ifodali o'qiy olish;

– matnni o'rnatilgan vaqt tezligida o'qiy olish va h.k. [3: 375–378]

O'qish ko'nikmasini baholash mezonlari

T/r	Bilim, ko'nikma, malakalar bo'yicha egallangan kompetensiyalar	Baholash	
		Yuqori daraja	Quyi daraja
1.	So'zlardagi spetsifik nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilib, urg'uni to'g'ri qo'yib, orfoepik tovush o'zgarishlarini to'g'ri anglab va gaplarni sintagmalarga to'g'ri ajratib o'qisa, matnni o'rnatilgan vaqt tezligida va ifodali o'qisa	5	
2.	So'zlardagi spetsifik nutq tovushlari, orfoepik tovush o'zgarishlarini to'g'ri talaffuz qilsa va urg'uni to'g'ri qo'yib, yetarli tezlikda ifodali o'qisa, biroq gaplarni sintagmalarga ajratishda bir-ikki joyda xatoga yo'l qo'ysa		5-
3.	So'zlardagi spetsifik nutq tovushlari, orfoepik tovush o'zgarishlarini to'g'ri talaffuz qilsa va urg'uni to'g'ri qo'yib ifodali o'qisa, biroq gaplarni sintagmalarga ajratishda xatolarga yo'l qo'ysa	4	
4.	So'zlardagi spetsifik nutq tovushlari, orfoepik tovush o'zgarishlarini to'g'ri talaffuz qilsa, biroq urg'uni to'g'ri qo'yib ifodali o'qish va gaplarni sintagmalarga ajratishda xatolarga yo'l qo'ysa		4-
5.	So'zlardagi spetsifik nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilsa, biroq tovush o'zgarishlarida orfoepik qoidalarga to'liq rioya qilmasa, urg'uni to'g'ri qo'yib ifodali o'qish va gaplarni sintagmalarga ajratishda xatolarga yo'l qo'ysa	3	
6.	So'zlardagi spetsifik nutq tovushlari talaffuzida xatolarga yo'l qo'ysa, tovush o'zgarishlaridagi orfoepik qoidalarga rioya qilmasa, urg'uni to'g'ri qo'yib ifodali o'qish va gaplarni sintagmalarga ajratishda xatolari ko'p bo'lsa		3-
7.	So'zlardagi spetsifik nutq tovushlarining talaffuzi, tovush o'zgarishlarining orfoepik qoidalarini yaxshi bilmasa, urg'uni qo'yish, gaplarni sintagmalarga ajratishda xatolari ko'p bo'lsa, matnni ifodali o'qiy olmasa	2	
8.	So'zlardagi spetsifik nutq tovushlarini talaffuz qila olmasa, tovush o'zgarishlarining orfoepik qoidalarini bilmasa, urg'ularni to'g'ri qo'ymasa, gaplarni sintagmalarga ajrata bilmasa va matnni o'qiy olmasa		2-

Ushbu mezonlar asosida baholashni tashkil etish o'qituvchiga har bir o'quvchidagi til ko'nikmalarining o'sib borish darajasini to'liq tahlil qilish, muayyan vaqtdan keyin bo'lgan o'zgarishlarni aniqlash, qaysi ko'nikmaning qaysi parametrlari ustida ishlashni kuchaytirish kerakligini rejalashtirish imkonini beradi. Buning uchun o'qituvchi har bir sinf uchun har bir o'quvchiga alohida sahifa ajratiladigan alohida qayd varaqalarini (daftari

yoki elektron jurnal bo‘lishi ham mumkin) yuritishi va har bir mavzuda o‘quvchini egallagan til ko‘nikmalari bo‘yicha baholab borishi kerak. Qayd daftarini quyidagicha sahifalash mumkin:

“O‘zbek tili” fanidan 8-“A” sinfi uchun o‘quvchilar BKMlarini aniqlash varaqasi

O‘qituvchi: _____

O‘quvchining ismi, familiyasi	Mavzu va sana	Tinglab tushunish	Gapirish	Yozish	O‘qish	Lisoniy bilimi	Umumiy
Mirzayev Bahodir	Hosil bayrami	3	4-	4	5	4	4

Til ko‘nikmalarini nutq faoliyati turlari bo‘yicha baholashni tashkil etish uchun barcha fanlar uchun odatdagidek umumiy sinf jurnali emas, balki har bir sinfda o‘qitiladigan fanlar uchun alohida fan jurnalini yuritish taqozo etiladi. Unda har bir o‘quvchi uchun ayrim sahifa ajratilishi, yil boshidan yil oxirigacha mavzular kesimida o‘quvchi egallagan bilim, ko‘nikmalar alohida-alohida baholab borilishi tavsiya qilinadi. Baholashning bunday shakli o‘quvchilar tomonidan egallangan ko‘nikmalarni mavzular kesimida aniq yoritib borish imkonini berib, ayni vaqtda, o‘qituvchi uchun o‘quvchining bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishning keyingi bosqichlarida qaysi jihatlarga e’tibor berish zaruratini ko‘rsatib turuvchi daliliy yo‘riqnoma vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev R.A. Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tili metodikasi. – Toshkent: O‘zPFTI, 2015.
2. Muxitdinova X.S. “O‘zbek tili” fanidan yuqori sinf o‘quvchilarida shakllantiriladigan kompetensiyalar va ularni baholash me’yorlari / O‘zDJTU “Istiqlol va til” to‘plami (11-qism). – Toshkent, 2018.
3. Мухитдинова Х.С. Формирование навыков правильного чтения при обучении второму языку (на примере узбекского языка) / Материалы международной научно-практической конференции “Актуальные проблемы филологии и лингводидактики”, 29 октября 2020 г. – Душанбе, 2020.
4. Nari Kim. Assessment in Online Distance Education: A Comparison of three online Programs at a University / J. General and Professional Education. №9. – USA, 2008. 373 p.
5. Strategies for improving the imaginative and creative competence of students in secondary schools / J. European Centre for Research Training and Development. №5. UK, 2017. 124 p. (www.ea-journals.org)
6. O‘zbek tili fani bo‘yicha uzluksiz majburiy ta’lim tizimida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar / O‘zbekicton Respublikasi uzluksiz majburiy ta’lim tizimining Davlat ta’lim standartlari, 2017-yil 10-aprel.

Shaxlo BOTIROVA,
Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari doktori

UZLUKSIZ TA'LIM INTEGRATSIYASIGA KLASTER TAMOYILLARINING TA'SIRI

Annotatsiya. Maqolada klaster tamoyillarining uzluksiz ta'limga ta'siri muhokama qilinadi va ta'lim klasteri har tomonlama tahlil etiladi.
Kalit so'zlar: adabiy ta'lim, klaster, integratsiya
Annotation. The article discusses the influence of cluster principles on continuous education and provides a comprehensive analysis of the educational cluster.
Keywords: literary education, cluster, integration.
Аннотация. В статье речь идет о влиянии принципов кластера на непрерывное образование и проводится комплексный анализ образовательного кластера.
Ключевые слова: литературное образование, кластер, интеграция.

Adabiy ta'lim klasterining barcha subyektlari yuqori kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan adabiyot fani o'qituvchilarini tayyorlashning ko'p bosqichli tizimini tashkil qiladi, muvofiqlashtiradi va tartibga soladi. Bu jarayonda oliy ta'limning o'rni zamonaviy bilim va malaka, kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan pedagog kadrlar tayyorlashda namoyon bo'lsa, ish beruvchilar: maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar o'z manfaatidan kelib chiqib integratsiyalashuv jarayoni ishtirokchisiga aylanadi. Adabiy ta'lim klasteri davlatning o'zgaruvchan talablariga mos holda adabiy ta'lim mazmuni va shakllarini muntazam yangilab borish, ta'lim sohasida innovatsion jarayonlarni chuqurlashtirish, ta'lim sifatini baholash mezonlari va usullarini takomillashtirish, adabiy ta'lim integratsiyasini ta'minlash imkonini beradi. U faoliyatning umumiy mexanizmlari, rivojlanish modellariga bo'ysunadi va ta'lim muammolarini samarali hal etish, innovatsion yechimlarni izlash, ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liqdir.

Sohaning o'ziga xosligidan kelib chiqib, adabiy ta'lim klasterini quyidagi yo'nalishlarda olib borish maqsadga muvofiq deb topildi:

1) ta'lim yo'nalishi;
2) ta'lim vositalari yo'nalishi;
3) ta'lim va fan yo'nalishi.

Adabiy ta'lim klasteri ta'lim yo'nalishining mazmuni quyidagilardan iborat:

– adabiy ta'limdagi muammolarni aniqlash, tasniflash va bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish;

– adabiy ta'limning o'quv-uslubiy salohiyatini takomillashtirish;

– adabiyot darsi mashg'ulotlarining sifatini boshqarish va nazorat qilish;

– adabiyot darslarining o'quv-metodik samaradorligini aniqlashning sodda va maqbul mexanizmlarini ishlab chiqish hamda adabiy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;

– adabiy ta'lim bo'yicha ta'lim turlari aro ustoz-shogird faoliyatini yo'lga qo'yish.

Adabiy ta'lim klaster yo'nalishi hamkorlik doirasida ta'limni tashkil qilish, boshqarish, sifatini oshirish, bu boradagi o'quv-uslubiy ishlarni takomillashtirish vositasida adabiy ta'lim integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan. Klaster hamkorlik modeli integratsiyani ta'minlashning oqilona yechimi sifatida ta'lim turlarining yaxlit tizimda va umumiy maqsad atrofida birlashishidan hosil bo'ladi. Ta'lim turlarining hozirgi tarqoq bosqichida buni amalga oshirishning imkoniyati past va klaster modeli bunga qarama-qarshi turadi hamda integratsiyani ta'minlash masalasi tabiiy ravishda asosiy o'ringa ko'tariladi.

Adabiy ta'lim klasteri ta'lim vositalari yo'nalishining mazmuni quyidagilardan iborat:

– adabiyot fanidan o'quv reja va fan dasturlarini shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va akmeologik ta'lim asosida takomillashtirish;

– adabiyot fanidan darsliklar, o'quv qo'llanmalarning mazmun-mundarijasini o'quvchilarning tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish nuqtayi nazaridan boyitish;

– adabiyot fani dars mashg'ulotining asosiy va yordamchi vositalari hamda didaktik ta'minotini takomillashtirish;

– adabiy ta'limda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish.

Integratsiya masalasi, avvalo, ta'lim vositalarida o'z aksini topadi. Shunday ekan, adabiy ta'limning asosiy va yordamchi vositalari yaxlit holda uzviylik, uzluksizlik va izchillik nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqilishi lozim. Bunda klaster modeli integratsiyani ta'minlashning asosiy omili sifatida maydonga chiqadi. Umuman, klaster modeli ta'limda tabiiy ravishda mavjud bo'lgan omil bo'lib, uning imkoniyatlaridan ta'lim amaliyotida foydalanish raqobatbardoshlikni oshirish, integratsiya, uzviylik, uzluksizlik va izchillikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bugungi kun ta'lim amaliyotida ta'lim turlarining turli vazirlik va idoralar boshqaruvida ekanligi, unda tabiiy ravishda mavjud bo'lishi lozim bo'lgan yaxlit tizimning yo'qligi ta'limda, xususan, adabiy ta'limda integratsiyaning ta'minlanmaganiga sabab bo'lib qolmoqda. Ta'lim klasterining global aspektdagi maqsadi ta'limni yagona tizimda birlashtirishdan iborat bo'lib, bu sohada

integratsiya bilan bog‘liq juda ko‘plab muammolarning yechimiga imkoniyat yaratadi.

Adabiy ta’lim klasteri ta’lim va fan yo‘nalishining mazmuni quyidagilardan iborat:

– adabiy ta’lim va fan (adabiyotshunoslik) o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish;

– ilmiy yo‘nalishda adabiy ta’lim turlari aro ustoz-shogirdlik faoliyatini tizimli tashkil qilish;

– oliy ta’lim va xalq ta’limi (shuningdek, maktabgacha ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi) xodimlari bilan hamkorlikda binar ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish (bunda ilmiy ishlanmalar oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilari tomonidan, uning amaliyotga tatbiq etilishi umumta’lim maktablari (maktabgacha ta’lim muassasalari, akademik litseylar) o‘qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi);

– adabiy ta’limda nazariya va amaliyot uyg‘unligiga erishish;

– adabiy ta’lim bo‘yicha ta’lim turlari aro hamkorlikning yangi shakllarini ishlab chiqishning nazariy asoslarini ilmiy tadqiq qilish.

Ta’lim va fan o‘rtasidagi integratsiyani ta’minlash mazkur yo‘nalishning pirovard maqsadi hisoblanadi. Adabiy ta’lim ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishda ayrim muammolar mavjud. Bu fan o‘z yo‘lida va ta’lim o‘z yo‘lida rivojlanayotganida ko‘zga tashlanadi. Vaholanki, fandagi ilmiy yutuq va erishilgan yangiliklarning ta’lim mazmuniga zudlik bilan singdirilishi ta’limning zamonaviy talablarga moslashuvchanligini ta’minlaydi. Ayni vaqtda, amaliyotda qo‘llanayotgan ayrim o‘quv-uslubiy, texnologik yangiliklar fanda hali-hanuz o‘z nazariy asoslarini topmaganligi bilan bog‘liq teskari jarayonni ham kuzatish mumkin. Umuman, agar ta’limda yaxlitlik ta’minlanmasa, bu kabi jarayonlarning kuzatilishi davom etaveradi. Ta’limni klaster modeliga o‘tkazish bilan bu kabi muammolarning yechimiga yo‘l topish mumkin bo‘ladi.

Mamlakatimizda mavjud pedagogik ta’lim sharoitidan kelib chiqib, adabiy ta’lim klasterining strategik yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim muassasalari uchun pedagogik oliy ta’lim muassasalari o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha pedagog kadrlar tayyorlash, shuningdek, adabiyot fani o‘qituvchilari va soha mutaxassislarining ilmiy-metodik bazalarini shakllantirishni muvofiqlashtirish va o‘quv-metodik rahbarlikni amalga oshirish.

2. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha viloyatdagi umumta’lim maktablarining ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish, jumladan, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlash asosida pedagogika sohasini rivojlantirishning strategik vazifalaridan kelib chiqqan holda, viloyatdagi ta’lim muassasalari adabiyot fani o‘qituvchilarining malakasini sifatli oshirish hamda qayta tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta’minlash.

3. Adabiy ta’limga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, ilg‘or xorijiy tajribalar, adabiyot dars mashg‘ulotlariga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni hisobga olgan holda viloyat ta’lim muassasalarida adabiyot fani davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja va dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirishni amalga oshirish.

4. Pedagogik oliy ta’lim muassasalari o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha viloyat umumta’lim maktablari uchun uslubiy ishlar, fundamental va amaliy ilmiy loyihalar olib borishni muvofiqlashtirish.

5. O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha uzluksiz pedagogik ta’limning informatsion ta’minotini takomillashtirish, adabiyot fani o‘qituvchilarining oqilona vorisiyligini ta’minlash choralarini ko‘rish.

6. Adabiy ta’limni tartibga soluvchi mavjud o‘quv-me’yoriy hujjatlarni takomillashtirish.

7. Adabiy ta’lim klasteri platformasini ishlab chiqish.

Adabiy ta’lim klasterining mazkur strategik yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda, uning samarali ishlashi uchun quyidagi shart-sharoitlar qondirilishi zarur:

– zamonaviy talablarga javob beradigan texnologik, ta’limiy va ilmiy infrastrukturaning bo‘lishi;

– adabiy ta’lim klasteri subyektlarining o‘zaro manfaatli hamkorlikka xayrixohligi va tayyorligi;

– adabiy ta’lim klasterini rivojlantirishning mustahkam hududiy strategiyasining bo‘lishi;

– adabiy ta’limni takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan loyihalarni boshqarish usulini muvaffaqiyatli qo‘llash imkoniyati;

– adabiy ta’lim klasteri subyektlari o‘rtasida axborot almashinuvini ta’minlovchi vositalarning mavjudligi.

Adabiy ta’lim klasteri yo‘nalishlarining to‘g‘ri belgilanishi, mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha ishlarning oqilona tashkil qilinishi adabiy ta’limda integratsiya bilan bog‘liq quyidagi natijalarga erishishni ta’minlaydi:

– adabiy ta’lim mavjud muammoning yechimiga ma’lum bir jamoaning o‘ziga xos xususiyatini inobatga olgan holda, muayyan ta’lim muassasalari boshqaruvi konsentratsiyasini kuchaytiradi;

– adabiy ta’limning funksional vazifalarini taqsimlash turli klaster a’zolari o‘rtasida muammoli jihatlar va zaif bo‘g‘inlarni aniqlash, masalalarni tashkiliy jihatdan hal etishda ularning optimal algoritmlarini topishga imkon beradi;

– adabiy ta’limga klaster yondashuvi sinergetik samaradorlikka imkon beradi, ya’ni har bir maktab tajribaga qo‘yilgan loyihaning bir qismini ishlab chiqadi, uni tizimdagi o‘rniga ko‘ra hal qiladi, ko‘pincha tajribaning umumiy manzarasini namoyon qilish orqali uning yangi qirralarini topishga imkon beradi.

Tadqiqotchilar tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim siyosati va mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan holda, pedagogik ta’lim klasteri tamoyillari sifatida quyidagilar belgilangan: *tabiiy aloqadorlik, uzviylik va uzluksizlik, izchillik, vorisiylik, zamonaviylik, yo‘naltirilganlik, maqsadning umumiyligi, manfaatlarning xususiyligi, o‘zaro nazorat* [1: 51–56]. Ushbu tamoyillar pedagogik ta’lim uchun universal va umummetodologik tabiatga ega bo‘lib, adabiy ta’limda ham integratsiyani ta’minlashning asosiy shartlarini belgilaydi.

Tamoyillarning klaster subyektlari o‘rtasida o‘zaro ko‘p tomonlama manfaatli hamkorlikni ta’minlashdagi roli integratsiya uchun qulayliklar yaratadi.

Adabiy ta’limda klaster subyektlarining o‘zaro hamkorligi va aloqadorligi shubhasiz va tabiiydir. Mazkur bog‘liqlikning hududiy, sohaviy va vazifaviy jihatdan obyektivligi adabiy ta’limda klasterning tabiiy aloqadorlik tamoyilini belgilaydi. Ta’limda, xususan, adabiy ta’limda klaster hamkorlikni sun’iy ravishda shakllantirish mumkin emas. Demak, adabiy ta’lim klasteri manfaatdorlikdan kelib chiqqan tabiiy aloqadorlik natijasi bo‘lib, uning maqsadi adabiy ta’limni yaxlit tizim sifatida qabul qilish, unda sifat va samaradorlikni oshirish, integratsiya jarayonlarini kuchaytirishga qaratilgan. Adabiy ta’limda tabiiy aloqadorlikni ta’minlash, ta’lim turlari o‘rtasidagi tarqoq salohiyatni muayyan maqsad atrofida birlashtirish, uning mexanizmlarini ishlab chiqish, axborot va innovatsiyalar almashinuvini jadallashtirishning eng maqbul usuli klaster yondashuvini qaror toptirishdir.

Adabiy ta’lim klasteri subyektlari o‘zaro aloqadorlikda zanjir hosil qilishi, har bir bo‘g‘in aniq vazifalarni belgilab olishi, uzluksizlik zanjirida bo‘shliqlarning bo‘lmasligi klasterning uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga asoslanadi. Bu o‘rinda adabiy ta’lim mazmunining tabiiy ketma-ketligini ta’minlash, o‘quvchilarning yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olish uzviylikni yuzaga keltiradi. Uzviylikni ta’minlashda ta’lim turi ichida yoki ta’lim turlari aro integratsiya inobatga olinishi muhim. Adabiy ta’limda ta’lim turlarining o‘zaro ketma-ketligida uzilishlarning bo‘lmasligi uzluksizlikni ta’minlaydi. Xulosa qilish mumkinki, adabiy ta’limda uzviylik va uzluksizlik o‘zaro bir-birini taqozo qiladigan tushunchalar bo‘lib, uni qaror toptirish adabiy ta’limga klaster yondashuvi va unda integratsiya jarayonlari ta’minlanishini yuzaga keltiradi.

Adabiy ta’lim klasterida subyektlarning vertikal yo‘nalishda joylashuvi, unda quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich harakatlanish tendensiyasiga amal qilish izchillik tamoyilini qaror toptiradi. Adabiy ta’limda izchillik mazmun va shakl, integratsiya jarayonlari bilan bevosita bog‘liq. Unda ta’lim turlarining o‘ziga xosligi, maqsadi va vazifalari, adabiyot fanining DTSi, ta’lim bosqichini bitirayotganlarga qo‘yiladigan malaka talablari inobatga olinishi lozim. Adabiy ta’lim klasterining izchillik tamoyili unda integratsiyani ta’minlash bilan bevosita bog‘liq ravishda kechadi. Adabiy ta’lim turlari aro izchillik klasterga aloqador hodisa bo‘lib, uning ta’minlanishi klaster doirasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan masalalarga mos tushadi. Demak, adabiy ta’lim klasterida ta’lim mazmuni, shakli, vositalari hamda texnologiyalarining pastdan yuqoriga, osondan qiyinga qarab harakatlanish tamoyiliga asosan ishlab chiqilishi izchillikni ta’minlaydi va bu sifat hamda samaradorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiy ta’lim klasterining adabiyot fani o‘qituvchilarining avlodlar almashinuvidagi roli, ustoz-shogirdlik faoliyati, adabiy ta’limni klasterlashtirish natijasida subyektlarning malakali adabiyot fani o‘qituvchilariga bo‘lgan ehtiyoji muntazam qondirilishiga erishish vorisiylik tamoyilini belgilaydi. Vorisiylik jamiyatda o‘qituvchi kasbi nufuzining oshishi bilan ham bog‘liq jarayondir. Vorisiylikning ta’minlanishi adabiy ta’lim rivojida turg‘unlik yoki depsinishlar bo‘lishining oldini oladi.

Zamonaviylik tamoyili adabiyot ta’limiga oid zamonaviy ilm-fan yutuqlarini sohaga joriy qilish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanishdir. Zamonaviylik tamoyili adabiy ta’limning o‘quv-uslubiy, ilmiy-amaliy sohalarida erishilgan ilg‘or xorijiy tajribalarni ham ijobiy o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Umuman, ta’lim ijtimoiy ahamiyatga ega hodisa sifatida umumiy qonuniyatlar asosida rivojlanadi. Mazkur umumiy metodologik ahamiyatga ega bo‘lgan jihatlarni o‘zlashtirish va ta’lim amaliyotiga tatbiq etish doimo o‘zining ijobiy samarasini bergan. Xususan, adabiy ta’limning boshqa fan sohalari bilan integratsiyani ta’minlash borasida dunyo amaliyotida erishilgan natijalarni tezkorlik bilan o‘zlashtirish va uni joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish adabiy ta’lim klasterining zamonaviylik tamoyili mazmun-mohiyatiga mos keladi.

Adabiy ta’lim klasteri doirasida amalga oshiriladigan har bir faoliyat turining aniq maqsadga yo‘naltirilishi, kutilayotgan natijalarni oldindan chamalash va baholash imkoniyatining mavjudligi uning yo‘naltirilganlik tamoyili bilan bog‘liq. Klaster hududida adabiy ta’lim sifatini ta’minlashda mavjud muammolarning bartaraf qilinishi yoki muayyan ko‘rsatkichlarni oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy loyihalar tajriba-sinovdan o‘tkazilishi kerak. Adabiy ta’lim klasterining ilmiy tadqiqot, axborot-tahliliy, ilmiy-uslubiy va tajriba-innovatsion yo‘nalishlarining har birida bir nechta loyihalarni yo‘lga qo‘yish mumkin. Bu loyihalar mazkur yo‘nalishlarning alohida qirrasida sifatni oshirishga (yoki mavjud muammoni bartaraf qilishga) yo‘naltirilishi lozim. Shu taxlitda ishlash adabiy ta’lim klasterining faoliyatini yanada aniqlashtiradi, ixchamlashtiradi va aniq maqsadga yo‘naltirilishini ta’minlaydi.

Adabiy ta’lim klasteri subyektlarining xususiy manfaatidan tashqari, jamoaviy faoliyatga daxldor umumiy maqsadni topa olish uning asosiy omillaridan hisoblanadi. Umumiy maqsad tamoyili adabiy ta’lim klasterining strategik yo‘nalishlari bilan aloqador bo‘lib, uzoqni ko‘zlab amalga oshirilgan rejani nazarda tutadi. Bu muayyan klaster subyektiga bevosita aloqador bo‘lmasligi mumkin, ammo bilvosita taalluqli bo‘lib, klasterning muvaffaqiyati o‘sha subyektning ham faoliyat samaradorligini ta’minlaydi. Umumiy maqsadda adabiyot fanini sifatli o‘qitish bilan bog‘liq klasterni tashkil qiluvchi barcha subyektlarning manfaatdorligi aks etishi kerak. Aks holda klaster to‘laqonli ishlamaydi va adabiy ta’lim integratsiyasiga putur yetadi, izchillik yo‘qoladi, uzviylik va uzluksizlik ta’minlanmaydi. Bu esa adabiy ta’lim klaster zanjirida uzilishga hamda klasterning nuqsonli yoki umuman ishlamasligiga sabab bo‘ladi. Maqsadning umumiyligi integratsiya jarayoni bilan bevosita bog‘liq.

Har bir subyektning adabiyot fanini o‘qitish bilan bog‘liq ta’lim samaradorligidan manfaatdor bo‘lishi ada-

biy ta’lim klasterining manfaatlar xususiyligi tamoyilini belgilaydi. Adabiy ta’lim klasterida subyektlarning xususiy manfaatlari umumiy manfaat uchun xizmat qiladi. Manfaatdorliksiz pedagogik ta’lim klasteri mavjud bo‘la olmasligi adabiyotlarda qayd qilingan [1: 55]. Adabiy ta’lim klasterida xususiy manfaat ijtimoiy shaklda, ya’ni kadrlar salohiyatini kuchaytirish, adabiy ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning adabiy savodxonligini oshirish bilan yuzaga chiqadi. Ijtimoiy manfaatdorlik subyektlarning moddiy manfaatdorligiga xizmat qiladi. Umuman, kadrlar salohiyatini ko‘tarish va moddiy manfaatdorlikni oshirish o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, adabiy ta’lim klasterida ular parallel ravishda olib boriladigan jarayonlar sifatida qaraladi. Adabiy ta’lim klasterining tabiiy aloqadorlik tamoyili ayni paytdagi eng oqilona xususiy manfaatdorlik ta’minlangandagina sodir bo‘ladi.

O‘zaro nazorat tamoyili adabiy ta’lim klasteri doirasida birlashgan ta’lim subyektlarining o‘zaro yagona tizimni hosil qilishi va bu tizimning nuqsonsiz ishlashidan har bir subyektning manfaatdor ekanligi, muayyan subyektda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchilik boshqa subyektlarning faoliyat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, subyektlar faoliyatini o‘zaro baholash tizimining yo‘lga qo‘yilishidir. Shu jarayonda adabiy ta’lim klasterining muayyan yaxlit tizim sifatidagi hodisa ekanligi namoyon bo‘ladi, bu esa o‘zaro nazorat tamoyilining ishlashini taqozo qiladi. Klasterda aloqadorlik tizimining mukammalligi o‘zaro nazoratning qay darajada kuchli ekanligiga bog‘liq. Bunda subyektlar faoliyatini baholashning umumiy maqsad va xususiy manfaatdorlikdan kelib chiquvchi obyektiv mezonlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhamedov G‘., Ho‘jamqulov U., Toshtemirova S. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri. – Toshkent: Universitet, 2020.
2. Mardonov Sh., Khodjamkulov U., Botirova Sh., Shermatova U. The need to educate young people in the spirit of patriotism in the context of globalization // Journal of Critical Reviews, 2020. Vol.7, Iss.12. pp. 166–169.
3. Botirova Sh.I. Problematic aspects related to the use of educational technologies and interactive methods in the classroom // International Journal of Multidisciplinary Research, 2020. 6(8), pp. 539–541.
4. Botirova Sh. Adabiy ta’lim klasteri. Monografiya. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 172-bet.

Ulug‘bek YO‘LDOSHEV,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o‘qituvchisi, falsafa doktori (PhD)

NASRIY TARJIMA KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda tarjimonning kasbiy kompetensiyasi va uning tarkibiy qismlari borasida so‘z yuritiladi.
Kalit so‘zlar: tarjimon, matn, nasriy matn, kompetensiya, kasbiy malaka, lingvistik va ekstralingvistik bilim, nasriy kompetensiya.
Annotation. This article discusses the professional competence of a translator and its components.
Keywords: translator, text, prosaic text, competence, professional skills, linguistic and extralinguistic knowledge, prosaic competence.
Аннотация. В статье рассматриваются профессиональная компетентность переводчика и ее составляющие.
Ключевые слова: переводчик, текст, прозаический текст, компетенция, профессиональная квалификация, лингвистические и экстралингвистические знания, прозаическая компетенция.

Har bir sohaning bo‘lajak kadrlarini tayyorlashda ta’lim jarayonida rivojlanishi va takomillashishi kerak bo‘lgan o‘ziga xos kasbiy kompetensiya mavjud bo‘lib, u kelgusi kasbiy faoliyatida o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmadan samarali foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimon tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak kadrlarni professional qilib tayyorlashning bir necha shartlari mavjud bo‘lib, shulardan biri kasbiy kompetensiyani shakllantirishdir. Tarjimon kasbiy kompetensiyasining mohiyati, uni rivojlantiruvchi omillar borasida so‘z yuritishdan oldin kompetensiya va uning kontekstual tarkibi haqida fikr-mulohazalarimizni bayon etamiz.

Shu o‘rinda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining asosiy xossalari borasida so‘z yuritish maqsadga muvofiq. Pedagogik adabiyotlarda ushbu tushunchalar mazmunini to‘liq ifodalash bo‘yicha fikrlar xilma-xil. “Chet tillar lug‘ati”da “kompetensiya” terminiga quyidagicha izohlar berilgan:

1) har qanday organ yoki mansabdor shaxsning obro‘si;

2) shaxsning bilimi, tajribasini anglatuvchi masalalar sohasi.

Shuningdek, u “kompetentlik” terminiga ham aloqador:

1) kompetensiyaga egalik qilish;

2) muayyan bir sohada biror narsani baholashga imkon beradigan bilimlarga ega bo‘lish.

Amerikalik tadqiqotchi R.Meyerers “kompetentlik” tushunchasi ostida nafaqat oldindan belgilangan kasbiy mezonlarga rioya etilishini, balki amalda xatti-harakatlar amalga oshirilishini namoyish etishni tushunadi [1]. Shunday qilib, bu ta’rif kompetensiyaning faoliyat komponentini ham o‘z ichiga oladi, bu esa, o‘z navbatida, undan foydalanish chegaralarini kengaytiradi. Demak, kompetensiya – bo‘lajak kadrlarning kelgusi faoliyatida o‘z kasbi bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari, kompetentlik – ta’lim jarayonida rivojlangan va takomillashgan bilim, ko‘nikma va malakalarni bo‘lajak kasbiy faoliyat jarayonida qo‘llay olish qobiliyatidir.

Tarjimon kompetensiyasini talabalarda shakllantirish va rivojlantirish masalasi bilan shug‘ullangan bir guruh olimlar [2] tomonidan tarjimon kompetensiyasi quyidagicha tasniflangan:

– o‘girish kompetensiyasi: tarjima qilinayotgan matnlardagi muammolarni aniqlash va ko‘zlangan maqsadga erishish uchun strategiyalarni shakllantirish;

– til kompetensiyasi: yuqori darajadagi me’yorga erishish uchun asliyat va tarjima tillarining ko‘plab variantlaridan foydalanish;

– matn bilan bog‘liq kompetensiya: badiiy janrlar va uslublarni farqlash va qayta yaratish;

– evristik kompetensiya: tarjima qilish uchun zarur bo‘lgan lingvistik va tematik bilimni tizimlashtirish;

– kasbiy kompetensiya: badiiy tarjima sohasidagi faoliyat yuritish jarayonini anglash va bilimlarni tizimlashtirish;

– baholash kompetensiyasi: tarjima variantlarini va tarjimonlarning ta’sirini baholash;

– izlanish qobiliyati: tarjimashunoslikdagi metodik va muvaffaqiyatli tadqiqot ishlari yutuqlarini amaliyotda qo‘llash.

Demak, mazkur kompetensiyalar tarjimonlik sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassisda akademik bilim olish jarayonida shakllanishi lozim bo‘lgan kompetensiyalar hisoblanib, ular bo‘lajak tarjimonlarda o‘z faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimiz jarayonida bo‘lajak tarjimonlarni badiiy tarjimaga o‘rgatishda muhim o‘rin tutuvchi kompetensiyalarning alohida turini taklif etmoqchimizki, ushbu kompetensiya badiiy tarjimada, xususan, nasriy matnlar tarjimasida tarjimon faoliyatini samarali tashkil etishda muhim. Bu borada talabalarda nasriy tarjima kompetensiyasini shakllantirish lozim.

Bo‘lajak tarjimonlarda nasriy tarjima kompetensiyasini shakllantirishning bir nechta talablari mavjud,

unga ko‘ra talaba quyidagilar borasida bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi lozim:

– asliyat va tarjima tillari badiiy matnining sintaktik, leksik-semantik, stilistik, tekstual sathlari xususiyatlari;

– asliyat va tarjima tillarining badiiy xususiyatlari;

– asliyat va tarjima tillari badiiy matnining tuzilishiga ko‘ra xususiyatlari;

– badiiy matnning o‘ziga xos xususiyatlari va uning boshqa soha matnidan ajralib turadigan farqlari;

– asliyat va tarjima matni sohiblarining madaniyati bo‘yicha keng bilimlar majmuyi;

– badiiy matnning ekstralingvistik – madaniy, kognitiv, konseptual xususiyatlari;

– badiiy tarjimada qo‘llaniladigan tarjima uslublari;

– badiiy tarjimada qo‘llaniladigan tarjima transformatsiyalari.

Talabalarning yuqorida ta’kidlab o‘tilgan sohalardagi bilim, ko‘nikma va malakalarini yetarli darajada rivojlantirish orqali nasriy tarjimaga aloqador tarjima muammolarini bartaraf etish mumkin. Bu jarayon bevosita badiiy tarjimani o‘qitishning asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi.

Badiiy tarjimaga o‘rgatishda kasbiy yo‘nalish asosida tarjima kompetensiyasining madaniyatlararo va filologik komponentlarini shakllantirish birinchi o‘ringa chiqadi. Bu madaniy va filologik jihatdan shaxsga o‘z madaniyatidan tashqariga chiqish va madaniyat vositachisi sifatlarini o‘rganish imkonini beradi. Bu, birinchi navbatda, zamonaviy tarjimashunoslikda tarjimaga ikki tilli madaniyatlararo muloqot sifatida qaraladi, bunda tarjimon ikki xil madaniyatga mansub, turli tillardagi ikkita matn bilan shug‘ullanishi kerak. Shuni ham inobatga olish kerakki, asliyat va tarjima tillaridagi matnlar har xil vaziyat va turli madaniyatlarda yaratiladi. Shuning uchun yozuvchi va o‘quvchining ma’lumoti turlicha bo‘ladi. Bu esa badiiy asardagi ayrim ma’lumotlarni shaffof yetkazib berishda tarjimonga qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

Shunday qilib, nasriy tarjima kompetensiyasini talabalarda shakllantirish uchun quyidagilarga e’tibor berish lozim:

– asl matnning tarjimasi bir tildan ikkinchisiga rasmiy jihatdan qayta yaratilmasligi, balki matnning lingvistik va ekstralingvistik omillari hisobga olinishi lozim;

– muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi ma’naviy qadriyatlarni qabul qilishdagi asosiy vositachi tarjimon bo‘lib, uning kompetensiyasi bu jarayon rivojlanishida qanchalik muvaffaqiyatli bo‘lishiga bog‘liq;

– nasriy tarjimon kompetensiyasini shakllantirish faqat maxsus ishlab chiqilgan mashqlar tizimiga asoslanishi va u maxsus ishlab chiqilgan mashqlar tizimiga kiritilgan bo‘lishi lozim;

– tarjimani o‘qitishda mashqlar tizimi tarjimaning barcha o‘ziga xos xususiyatlarini o‘z ichiga qamrab olishi va bu mashqlar tarjima jarayonini amalga oshirishda tarjimon ko‘nikmalarini shakllantirishi va rivojlanishi kerak.

Shuningdek, badiiy tarjimaga o‘qitish talabalarning bilim va malakalarini quyidagi ketma-ketlikda bosqichma-bosqich shakllantirishni o‘z ichiga oladi:

– tarjima jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari (bosqichlarga bo‘linishi);

– ta’lim shart-sharoitlari (fan, dastur va o‘qitish modeliga ko‘ra fanga ajratilgan soatlar);

– talabalarning til bo‘yicha malakasi.

Xullas, talabalarga badiiy tarjimani o‘qitishda nasriy tarjima kompetensiyasini shakllantirish asosiy masalalardan biri hisoblanib, bu borada o‘qituvchi talabalarning asliyat va tarjima tillarining lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari, badiiy tarjimada qo‘llanadigan tarjima uslub va usullari, badiiy matn va uning o‘ziga xos xususiyatlari borasidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Talabalarda nasriy tarjima kompetensiyasini shakllantirish uchun uch bosqichli – tarjima oldi mashqlar, tarjima jarayoniga doir mashqlar va tarjima tahririga doir mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Talabalarda nasriy tarjima kompetentligini rivojlantirish uchun esa til mashqlari, operatsion hamda kommunikativ mashqlardan samarali foydalanish ko‘zlangan maqsadga erishishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Современный словарь иностранных слов. Толкование, употребление, словообразование, этимология. – Москва: Феникс, 2009.

2. Development and implementing local educational standards / Ed. by Meyers R. ERIS Clearing House on Assessment and Evaluation, 1998.

Угилой КУСАНОВА,
доктор философии по педагогическим наукам,
доцент Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами

УЛУЧШЕНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОЗИЦИИ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА С ПОМОЩЬЮ ДИДАКТИЧЕСКОЙ ИНЖЕНЕРИИ

Проблема технологизации образования в Узбекистане решается активным внедрением в учебно-воспитательный процесс «инновационных форм образования, современных педагогических и информационных технологий, эффективных методов профессиональной ориентации, обучения и воспитания с учетом оптимизации учебных, психологических и физических нагрузок учащихся» [1]. Технологизация обучения осуществляется на основе технологического подхода, который предполагает прежде всего обращение к различным технологиям обучения для дифференциации и индивидуализации обучения; повышения эффективности и качества обучения, рациональной затраты времени, достижения устойчивости результатов обучения и др. [2]. Другими словами, в рамках этого подхода мы имеем возможность ответить на вопросы чему, зачем и каким образом учить, чтобы достичь качественного результата и определить релевантные и эффективные параметры оценивания для установления качественного уровня достижений обучаемых. Все это предполагает решение серьезных задач в контексте педагогической инженерии или же технологического подхода к образованию.

В научной литературе широко используется термин «дидактическая/педагогическая инженерия» с целью доказательства взаимосвязи между теорией дидактики и эмпирической реальностью (практики обучения) [3]. Поэтому этот термин эксплуатируется в методологии эмпирических исследований в аспектах проектирования, конструирования и решения проблемных ситуаций, возникающих в учебном процессе и в основном связанных с развитием личности обучаемого (антропоцентрический подход). В свете ускоренного развития Интернет-технологий дидактическая/педагогическая инженерия также ассоциируется с проектированием и разработкой программ дистанционного или он-лайн обучения [4]. Следовательно, технологизация образования посредством технологического подхода к дидактике и есть дидактическая инженерия [5].

Согласно исследованиям [3], в рамках дидактической/педагогической инженерии проводятся следующие виды деятельности: анализ уроков и учебных



материалов, проектирование и конструирование, освоение, модификация или разработка новых методик обучения и их апробация на практике. Нет сомнения, что дидактическая/педагогическая инженерия как научное направление и предмет обучения способствует расширению и углублению знаний в области методики обучения и установлению инновационных средств повышения качественной стороны процесса и результата образования.

Экстраполируя дидактическую инженерию в методику обучения иностранному языку (далее – ИЯ), мы можем отметить ее инновационный потенциал в решении следующих задач:

– как улучшить процесс обучения ИЯ в естественных ситуациях образования?

– какие подходы, методы и приемы могут использоваться в классе, чтобы улучшить результаты обучения ИЯ?

– какие проблемы связаны с развитием конкретных или специфичных знаний, навыков и умений и каким способом (методическими стратегиями) можно их разрешить?

С учетом этих задач под дидактической инженерией мы можем понимать технологический компонент процесса обучения, важность которого обусловлена доводами Бала Кумаравадивелу касательно пассивных и рефлексивных учителей-практиков [6, с. 8–13]. Но прежде следует оговориться, почему мы обра-

щаемся именно к доводам этого профессора. Это вызвано тем, что в научном мире Б.Кумаравадивелу известен ценными исследованиями с комбинированием методов и постметода периода [7], что свидетельствует об огромном научном и практическом опыте этого ученого именно в области технологического компонента обучения языку.

Согласно идеям ученого, многие учителя не обращают внимания на технологический компонент, который связывается с отбором и использованием эффективных методов обучения соответственно заданному контексту обучения. Поскольку учебник ИЯ выступает моделью обучения, многие учителя считают, что технологический компонент в организации занятий является прерогативой создателей учебника. Безусловно, технологический аспект в основном определяется теоретиками, которые предлагают новые идеи и конструируют необходимые знания в той или иной сфере коммуникативной деятельности. Однако авторы учебников, преломляя идеи теоретиков в практику, не всегда учитывают все стороны технологического обеспечения процесса обучения. Учителей, которые транслируют знания беспрекословно следуя методическим инструкциям авторов учебника, Б.Кумаравадивелу справедливо называет пассивными техниками [6, с. 8]. Тем не менее главная задача учителей понимать идеи, предлагаемые теоретиками, а также авторов учебника, эффективно и творчески их воплощать на практике, порой модифицируя и усовершенствуя тот или иной технологический элемент, т.е. интегрируя всевозможные методы, средства и формы обучения [2, 8, 9]. В связи с этим в противовес пассивным учителям-практикам Б.Кумаравадивелу ставит рефлексивных практиков *(Reflective Practitioners)* [6, с. 10], способных к размышлению и рефлексивной деятельности, т.е. к инновационной деятельности.

В зарубежной методической литературе много сказано о таком типе учителей, которые чувствительны к технологической стороне проведения урока, могут видеть проблемы и решать их своевременно, а также предлагать новые идеи, а не просто выступать транслятором знаний. По Б.Кумаравадивелу, учителя должны быть не пассивными трансляторами знаний, а выступать как трансформаторы идей, концепций, в частности, решать проблемы, осознавать причинно-следственные связи, критически мыслить, иметь творческое воображение, уметь прогнозировать, проектировать и конструировать новые смыслы [6, с. 13-14]. Это подразумевает осознание того, «что ты делаешь, думая о том, почему ты это делаешь, и как оно может работать в процессе самоанализа и самооценки» [6, с. 11-12].

Рефлексивная деятельность учителя или рефлексивное обучение соотносится с творчеством, конструктивистской дидактикой, чувствительностью ко всем элементам учебного процесса [10]. Собирая сведения о том, что происходит в классе посредством методов анализа и оценки, учителя исследуют свою практику обучения, идентифицируют недостатки и преимущества и соответственно предлагают пути исправления выявленных пробелов.

Педагогическая рефлексия как свойство профессионального мышления учителя

Значит, педагогическая инженерия, построенная на конструктивистской дидактике, подразумевает рефлексивную деятельность как учителей, так и обучаемых. В этих условиях учитель обязан подходить к своей деятельности творчески, рефлексируя на саму технологию проведения урока с помощью анализа, оценки и принятия соответствующего решения о выборе более эффективных методов и приемов обучения для достижения поставленных задач на уроке [2, 9, 10, 11]. Сама технология рефлексивного обучения в контексте конструктивистской дидактики может быть представлена на основе следующих целей и вопросов, описанных Дж. Г.Хендерсоном в книге “Reflective teaching. Study of your constructivist practices” [10, с. 8–10].

Представьте себе, что вы учитель английского языка и проводите занятие по известному произведению Шекспира «Ромео и Джульетта». Какие методические стратегии вы будете использовать, чтобы студенты поняли это произведение с позиции их жизненного опыта и внутреннего мотива к действию или принятию какого-либо решения? Известно, что основной сюжет данного произведения развивается вокруг конфликта или вражды между двумя семьями. Что вы предпримите, чтобы важными объектами изучения стали определенные ценностные ориентиры, обусловленные этой враждой? Смогут ли студенты обнаружить и осознать определенные ценностные ориентиры в ходе изучения описанного конфликта между семьями? Учитель-конструктивист, отвечая на эти вопросы, успешно достигает первой своей цели.

Второй целью, естественным образом, становится понимание глубинных мотивов студентов с позиции их жизненного опыта, личностного мировосприятия данной проблемы. Здесь учителю надо ответить

на вопросы: Как хорошо студенты знают себя, осознают ли свой внутренний мир? Предположим, что цель работы над этой драмой – понять самих себя. Как вы обеспечите работу по осознанию личностного внутреннего мира? Как направите студентов, чтобы они смогли осмыслить и выразить свое отношение к данной проблеме? Размышляя над этими вопросами, вы рефлексируете на вторую цель.

Третья цель заключается в оказании помощи в понимании других и в принятии компромиссного, т.е. единогласного решения. Здесь вы должны исходить из того, что одной из целей изучения данного произведения является установление мирного диалога между людьми для решения конфликта. Ввиду этого как вы объясните ключевую идею этого произведения и организуете работу в группе, где каждый студент – это личность со своим видением мира и со своей точкой зрения? Будут ли они испытывать ответственность за свое решение, придут ли к общему согласию, преодолевая разобщенность в группе? Сможете ли вы создать атмосферу для разностороннего и равноправного взаимодействия? Какой модели поведения следует придерживаться?

Как видно из этого примера и поставленных целей в виде вопросов, основное внимание сфокусировано не на развитии языковых навыков и умений, а на понимании личности, мотивов к действию, компромиссному решению конфликтных ситуаций. Подобные исследования проблемы базируются на антропоцентрическом подходе к образованию как к одному из важных положений самой педагогической инженерии (см. выше). Благодаря конструктивистской дидактике, где задействованы личностно-ориентированный и исследовательский подходы, происходит передача инициативы студентам для полного раскрытия личностного потенциала и создания социально важных условий к принятию решения.

Сама рефлексивная деятельность учителя может осуществляться при планировании занятий, в ходе занятий и после проведенных занятий. Например, 1) учитель планирует занятие, а после занятия анализирует эффективность используемых стратегий обучения (reflection-on-action); 2) в процессе занятия, чтобы идентифицировать неожиданные проблемы и мгновенно решить их, т.е. регулировать непредвиденные проблемные ситуации (reflection-in-action).

Итак, мы можем сделать вывод, что дидактическая инженерия и есть конструктивистская дидактика, представляющая собой инновационную деятельность, осуществляемую на основе технологического и рефлексивного подходов. Владение соответствующими навыками и умениями в области дидактической инженерии позволяет учителю быть рационализатором и новатором.

Литература

1. Об утверждении положения о Министерстве народного образования Республики Узбекистан.
2. Монахов В.М. Технологические основы проектирования и конструирования учебного процесса. Волгоград: Перемена, 1995.
3. Barquero B., Bosch M. Didactic Engineering as a Research Methodology: From Fundamental Situations to Study and Research Paths // In: New ICMI Study Series: Task Design In Mathematics Education. A. Watson, M. Ohtani Eds. – Springer International Publishing Switzerland, 2015.
4. Тарасов М. А. Технологический подход к процессу обучения как средство повышения качества образования школьников. Дис. … канд. пед. наук. Нижний Новгород: Нижегородский государственный педагогический университет, 2000.
5. Tchoshanov M. Engineering of Learning: Conceptualizing e-Didactics. UNESCO Institute for Information Technologies in Education, 2013.
6. Kumaravadivelu B. Beyond Methods. Macrostrategies for Language Teaching. New Haven and London: Yale University Press, 2003.
7. Kumaravadivelu B. Toward a Post-method pedagogy //TESOL Quarterly. 35. 2001. https://doi.org/10.2307/3588427.
8. Седаева Л.С. Технологический подход к процессу обучения в профильных образовательных учреждениях. Автореф. дис... канд. пед. наук. Ижевск: Институт повышения квалификации и переподготовки работников образования Удмуртской Республики, 2006.
9. Боровских Т.А. Технологический подход к индивидуализации обучения // Педагогические исследования, 2010.
10. Henderson J.G. Reflective Teaching. Study of Your Constructivist Practices. 2-d ed. New Jersy, Englewood Cliffs: Prentice-Hall, Inc., 1996.
11. Posner G.J. Analyzing the Curricular. New York: McGraw-Hill, 1992.